

10

# IQTISODIY GEOGRAFIYA

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI

---

E. NIGMANOV

# IQTISODIY GEOGRAFIYA

## (JADVALLARDA)

*O'quv qo'llanma*

*O'liy ta'larning – «Bojxona ishi» va «Bojxona huquqi»  
ta'lim yo'nalishi tinglovchilari uchun*

*Cho'ipon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi  
Toshkent – 2016*

UO'K 911(075.8)

KBK 65.04ya73

N 54

### Taqrizchilar:

*A. Qayumov – O'zbekiston Milliy universiteti*

*«Mintaqaviy iqtisodiyot va menejment» kafedrasi professori, g.f.d.*

*A.B. Abulqosimov – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti*

*«Sanoat iqtisodiyoti» kafedrasi dotsenti, i.f.n.*

*T. Pardayev – Oliy harbiy bojxona instituti dotsenti,*

*«Tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan taribga solish»*

*kafedrasi boshlig'i v.b., i.f.n., b/x podpolkovnigi*

### Nigmanov E.

N 54

Iqtisodiy geografiya (jadvallarda) [matn]/ o'quv qo'llanma/  
O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi –  
T.: Cho'lpion nomidagi NMIU, 2016, 308 bet.

ISBN 978-9943-05-894-1

Iqtisodiy geografiya fani 40 soat ma'ruza, 40 soat seminar va 40 soat mustaqil ta'limga mo'ljallangan bo'lib, o'quv qo'llanma 2 bo'lim, 15 bob va 47 ta ilovadan iborat. Mazkur fanni talaba va tinglovchilar o'zlashtirishlari qulay bo'lishi uchun o'quv qo'llanmaning asosiy matni va ilovalardagi asosiy ko'sratkichlar jadval shaklida berilgan.

Ushbu o'quv qo'llanma Oliy ta'larning – «Bojxona ishi» va «Bojxona huquqi» ta'lif yo'nalishlarida tahsil olayotgan talabalar, tinglovchilar, shuningdek, bojxona organlari xodimlari hamda malaka oshurish kurslari tinglovchilari uchun mo'ljallangan.

UO'K 911(075.8)

KBK 65.04ya73

ISBN 978-9943-05-894-1

© Nigmatov E., 2016

© Cho'lpion nomidagi NMIU, 2016

## KIRISH

O'zbekistonning iqtisodiy taraqqiyotiga xizmat qiluvchi har tomonlama yetuk, jahon talablariga javob beradigan mutaxassislarni tayyorlashda iqtisodiy ta'lif yo'nalishlaridan biri sifatida «Iqtisodiy geografiya» fani ham katta hissa qo'shamoqda.

«Iqtisodiy geografiya» fani ishlab chiqarishning hududiy muammolarini tabiiy va iqtisodiy sharoitga bog'liq holda o'r ganadi; dunyo hamda turli mamlakatlar va mintaqalarda ishlab chiqarish kuchlarini rivojlanirish va hududiy tashkil etish xususiyatlarining obyektiv qonuniyatlarini asoslab beradi; ishlab chiqarishning joylashishi va rivojlanishi xususiyatlarini o'r ganish jarayonida mamlakatlar hududida iqtisodiy rayonlarning vujudga kelishi, ular o'rtasida iqtisodiy aloqalarning shakilanishi va rivojlanishini izohlaydi; shuningdek, ayrim mamlakatlar va hududlar xo'jaligining tasnifini aniq iqtisodiy-statistik ma'lumotlarni tahlil qilish va umumlash tirish asosida o'r ganib, qisqacha ilmiy xulosalar chiqaradi va tavsiyalar beradi.

Mazkur o'quv qo'llanma jadvallarda tuzilib, kirish, 2 bo'lim, 15 bob, nazorat savollari, seminar topshiriqlari, tavsiya qilinayotgan adabiyotlar ro'yxati va 47 ilovadan iborat.

O'quv qo'llanmada «Iqtisodiy geografiya» fani predmeti, ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish qonuniyatları, dunyo siyosiy xaritasi rivojlanishining asosiy bosqichlari, yirik o'zgarishlar, dunyo sanoati, qishloq xo'jaligi, transporti, ularning turli mamlakat guruhlarida joylashishi va rivojlanishi tahlil etilgan. Dunyonı regional o'r ganish jihatidan AQSH, Germaniya, Yaponiya Xitoy hamda MDH mamlakatlari iqtisodiy-geografik tavsiyi o'rin olib, ularning jahon xo'jaligiga qo'shayotgan hissasi, tarmoq va hududiy tizimlari o'r ganilgan. Shuningdek, O'zbekistonning jahon xo'jaligida tutgan o'rni, tabiiy salohiyati, aholi dinamikasi va mehnat

resurslari, bozor iqtisodiyoti sharoitida sanoat va qishloq xo‘jaligi tarmoqlarining rivojlanshi va joylashish xususiyatlari, transport aloqalari, tashqi iqtisodiy aloqalarining rivojlanishi va ekologiya kabi masalalar tavsliflari bayon etilgan.

«Iqtisodiy geografiya» fani bo‘yicha tayyorlangan o‘quv qo‘llanmaning nazariy va amaliy ahamiyati, asosiy kategoriya va tushunchalarini, uning boshqa fanlar bilan aloqasi, bozor munosabatlariga o‘tish davrida hududiy mehnat taqsimoti, ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish, ekologiya va barqaror taraqqiyot masalalari ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, unda O‘zbekiston Respublikasi milliy iqtisodiyotining shakllanishi, viloyatlarning iqtisodiy rivojlanishi, mamlakatning mintaqaviy siyosati kabi masalalar yoritilgan.

O‘quv qo‘llanma bojxona tizimida xizmat qilayotgan xodimlar, «Bojxona ishi» va «Bojxona huquqi» mutaxassisliklari bo‘yicha tahlil olayotgan tinglovchilarga mo‘ljallangan.

# I BO'LIM. JAHONNING UMUMIY IQTISODIY VA REGIONAL GEOGRAFIYASI

## 1-BOB. «IQTISODIY GEOGRAFIYA» FANIGA KIRISH

<b>Reja:</b>	<b>1.1. «Iqtisodiy geografiya»ning predmeti, uning boshqa fanlar orasida tutgan o'rni.</b> <b>1.2. «Iqtisodiy geografiya»ning nazariy asoslari, ilmiy konsepsiyalari va uslublari.</b> <b>1.3. «Iqtisodiy geografiya»ning rivojlanish tarixi.</b>
<b>Tayanch iboralar:</b>	«Geografiya», «Iqtisodiy geografiya», «Rayonlar iqtisodiy geografiyasi», qonuniyatlar, ilmiy konsepsiylar, tadqiqot usullari.
<b>1.1. «Iqtisodiy geografiya»ning predmeti, uning boshqa fanlar orasida tutgan o'rni</b>	
<b>Geografiya haqida tushunchalar</b>	• <b>«Geografiya»</b> so'zi yunon tilidan olingan bo'lib, «yerning tasviri» degan ma'noni anglatadi. • Yer shari to'g'risidagi umumiy ma'lumotlar 1-ilovada berilgan.
<b>«Iqtisodiy geografiya» fani</b>	• ishlab chiqarish kuchlarining butun dunyo, mamlakatlar, mintaqalar bo'yicha hududiy joylashishi va rivojlanishi muammolarini o'rganuvchi fandir [17].
<b>Fanning predmeti</b>	• ishlab chiqarishning joylashishi va rivojlanishi xususiyatlarini o'rganish jarayonida mamlakatlar hududida iqtisodiy rayonlarning vujudga kelishi, ular o'rtasida iqtisodiy aloqalarning shakllanishi va rivojlanishini izohlaydi; • ayrim mamlakatlar va hududlar xo'jaligining tasnifini aniq iqtisodiy-statistik ma'lumotlarni tahlil qilish, va umumlashtirish asosida o'rganib, qisqacha ilmiy xulosalar va tavsiyalar beradi.

<b>Fanning tarkibi</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>«Iqtisodiy geografiya» umumiy, tarmoqli, regional va jahon xo‘jaligi geografiyasiga bo‘linadi. Ayrim jihatlarni o‘rganish uchun «Iqtisodiy geografiya» ikki qismga – «Umumiy iqtisodiy geografiya» va «Rayonlar iqtisodiy geografiyasi»ga bo‘linadi.</li> <li>«Umumiy iqtisodiy geografiya» qismida tizimning umumiy masalalari, mamlakatlarning xo‘jalik geografiyasи va asosiy tarmoqlar geografiyasi o‘rganiladi.</li> <li>«Rayonlar iqtisodiy geografiyasi» qismida esa tegishli mamlakatning ayrim hududlari xo‘jaligi va iqtisodiy rayonlari o‘rganiladi.</li> <li>Mamlakatlarni majmuali o‘rganishda ikkala qism ham bir-birini to‘ldiradi.</li> <li>Ayni vaqtda mamlakatlar xo‘jaligi va bu xo‘jalik tarmoqlarini tadqiqot qilishdagi umumiy masalalarni o‘rganish tegishli mamlakatning ayrim hududlari va iqtisodiy tumanlari xo‘jaligini o‘rganish uchun juda zarur hisoblanadi.</li> </ul>
<b>Tarmoqlar iqtisodiy geografiyasi</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>sanoat, qishloq xo‘jaligi, qurilish, transport va boshqalarning hududiy taqsimlanishi (joylashtirilishi)ni o‘rganadi.</li> </ul>
<b>Regional iqtisodiy geografiya</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>iqtisodiy qonunlar, tabiiy sharoitlarning ta’siri, madaniy meros va aholida ishlab chiqarish ko‘nikmalarining tarixiy shakllanishini hisobga olgan holda turli viloyatlar va tumanlarda ijtimoiy mehnatning hududiy taqsimlanishini o‘rganadi.</li> </ul>
<b>Boshqa fanlar bilan bog‘liqligi</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>tabiiy geografiya, tarix, iqtisod, statistika, geologiya, ekologiya, tibbiyot va boshqa fanlar bilan uzviy ravishda bog‘langan.</li> </ul>

<b>Fanning asosiy vazifalari</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• alohida mamlakatlar iqtisodiyotini tadqiq etish;</li> <li>• jahon xo'jaligini o'rganish;</li> <li>• siyosiy-geografik tadqiq;</li> <li>• demografiyanı o'rganish;</li> <li>• mamlakatlarning tabiiy resurslarini o'rganish.</li> </ul>
<b>1.2. «Iqtisodiy geografiya»ning nazariy asoslari, ilmiy konsepsiyalari va uslublari</b>	
<b>Fanning nazariy asoslari</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• «Iqtisodiy geografiya» o'z geografik tadqiqotlarini tarixiy-ijtimoiy tahlillar asosida olib boradi. Bu borada – hozirgi davrda ishlab chiqarishni joylashtirish masalalarida tarixiy ma'lumotlarga (ayniqsما، sanoat va qishloq xo'jaligi mintaqalari, transport yo'llari, aholini joylashtirish, shaharlar, mehnatga layoqatli aholi va boshqalarga nisbatan) tayanganadi, rivojlanish darajasini, dinamikasini aniqlash maqsadida ishlab chiqarishni taqqoslaydi, baholaydi va insonning tabiiy muhitga ta'sirini tahlil qiladi.</li> </ul>
<b>Fanning ilmiy konsepsiyalari</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• iqtisodiy rivojlantirish konsepsiysi – muayyan mamlakat, iqtisodiy rayonlarning murakkab tizimi bo'lib, shakllanishi qonuniy tarzda ro'y beradi;</li> <li>• hududiy ishlab chiqarish majmualari konsepsiysi – ishlab chiqarish korxonalari aholi yashash joylarining chegaralangan hudud yoxud iqtisodiy rayon yoki kichik rayon hududida o'zaro uyg'unlashuvi;</li> <li>• energiya ishlab chiqarish sikllari konsepsiysi – rayon barpo etuvchi qonuniyatlar sikli.</li> </ul>
<b>Fanning tadqiqot usullari</b>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. dasturli-maqsadli usuli;</li> <li>2. tizimning tahlili usuli;</li> <li>3. balans (muvozanat) usuli;</li> <li>4. kartografik usul;</li> <li>5. iqtisodiy-matematik modellashtirish usuli;</li> <li>6. qiyosiy-geografik usul;</li> <li>7. iqtisodiy-geografik prognozlash usuli [17].</li> </ol>

<b>Dasturli maqsadli usul</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>bozor iqtisodiyoti munosabatlari sharoitida juda muhim bo'lib, majmuuaning kechiktirib bo'lmaydigan va umummanfaatlarni ko'zlagan ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilish dasturi va maqsadi bilan uzviy bog'liq.</li> </ul>
<b>Tizimning tahlil usuli</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>bosqichma-bosqich tamoyiliga asoslangan bo'lib, har bir hududiy tizim, ayniqsa, ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi, joylashish xususiyatlarini o'rganish bo'yicha ma'lum maqsad va vazifalarni qamrab olgan.</li> </ul>
<b>Balans usul</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>fanning asosiy usullaridan biri hisoblanadi. Ushbu usul yordamida regionlarning resurs va mahsulotga, ishchi kuchiga bo'lgan talabini aniqlash, xususan, ayrim hududlar o'zida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar bilan o'z ehtiyojini qondira olayotganligi yoki qondira olmayotganligi, zarur mahsulotlarni keltirish yoki olib ketish ko'lami darajasini baholash, shuningdek, regional xo'jalik majmui rivojlanishidagi nomutanosiblik va uni bartaraf etish yo'llari aniqlanadi.</li> </ul>
<b>Karto-grafik usul</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>«Iqtisodiy geografiya»ning maxsus usullaridan hisoblanadi. Xarita – bilim manbayi va o'rganish obyektiidir. Hududiy, iqtisodiy-geografik jarayonlar va ayrim mamlakatlar miqyosida ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish xususiyatlarini ko'rgazmali tarzda faqat geografik xarita namoyon etishi mumkin.</li> </ul>
<b>Iqtisodiy-matematik modellash-tirish usuli</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>xo'jalik tarmoqlarining rivojlanishi va ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish muammolari bilan bog'liq bo'lgan tadqiqotlar jarayonida keng qo'llaniladi.</li> </ul>
<b>Qiyosiy geografik usul</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>qator hududiy birliklarni turli ko'rsatkichlar asosida bir-biri bilan taq qoslashdir.</li> </ul>

<b>Iqtisodiy-geografik proqnoz-lash usuli</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>mamlakatlar, ularning hududlari kelajakda majmuali rivojlanishini turli ko'rsatkichlar tahlili orqali belgilashga yordam beradi.</li> </ul>
<b>Usullardan foydalanish</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish muammosi va hududlarni, xo'jaliklarni rivojlanirish murakkablashib bormoqda. Bozor iqtisodiyoti sharoitlarida tarmoqlar va hududlar o'rta sidagi aloqalar boshqarishni takomillashtirishni ta'lab qilmoqda. Shuning uchun iqtisodiy matematik usullar katta ahamiyat kasb etmoqda. Ular maqsadga erishish yo'lida iqtisodiy samarali variantlarni tanlash imkonini beradi. Boshqa ilmiy usullar o'zaro bog'langan bo'lib, bir-birlarini to'l-dirib boradi.</li> </ul>

### 1.3. «Iqtisodiy geografiya»ning rivojlanish tarixi

<b>Fanning rivojlanish tarixi</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>Eratosfenning (miloddan avvalgi III asr) «Geografiya» nomli asari uchinchi qismi ham ayrim mamlakatlar ta'rifiga bag'ishlangan.</li> <li>O'rta asrlarda iqtisodiy-geografik bilimlar Al Xorazmiy («Kitob Sur'at al-arz»), Beruniy («Hindiston»), Bobur («Boburnoma») va boshqa olimlarning asarlarida chuqurlashtirilgan.</li> <li>Yevropada «Iqtisodiy geografiya» fan sifatida XVI asrdan shakllana boshlagan. Uning rivojlanishiga fransuz olimi J. Boden, italyan olimi L.Tviggerdi, golland olimi B.Varens muhim hissa qo'shishdi. Fransuz olimi J.Boden 1564-yilda yozgan yirik geografik asarida Sharq geografiyasidagi geografik muhitning jamiyat rivojlanishiga ta'siri muammosi qaytadan ko'rib chiqildi, italyan olimi L.Tvichchardining «Nidyerlandiya tavsifi» (156-yil), Golland olimi B.Varenusning «Bosh geografiya» (1650-yil) nomli asarida ham iqtisodiy geografiyaga oid qator muammolar ilmiy yechimini topdi.</li> </ul>
-----------------------------------	--

- «Iqtisodiy geografiya» ilmiy atamasini fanga birinchi bo'lib rus olimi M.V. Lomonosov XVIII asrda olib kirdi.
- XX asrda «Iqtisodiy geografiya»ning rivojlanishi N.N. Kolosovskiy, N.N. Baranskiy, N.P. Nikitin, V.V. Pokshishevskiy, Y.G. Saushkin, E.B. Alayev, B.S. Xorev va boshqalarning, O'zbekistonda esa o'tgan asr boshlarida yashagan Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov Abdulla Avloniy va boshqalarning nomlari bilan bog'liq.
- Mahmudxo'ja Behbudiy tomonidan XX asr boshlarida geografiyaga oid qator darsliklar va asarlar yozilgan.
- XX asrning ikkinchi yarmida va hozirgi paytda O'zbekistonda «Iqtisodiy geografiya» fanining rivojlanishi Z.M. Akromov, O.B. Otamirzayev, A.S. Soliyev, Q.Abirqulov, X.S. Salimov, A.R. Ro'ziyev, A.Qayumov, Sh. Inomov, H. Abdullayev va boshqalarning nomlari bilan bog'liq

#### *Nazorat savollari*

1. «Iqtisodiy geografiya»ning predmetini izohlab bering.
2. «Iqtisodiy geografiya»ning nazariy asoslarini ta'riflang.
3. «Iqtisodiy geografiya»ning asosiy ilmiy uslublarini sanang.
4. «Iqtisodiy geografiya» boshqa fanlar o'rtaida qanday o'r'in tutadi?
5. «Iqtisodiy geografiya»ning asosiy vazifalari nimalardan iborat?

#### *Seminar mashg'uloti uchun savollar:*

«Itisodiy geografiya» fanining predmeti. Ishlab chiqarishni joylashtirish qonuniyatları. «Iqtisodiy geografiya»ning boshqa fanlar orasida tutgan o'rni. Ilmiy nazariy konsepsiylari: iqtisodiy rivojlanish, hududiy ishlab chiqarish majmualari va energiya ishlab chiqarish majmualari konsepsiylari. Dasturli-maqsadli, tizimning tahlili, balans, kartografik, iqtisodiy-matematik model-lashtirish, qiyosiy-geografik, iqtisodiy-geografik bashoratlash usullari. Iqtisodiy geografiyaning qadimda, o'rta asrlarda, yaqin o'tmish va hozirdagi rivojlanish davrlari.

## 2-BOB. ISHLAB CHIQARISH KUCHLARINI JOYLASHTIRISH, RIVOJLANTIRISH OMILLARI VA TAMOYILLARI

<b>Reja:</b>	<b>2.1. Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishning asosiy qonuniyatları.</b> <b>2.2. Ishlab chiqarishni tashkil etishning asosiy shakllari.</b> <b>2.3. Ishlab chiqarishni hududiy tashkil etishning asosiy omillari.</b>
<b>Tayanch iboralar:</b>	ishlab chiqarish, ishlab chiqarish kuchlari, joylashtirish qonuniyatları, kooperatsiya, kombinatsiya, ishlab chiqarish omillari, tabiiy resurslar
<b>2.1. Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishning asosiy qonuniyatları</b>	
<b>Asosiy tushun- chalar:</b>	<ul style="list-style-type: none"><li>• <b>ishlab chiqarish</b> — turli iqtisodiy mahsulotlarni yaratish jarayoni;</li><li>• <b>ishlab chiqarish kuchlari</b> — ishlab chiqarishda barcha jamlangan vositalar va band bo'lgan kishilar. Iqtisodiy nazariyaga muvofiq ishlab chiqarish kuchlari iqtisodiy tizimlarning mavjudligini aniqlaydi.</li><li>• <b>ishlab chiqarish salohiyati:</b><ol style="list-style-type: none"><li>1) mavjud resurslardan to'liq foydalangan holda real mahsulot hajmini ishlab chiqarish imkoniyati;</li><li>2) Ishlab chiqarish omillarining mavjudligi darajasi va ishiab chiqarishni ta'minlovchi resurslar salohiyati.</li></ol></li></ul>

<b>Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>bu ishlab chiqarishni joylashtirish bo'yicha tartibga soluvchi iqtisodiy mexanizm bo'lib, hududiy rivojlanishning iqtisodiy samaradorligini belgilaydi.</li> </ul>
<b>Ishlab chiqarish kuchlarini hududiy joylashirishning umumiy qonuniyatları</b>	<ol style="list-style-type: none"> <li>Ishlab chiqarishni hududiy jihatdan oqilona tashkil etish qonuniyati.</li> <li>Ishlab chiqarishning hududiy ixtisoslashuvi va kooperasiyalashuvi qonuniyati.</li> <li>Hududlarning majmuali rivojlanish qonuniyati.</li> <li>Hududlarning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishini tenglashtirish qonuniyati. [17]</li> </ol>
<b>Ishlab chiqarishni hududiy jihatdan oqilona tashkil etish qonuniyati</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>ishlab chiqarish korxonalarini ITTning yutuqlari asosida, iloji boricha manbalarga yaqin joylashtirish kerak.</li> </ul> <p>Masalan, suvni ko'p talab qiladigan tarmoqlarni imkon qadar yirik va samarali suv manbalariga yaqin joylashtirish maqsadga muvofiq;</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>mehnatni ko'p talab qiluvchi (sermehnat) tarmoqlarni esa mehnat resurslari shakllangan markazlarga yaqinroq;</li> <li>kundalik iste'mol qilinuvchi mahsulot ishlab chiqarish korxonalarini iste'molchilarga yaqinroq joylashtirish kerak va h.k.</li> </ul>
<b>Ishlab chiqarishning hududiy ixtisoslashuvi va kooperasiyalashuvi qonuniyati</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>Bunda biron bir hudud ichida ixtisoslashuv va korxonalar o'rtaida eng takomillashgan ishlab chiqarish aloqalarini o'rnatish hamda ularning tashqi iqtisodiy aloqalarda keng ishtiropi ko'zda tutilgan.</li> </ul>

<b>Hududlarning majmuali (kompleks) rivojlanish qonuniyati</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Hududning (respublika, viloyat, iqtisodiy tuman) kompleks rivojlanishi deganda, xo'jalikdagi mutanosiblik, ishlab chiqarish korxonalarining mahalliy tabiiy va iqtisodiy sharoitga mosligi, ixtisoslashgan tarmoqlar infratuzilmasining, turli ko'lAMDAGI shaharlarning rivojlanishi, tabiiy muhitni muhofaza qilish, ulardan oqilonqa foydalanish va hokazolar nazarda tutildi.</li> </ul>
<b>Hududlarning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishini tenglashtirish qonuniyati</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Unga ko'ra respublikamiz hududlarining iqtisodiy rivojlanishini bir-biriga tenglishtirish, ya'ni mamlakatda ishlab chiqarish kuchlarini bir me'yorda joylashtirib, kelajakda aholi turmush darajasini oshirish asosiy maqsad qilib olinadi.</li> </ul>

## 2.2. Ishlab chiqarishni tashkil etishning asosiy shakllari

<b>Ishlab chiqarishni tashkil etishning asosiy shakllari</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• mujassamlashuv, ixtisoslashuv, kooperatsiya va kombinatsiya ayni paytda ijtimoiy va hududiy jihatlarga ega.</li> </ul>
<b>Mujassam-lashuv</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• ishlab chiqarishning to'planishi geografik jihatdan, avvalo, moddiy sohalar — sanoat, qishloq xo'jaligi, transportda yaqqol namoyon bo'ladi. Fan obyektini aynan shu tarmoqlarning hududiy tashkil etilishi, joylashish xususiyatlari belgilab beradi. Ijtimoiy obyektlarning hududiy tashkil etilishi esa xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarida turlicha bo'ladi.</li> </ul>
<b>Ixtisoslashuv</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• mehnat taqsimoti va iqtisodiy rayonlarning tarkib topishi bilan chambarchas bog'liqidir.</li> </ul>

	<p>Uning uch bosqichi – korxona, shahar va tuman miqyosidagi ixtisoslashuvi, shuningdek, uch turi – qism (detal);</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>texnologik yoki yarim mahsulot va predmet (tovar mahsuloti ishlab chiqarish) ixtisoslashuvi mavjud.</li> </ul>
<b>Kooperatsiya</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>mahsulot yaratish turli korxonalarining hamkorligi bo'lib, bunda ularning tarmoq holda joylashuvi kuzatiladi. Bunda qatnashuvchi korxonalar soni vujudga kelayotgan mahsulotning murakkabligiga bog'liq bo'ladi.</li> </ul>
<b>Kombinatsiya</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>kooperatsiyaga o'xshab korxonalar birlashmasidan iborat. Bunda tarqoq holda joylashgan birlik emas, balki ularning hududiy umumiyligi tushuniladi. Kooperatsiyada mahsulot bir xil bo'lsa, kombinatsiyada, aksincha, xomashyo bir xil bo'lib, undan olingan mahsulot turlicha bo'ladi. Kombinatlashuv ma'lum turdag'i xomashyonini chuqur texnologik qayta ishlagan holda mahsulotlar ishlab chiqarishni anglatadi.</li> </ul>

### 2.3. Ishlab chiqarishni hududiy tashkil etishning asosiy omillari

<b>Ishlab chiqarish- ni hududiy tashkil etishning asosiy omillari</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>Ishlab chiqarish tarmoqlarini joylashtirishda xomashyo, yoqilg'i, elektr energiyasi, suv, iqlim, mehnat resurslari, iste'mol va transport, iqtisodiy-geografik o'rinni kabi omillar e'tiborga olinadi. Shuningdek, ekologiya, ITT va bozor iqtisodiyoti omillarining bu boradagi ahamiyati ham oshib bormoqda.</li> </ul>
<b>Tabiiy sharoit</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>biron bir obyektga aloqador bo'lgan tabiatning barcha jihatlarini o'ziga qamrab olgan bo'lib, juda keng ma'noga ega tushuncha.</li> </ul>

	Mantiqiy yondashuv sharoit nimaga taalluqli ekanligining aniq ko'rsatilishini, ya'ni «sanoatni rivojlantirishning tabiiy sharoiti», «dehqonchilikni rivojlantirishning tabiiy sharoiti», «temir yo'l qurilishining tabiiy sharoiti», «inson hayotiy faoliyatining tabiiy sharoiti» va h.k. tarzda ifodalashni talab qiladi. Demak, «tabiiy sharoit» tushunchasini insonning qandaydir faoliyati bilan uzviy bog'liq holda tahlil etish maqsadga muvofiqdir.
<b>Tabiiy omillar kategoriyasi</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li><b>Tabiiy sharoit</b> – relyef, iqlim, geologik muhit, ustki va yer osti suvlari va hokazolardan iborat.</li> <li><b>Tabiiy resurslar</b> – mineral, yer, suv va biologik (oxirgi uchtasi biosfera) resurslar demakdir.</li> <li><b>Landshaftlar holati</b> – hududlarning tabiiy joylashish holati.</li> <li><b>Ekologik vaziyat</b> – atrof muhitning tabiiy holati.</li> </ul>
<b>Tabiiy resurslar</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>bu tushuncha «tabiiy sharoit» tushunchasiga nisbatan tor ma'noga ega bo'lib, u tabiat bilan inson faoliyati o'rtaqidagi aloqani bevosita ifodalaydi.</li> </ul>
<b>Tabiiy resurslar-ning foydala-nish bo'yicha tasnifani-shi</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li><b>Tabiiy resurslar</b> tugumaydigan va tugaydigan (tiklanadigan va tiklanmaydigan) turiarga bo'linadi.</li> <li><b>Tugamaydigan</b> (shartli ravishda) – quyosh, havo, suv va h.k.</li> <li><b>Tugaydigan:</b> 1) <b>tiklanadigan</b> – (yer usi tuprog'i, biologik, ya'ni baliqchilik, o'rmonchilik, chorvachilik) va 2) <b>tiklanmaydigan</b> – (mineral resurslar: yoqilg'i-energetik, qora va rangli metallar, nometall foydali qazilmalar, yer osti suvlari va h.k.)</li> </ul> <p>[18]</p>

#### *Nazorat savollari*

1. Bozor iqtisodiyotiga o'tgach, ishlab chiqarishni joylashtirishda qaysi omillar muhim rol o'ynaydi?
2. Ishlab chiqarishning hududiy ixtisoslashuvi deganda nimani tushunasiz?
3. Qaysi sanoat tarmoqlari xomashyo manbaleriga yaqin quriladi?
4. O'zbekistonda avtomobil zavodini qurishda qanday omil hisobga olingan?

6. Ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi va joylashishida tabiiy sharoitlar qanday ahamiyatga ega?

**Seminar mashg'uloti uchun savollar:**

Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishning asosiy qonuniyatlari. Ishlab chiqarishni hududiy oqilona tashkil etish qonuniyati. Ishlab chiqarishning hududiy ixtisoslashuvi va kooperatsiyalashuvi qonuniyati. Ishlab chiqarishni tashkil etishning asosiy shakllari. Mujassamlashuv, ixtisoslashuv, kooperatsiya va kombinatsiya ayni paytda ijtimoiy va hududiy jihatlarni anglatuvchi tushunchalar.

Ishlab chiqarishni hududiy tashkil etishning asosiy omillari. Xomashyo, yoqilg'i, elektr energiya, suv, iqlim, mehnat resurslari, iste'mol va transport, iqtisodiy-geografik o'rinni kabi omillar.

### 3-BOB. HOZIRGI ZAMON DUNYO SIYOSIY XARITASI

<b>Reja:</b>	<b>3.1. Dunyo siyosiy xaritasining ahamiyati va o'ziga xosligi</b> <b>3.2. Dunyo siyosiy xaritasi shakllanishining xususiyatlari va asosiy bosqichlari.</b> <b>3.3. Davlat tuzumi va davlat tuzilishi.</b>
<b>Tayanch iboralar:</b>	dunyo siyosiy xaritasi, geografik kashfiyotlar, davlat tuzumi, davlat tuzilishi, ti plashtirish, federativ, unitar, respublika, monarxiya, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, insonning rivojlanish indeksi.

#### **3.1. Dunyo siyosiy xaritasining ahamiyati va o'ziga xosligi**

<b>Siyosiy xarita</b>	• Yer sharining geografik xaritasi bo'lib, unda materik yoki yirik hududlar bo'yicha, territorial-siyosiy bo'linishlar aks ettirilgan. Ularning asosiy elementlariga: davlat chegaralari va tasarrufidagi hududlar, poytaxtlar, yirik shaharlar, transport yo'llari kiradi.
<b>Siyosiy xaritaning ahamiyati</b>	— g'oyat katta bo'lib, u mamlakatlarning xalqaro maydondagi o'mmini, dunyoda egallagan mavqeini, ichki siyosiy-mamuriy strukturasini xususiyatlarini o'zida yaqqol aks ettiradi.
<b>Siyosiy xaritaning o'ziga xosligi</b>	Mamlakatlar va xalqlarning butun hayoti ularning davlat (siyosiy) chegaralari belgilangan hududlarida o'tadi. Ularni aynan shu yo'nالishda o'r ganish iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy geografiyaning asosiy vazifasi hisoblanadi.


	Bir tomonidan, dunyo va regional muammolar ayrim mamlakatlarning muammolaridan o'sib chiqadi va shakllanadi, boshqa tomondan esa, ularning rivojlanishi boshqa ko'plab mamlakatlarga bevosita katta ta'sir ko'rsatadi.
<b>Dunyo siyosiy xaritasining o'ta o'zgaruvchan xususiyati</b>	asosiy siyosiy-geografik o'zgarishlarni aks ettiradi: muayyan davlatning boshqa davlat bilan qo'shilishi (birlashishi, bir davlatning boshqa davlat tarkibiga kirishi v.b); davlatchilikning (siyosiy suverenitetining) yo'qotilishi; davlatlar (mamlakatlar) maydonining hududlari va akvatoriyalar, chegaralarining o'zgarishi; poytaxtning almashishi (o'zgarishi); davlat, mamlakat va poytaxt nomlarining o'zgarishi; davlat boshqaruvi shaklining o'zgarishi va boshqalar. Bu elementlarning barchasi siyosiy geografik xaritaning asosiy mazmunini belgilab beradi.

### 3.2. Dunyo siyosiy xaritasi shakllanishining xususiyatlari va asosiy bosqichlari

<b>Siyosiy xarita o'zgarishining ikki omili</b>	<p><b>1. Miqdoriy omili:</b> yerlarning qo'shib olinishi; hududlarning yo'qotilishi yoki bosib olinishi; davlatlarning birlashishi yoki bo'linishi.</p> <p><b>2. Sifat omili:</b> ijtimoiy formasiyaning almashishi; mamlakatlarning suverenitetga ega bo'lishi; xalqaro ittifoqlarning shakllanishi; davlatlar shaklining o'zgarishi.</p>
<b>Dunyo siyosiy xaritasining shakllanishi davrlari</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>Qadimgi: milodning V asrigacha.</li> <li>O'rta asrlar: V—XV asrlar.</li> <li>Yangi davr: XVI—XX asrlar.</li> <li>Engi yangi davr: XX asrdan boshlab. [18]</li> </ul>


<b>Qadimgi davr</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>Milodning V asrigacha, aniqrog'i, milodiy 410-yilda Rim imperiyasining qulashi. Ushbu davrgacha yirik davlatlar sifatida faoliyat yuritgan Qadimgi Misr, Mesopatamiya (miloddan 4 ming yil avval paydo bo'lgan), Qadimgi Yunoniston va Hindiston (miloddan 3 ming yil avval paydo bo'lgan), Xitoy (miloddan 2 ming yil avval paydo bo'lgan), Qadimgi Rim (miloddan avval V—III asrlada paydo bo'lgan). Ushbu davr mobaynida asosan ijtimoiy-siyosiy tuzum sifatida quldarlik bo'lgan.</li> </ul>
<b>O'rta asrlar</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>V—XV asrlar, aniqrog'i, 1492-yilda Xristofor Kolumb Amerikani kashf etgan yoki 1498-yilda Vasko da Gama Hindiston qirg'oqlarigacha etib borgan davr. Ushbu davrda Portugaliya, Ispaniya, Angliya qirolliklari, Kiyev Rusi, Vizantiya imperiyasi, Arab xalifaligi, Dehli sultonligi, Mo'g'ul imperiyasi, Temuriylar imperiyasi kabi davlatlar paydo bo'lgan. O'sha davr ichida dinning roli ortadi va feodal ijtimoiy-siyosiy munosabatlari o'rnatiladi.</li> </ul>
<b>Yangi davr</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>Yangi davrga XVI asr boshidan XX asr boshlaridagi birinchi jahon urushigacha (1914—1918) bo'lgan davr kiradi. Ushbu vaqt davomida mustamlamakachi imperiyalar — Ispaniya, Portugaliya, Gollandiya, Fransiya, Angliya va beshqalar paydo bo'ldi. Ayni chog'da boshqa yirik imperiyalar shakllandi: Rossiya, Usmoniyalar, Boburiylar, Xitoy (Sin) va Yapon imperiyalari. Ushbu davr kapitalistik munosabatlarning vujudga kelishi va asosan, Yevropa mamlakatlarining taraqqiy etishi bilan tavsiflanadi.</li> </ul>

**Buyuk geografik kashfiyotlar xaritasi.**  
**XV-XVII asrlardagi buyuk geografik kashfiyotlar 47-ielyvada berilgan**



<b>Eng yangi davr</b>	Birinchi jahon urushidan keyin hozirgacha davom etayotgan davr. Ushbu davr ichida imperiya maqomiga ega bo'lgan bir qator davlatlar qulaydi (masalan, Rossiya, Avstriya-Vengriya, Usmoniyalar), o'zining salbiy oqibatlarini ko'rsatgan jahon mustamlakachi imperiyalari paydo bo'ladi va qulaydi. Jahonning ikki qutbga bo'linishi: kapitalistik va sotsialistik lagyerlarning paydo bo'lishi. Sotsialistik lagerning yo'q bo'lishi, dunyoda AQSHning liderlik mavqeini egallashi kuzatiladi.
	XXI asr boshida jahonda taxminan 240 ga yaqin davlat mavjudligi qayd etilgan. Ularni aniq hisoblash murakkab jarayondir. Chunki ba'zi bir o'zlarini mustaqil deb e'lon qilgan davlatlarni xalqaro hamjamiyat rasman e'tirof etmagan. Masalan (Abxaziya Respublikasi, Pridnestrov Moldaviya Respublikasi va boshqalar)

## Dunyo siyosiy xaritasining hozirgi ko'rinishi



**Dunyoning hozirda mavjud mamlakatlari tafsiflari**  
**46-illovada keltirilgan.**

<b>Dunyo mamlakatlari ni tiplashtirish</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• turli mamlakatlarni alohida, o'ziga xos tavsiflari (tiplari) bo'yicha guruhash lozim. Mamlakatlar tipologiyasi har birining o'z tavsifi asosida tasniflanadi.</li> </ul>
<b>Asosiy tipologiya</b>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1) hududlar maydoni;</li> <li>2) aholisi soni;</li> <li>3) geografik joylashuvi;</li> <li>4) millatlari tarkibi;</li> <li>5) boshqaruv shakli;</li> <li>6) ma'muriy-hududiy bo'linishi;</li> <li>7) ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi;</li> <li>8) inson rivojlanishi indeksi.</li> </ol>
<b>Hududlar maydoni</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• eng yirik maydonlar – 3 mln km<sup>2</sup> dan katta bo'lgan maydonlar;</li> <li>• yirik maydonlar – 1 mln km<sup>2</sup> dan katta bo'lgan maydonlar;</li> <li>• o'rta va katta bo'limgan mamlakatlar;</li> <li>• mikrodavlatlar (Andorra, Monako, Lyuksemburg, Lixtenshteyn, Singapur, Vatikan, San-Marino).</li> </ul>
<b>Aholi soni bo'yicha</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• eng yirik «o'ntalik» – 100 mln dan ziyod;</li> <li>• o'rta – 100 mln dan kam bo'lgan;</li> <li>• mayda – 100 mingdan kam bo'lgan aholi.</li> </ul>
<b>Mamlakatning geografik joylashuvi xususiyatlari</b>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1) <b>dengizbo'yisi</b> (Meksika, Panama, Venesuela, Fransiya, Bolgariya, Turkiya, JAR);</li> <li>2) <b>yarimorol</b> (Ispaniya, Hindiston, Norvegiya, Shvetsiya, Italiya, Gresiya, Somali);</li> <li>3) <b>orol va arxipelag-mamlakatlar</b> (Yaponiya, Shri-Lanka, Kuba, Indoneziya, Irlandiya, Islandiya, Filippin);</li> <li>4) <b>ichki kontinental</b> (Mongoliya, Laos, Nepal, Botsvana, Zambiya, Chad, Boliviya).</li> </ol>

<b>Millat tarkibi bo'yicha tiplash</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li><b>Bir millatlari:</b> aholi tarkibida katta qismini bir millat tashkil qiladi (Germaniya, Yaponiya, Shvetsiya)</li> <li><b>Ikki millatlari:</b> Kanada, Belgiya.</li> <li><b>Ko'p millatlari:</b> turli millat va xalqlar vakillari istiqomat qiladi (Hindiston, AQSH, Rossiya, Ispaniya).</li> </ul>
<b>3.3. Davlat tuzumi va davlat tuzilishi</b>	
<b>Davlat boshqaruvi va tuzilmasi bo'yicha</b>	<ol style="list-style-type: none"> <li><b>O'zini boshqaradigan</b> (suveren) davlatlar (Respublika yoki monarxiya).</li> <li><b>O'z-o'zini boshqarmaydigan hududlar</b> (protektorat, mandatosti hududlar, dengizdagi departamentlar).</li> </ol>
<b>Boshqaruv shakli</b>	<p><b>1. Respublika:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>parlamentar (Germaniya, Italiya, Finlyandiya, Avstraliya, Hindiston);</li> <li>prezidentlik (AQSH, Argentina, O'zbekiston va h.k.)</li> </ul> <p><b>2. Monarxiya:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>konstitutsiyaviy (Yaponiya, Daniya, Shvetsiya, Buyuk Britaniya);</li> <li>mutlaq (BAA, Qatar, Bruney, Saudiya Arabistoni);</li> <li>teokratik (Vatikan).</li> </ul>
<b>Respublikalar shakli</b>	<ol style="list-style-type: none"> <li><b>Prezidentlik</b> – hukumat boshlig'i – Prezident;</li> <li><b>Parlamentar</b> – hukumat boshlig'i – Bosh vazir.</li> </ol>
<b>Monarxiyalar shakli</b>	<p><b>1. Konstitutsiyaviy</b> – monarx (qirol, imperator, gersog va h.k.) vakolati konstitutsiyaviy chegaralangan. Amaldagi qonunchilik hokimiyati parlamentga tegishli. Ijro hokimiyati – hukumatga. Monarx saltanatga ega, lekin hukmdor emas.</p> <p><b>2. Mutlaq</b> – Monarx (podshoh, sulton va h.k.) vakolati katta. Hukumat faqat monarx oldida javobgar.</p> <p><b>3. Teokratik</b> – Davlat boshida diniy shaxs – Rim Papasi.</p>

<b>Jahonda monarxiya boshqaruvi shaklidagi mamlakatlar</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li><b>Yevropada 12 ta:</b> Andorra, Belgiya, Vatikan, Buyuk Britaniya, Daniya, Ispaniya, Lixtenshteyn, Lyuksemburg, Monako, Nidyerlandiya, Norvegiya va Shvetsiya.</li> <li><b>Osiyoda 14 ta:</b> Bahrayn, Brunej, Butan, Jordaniya, Kambodja, Katar, Quvayt, Malayziya, Nepal, Oman, BAA, Saudiya Arabiston, Tailand va Yaponiya.</li> <li><b>Afrikada 3 ta:</b> Lesoto, Marokko, Svazilend.</li> <li><b>Australiya va Okeaniyada 1 ta:</b> Tonga.</li> </ul>
<b>Ma'muriy-hududiy tuzilma shakllari</b>	<ol style="list-style-type: none"> <li><b>Unitar</b> (Fransiya, Shvetsiya, Ukraina, Estoniya, Xitoy, Argentina, Peru);</li> <li><b>Federal</b> (Rossiya, AQSH, Avstriya, Avstraliya, Hindiston, Kanada, Meksika).</li> </ol>
<b>Unitar davlatlar tavsifi</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>mamlakat hududi tarkibida o'zini mustaqil idora etadigan tuzilmaga ega bo'lmasligi;</li> <li>mamlakatda yagona konstitutsiya va hokimiyat organlari tizimi;</li> <li>ma'muriy birlik bevosita markaziy hukumatga bo'ysunadi va faqat ijro vakolatiga ega bo'ladi.</li> </ul>
<b>Federativ davlat tavsifi</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>mamlakat hududi tarkibida o'zini boshqaradigan tuzilmaga ega.</li> <li>federativ birliklar yagona(federativ) birlik bilan bir qatorda o'zining konstitutsiyasi, qonunchilik va ijro hokimiyati organlariga ega.</li> </ul>
<b>Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi bo'yicha mamlakatlar tipologiyasi</b>	<ol style="list-style-type: none"> <li><b>Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar.</b></li> <li><b>Rivojlanayotgan mamlakatlar.</b></li> </ol> <p><b>Bunday bo'linishda quyidagilar hisobga olinadi:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>jami iqtisodiy ko'rsatkichlar;</li> <li>iqtisodiyot miqyosi, tuzilmasi va holatining tavsifi;</li> <li>iqtisodiy rivojlanish darajasi;</li> <li>aholining turmush darajasi.</li> </ul>

<b>Rivojlangan davlatlar</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>ushbu qatorga kiruvchi davlatlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish bo'yicha yuqori ko'rsatkichga erishgan davlatlar bo'lib, jahon iqtisodiyotida va xalqaro iqtisodiy munosabatlarda yetakchi rolga egadirlar.</li> </ul>
<b>Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlangan davatlarga bo'lgan shartlar</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>mustaqil rivojlanishning davomdorligi;</li> <li>demokratik an'analarning mustahkamlanganligi;</li> <li>ijtimoiy fikr, huquqiy ong, teng huquqlilik va mustaqillikning shakllanganligi.</li> </ul>
<b>Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlangan davatlarning xususiyatlari</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>bozor mexanizmining yuqori samarali ishlab chiqarish asosida yaxshi yo'lga qo'yilishi;</li> <li>xizmatlar ko'rsatilishining ustuvor rivojlanishi;</li> <li>ijtimoiy bazaning mustahkamligi tufayli yuqori darajada va sifatli hayot kechirish.</li> <li>Iqtisodiy va ijtimoiy sohani barqaror qo'llab-quvvatlashda tadbirkor siyosatning qo'llanishi.</li> </ul>
<b>Inson rivoj-tanish indeksi (IRI).</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>aholi jon boshiga YIM;</li> <li>o'rtacha umr ko'rish davri;</li> <li>ta'limning rivojlanish darajasi [18].</li> </ul>

### *Nazorat savollari*

1. Dunyo siyosiy xaritasi tushunchasiga izoh bering Uning ahamiyati va o'ziga xosligi nimada?
2. Dunyo siyosiy xaritasi qanday shakllangan?
3. Dunyo siyosiy xaritasining asosiy bosqichlari tavsifini bering.
4. Mamlakatlar tipologiyasi (guruhlari) qanday belgilarga qarab aniqlanadi?
5. Turli guruuhga mansub mamlakotlar tasnifini bering.

### *Seminar mashg'uloti uchun savollar:*

Dunyo siyosiy xaritasining ahamiyati va o'ziga xosligi. Mamlakatlarning xalqaro o'mmini, dunyoda egallagan mavqeini, ichki siyosiy-mamuriy strukturasini belgilovchi xususiyatlar.

Mustaqil davlatlarning tashkil topishi, shakllanishi, rivojlanishi, shuningdek, ularning zavol topishi yoki suvereniteti tugatilishi, o'zgarishi yoki tubdan o'zgartirilishi va boshqalar o'ta murakkab tarixiy jarayonlardir. Dunyo siyosiy xaritasi nihoyatda o'zgaruvchan xususiyatga ega.

Dunyo siyosiy va iqtisodiy xaritasi shakllanishining xususiyatlari va asosiy bosqichlari. Dunyo siyosiy xaritasi (DSX) – tarixiy davrlarning ko'zgusi, materiklar, qit'alar, dunyo siyosiy-iqtisodiy bo'linishining o'ziga xos tasviridir. DSXning shakllanishi: qadimgi, o'rta asrlar, yangi davr va eng yangi davr.

Davlat tuzumi va davlat tuzilishi. Mustaqil mamlakatlarda davlatni tashkil etishning turli shakllari mavjudiagi: monarxiya va respublika. Monarxiyaning konstitutsion va mutlaq tiplari. Aksariyat mamlakatlarning ma'muriy-hududiy bo'linishi (MHB) murakkabligi va ko'p bosqichliligi bilan ajralib turadi. Davlatlar MHB lariga ko'ra ikki asosiy shaklga – unitar va federativ shaklga bo'linadi.

## **4-BOB. DUNYO AHOLISI GEOGRAFIYASI**

<b>Reja:</b>	<b>4.1. Dunyo aholisining o'sishi.</b> <b>4.2. Dunyo aholisining zichligi va joylashuvi.</b> <b>4.3. Urbanizasiya jarayonining rivojlanishi.</b> <b>4.4. Aholining jinsiy, diniy va irqiy tarkibi.</b> <b>4.5. Mehnat resurslari va bandlik muammolari.</b>
<b>Tayanch iboralar:</b>	Aholi, dunyo aholisi, millat, etnos, xalq, irq, zichlik, areallar, demografiya, populyatsiya, migratsiya, megapolis, urbanizatsiya, mehnat resurslari, bandlik

### **4.1. Dunyo aholisining o'sishi**

<b>Dunyo aholisining tasnifla- nishi</b>	<ul style="list-style-type: none"><li>• <b>aholi</b> – yer yuzida yoki uning muayyan hududida, qit'a, mamlakat, tuman, shahrda istiqomat qiluvchi odam(inson)lar majmui.</li><li>• <b>xalq</b> – bu odamlar jamoasi bo'lib, ular o'z tili, madaniyati, san'ati, dini va boshqa jihatlarining mushtarakligi bilan ajralib turadi. Xalq muayyan mamlakatning barcha aholisi va h.k.</li><li>• <b>millat</b> – uzoq davom etgan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va etnomadaniy jarayonda, aniq hududiy doirada, til va o'zlikni anglash birligi asosida shakllangan, xalq etnik tarixining eng yuksak cho'qqisi, o'ziga xos madaniyat, ong va mentalitet zaminida tarkib topgan ijtimoiy birlik shakli.</li><li>• <b>elat</b> – kishilarning til, iqtisodiy va madaniy jihatdan tarixan tarkib topgan millatning oldingi birligi. Elat qabila bilan millat orasidagi etnik birlilikning ko'rinishidir.</li></ul>
--	--

	<ul style="list-style-type: none"> <li><b>etnoxoronim</b> – deganda biror muayyan hududda yashovchilar tushuniladi. Masalan, Samarqand aholisi uchun samarqandlik va h.k.</li> <li><b>irq</b> – tashqi ko‘rinishi bilan nasldan naslga o‘tuvchi (teri, soch, ko‘zlar ranglari, burun va labning shakli va tananing proporsiyasiga ko‘ra) o‘zaro xususiyatga ega bo‘lgan tarixan shakllangan insonlar guruhi.</li> </ul>
<b>Demografiya</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>aholi o‘sishi qonuniyatini o‘rganuvchi ta’limot.</li> </ul>
<b>Demografik portlash</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>Bunda o‘lim kamayishi asnosida tug‘ilishning yuqori sur’atda bo‘lishi natijasida aholi soni keskin ko‘payishi tushuniladi.</li> </ul>
<b>Aholi dinamikasiga ta’sir etuvchi ikki omil</b>	<ol style="list-style-type: none"> <li>Aholining takror barpo bo‘lish jarayoni: tug‘ilish, o‘lim va tabiiy o‘sish;</li> <li>Aholining mexanik harakati: migratsiyasi.</li> </ol>
<b>Aholi sonining shakllanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar</b>	<ol style="list-style-type: none"> <li>Tarixiy.</li> <li>An‘anaviy.</li> <li>Ijtimoiy-iqtisodiy.</li> </ol>
<b>Dunyo aholisining milliardga yetishi</b>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1 milliard – 1820-yil;</li> <li>2 milliard – 1927-yil;</li> <li>3 milliard – 1960-yil;</li> <li>4 milliard – 1974-yil;</li> <li>5 milliard – 1987-yil 7-iyul;</li> <li>6 milliard – 1999-yil 12-oktyabr;</li> <li>7 milliard – 2011-yil 31-oktyabr [39].</li> </ol>
<b>Dunyo aholisi haqida turli statistik ma’lumotlar</b>	<p><b>2-ilovada</b> – dunyo aholisi sonining o‘sishi,  <b>4-ilovada</b> – dunyo aholisining o‘tmishdagi soni,  <b>5-ilovada</b> – dunyo aholisining kelajakdagi o‘sishi berilgan.</p>

## 4.2. Dunyo aholisining zichligi va joylashuvi

<b>Dunyo aholisining zichligi va joylashuvi</b>	
<b>Aholi ko‘p to‘plangan uchta asosiy areal</b>	<ol style="list-style-type: none"> <li><b>Birinchi areal</b> – Janubiy, Janubiy-Sharqiy va Sharqiy Osiyoni o‘z ichiga oladi.</li> <li><b>Ikkinchchi areal</b> – zichligi katta bo‘lgan Yevropada tarkib topgan.</li> <li><b>Uchinchi areal</b> – AQSHning Shimoliy-Sharqiy qismidir.</li> </ol>
<b>Dunyo aholisining zichligi va joylashuvi</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>yer shari aholisining 70% i quruqlikning 7 foizida joylashgan bo‘lsa, yerning 15% ida esa aholi umuman yashamaydi. Aholining asosiy qismi mo‘tadil, subtropik va subekvator iqlim mintaqalarida joylashgan, 50% aholi dengiz sathidan 200 m gacha bo‘lgan hududlarda; 30% i dengiz sohillaridan 50 km gacha uzoq hududlarda yashaydi;</li> <li><b>dunyodagi aholisi zich yoki kam bo‘lgan hududlar 7- ilovada berilgan.</b></li> </ul>
<b>Dunyo aholisining huđudiy taqsimlanishi</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>Dunyo aholisi bir tekis taqsimlanmagan. Masalan, Osiyoda dunyo aholisining 60% i bo‘lib, 4 mlrd ni tashkil etadi. Xitoy va Hindistonda 37% ni, Afrikada esa 1 mlrd – 15% ni, Yevropada 733 mln – 11% ni, Shimoliy Amerikasida 532 mln – 5% ni, Lotin Amerikasi va Karib dengizida 589 mln – 9% ni hamda Okeaniyada 35 mln yoki dunyo aholisining 1% dan kamrog‘ini tashkil etadi.</li> </ul>

### 4.3. Urbanizatsiya jarayonining rivojlanishi

<b>Urbani-zasiya</b>	<ul style="list-style-type: none"><li>Mamlakat yoki rayon aholisi sonida shaharliklar salmogining o'sishi urbanizatsiya deb ataladi. Dunyo bo'yicha urbanizatsiya darajasi XX asr boshidagi 4% dan hozirgi davrda 41% ga ortdi. Hozir dunyo mamlakatlarining 120 tasida urbanizatsiya darajasi o'rtacha dunyo ko'rsatkichlaridan yuqori. Urbanizatsiya darajasi ham dunyoning turli qismlarida turlicha. Masalan, xorijiy Osiyoda 27%, Afrikada 30%, Yevropada 73%. Shimoliy Amerikada 75%. Umuman, rivojlangan mamlakatlarda urbanizatsiya darajasi (72%) rivojlanayotgan mamlakatlardagidan (30%) ancha yuqori.</li></ul>
<b>Mego-polislari</b>	<ul style="list-style-type: none"><li>(grekcha «megas» – yirik, bahaybat «polis» – hudoqlar, shaharlar) yer yuzasida soni 10 mln.dan ko'p bo'lgan shaharlar ancha ko'paydi. Masalan, Tokio (26,4), Nyu-York (20,1), Mexiko (17,9), Mumbay (17,5), San-Paulu (17,5), Los-Andjeles (15,8), Moskva (13,4), Shaxnay (12,9) va boshqalar. [39]</li></ul>

### 4.4. Aholining jinsiy, diniy va irqiy tarkibi

<b>Aholi-ning jinsi</b>	<ul style="list-style-type: none"><li>Aholining jinsi va yoshi bo'yicha tarkibi. Dunyo bo'yicha o'g'il bolalar qiz bolalarga qaraganda biroz ko'proq tug'iladi umuman, dunyo aholisining jinsiy tarkibida erkaklar bir oz ko'proq.</li><li>Aholining yoshi bo'yicha tarkibi uning tabiiy ko'payishi ta'sirida shakllanadi. Unga migratsiya va urushlar ham ancha ta'sir ko'rsatadi. Aholi ko'payishining birinchi tipiga aholi yoshi strukturasining o'ziga xos tarkibi to'g'ri keladi, bunda kichik yoshdagilar salmog'i katta bo'ladi. Aholi ko'payishining ikkinchi tipi ustun bo'lgan mamlakatlarda kichik yoshdagilar salmog'i juda yuqori (40–45%) va katta yoshdagilar salmog'i nihoyatda kichik (odatda 3–6%) bo'ladi. <b>Dunyo aholisining irqiy tarkibi 3-ilovada berilgan.</b></li></ul>
-------------------------	---

<b>Din tushunchasi</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>Aholining diniy e'tiqodi katta ahamiyatga ega. Dinning asosiy mohiyati insonning xudoga sig'i-nishi, unga ruhan bog'lanishida namoyon bo'lib, inson hamda jamiyatning hayoti va yashash tarziga jiddiy ta'sir ko'rsatadi.</li> </ul>
<b>Jahon dinlari</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>nasroniylik (xristian), shu jumladan, katolik, protestant va pravoslav oqimlar; islam (sunniy va shia oqimi); hinduiylik; buddaviylik; yahudiylilik; sintazm va boshqalar.</li> </ul> <p><b>Dunyo dinlarining shakllanishi va qaysi dinga mansublik 8-ilovada berilgan.</b></p>

#### 4.5. Mehnat resurslari va bandlik muammolari

<b>Mehnat resurslari</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>mehnatga layoqatli yoshdagи mehnatga layoqatli aholi hamda mehnatga layoqatli yoshdan kichik va katta yoshdagи ishlayotgan shaxslar.</li> </ul>
<b>Reproduk-tiv yosh</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>tiklanish yoshi, yani balog'atga (oila qurish yoshiga) yetgan aholi qatlami.</li> </ul>
<b>Strukturni-i ishcizlik</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>ishcizlik bozorining ma'lum mahculot turi bilan to'ldirilishi natijasida shu mahsulotga bo'lgan ehtiyojining so'nishi tufayli yuzaga keladigan ishsizlik.</li> </ul>
<b>Friksion ishcizlik</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>ish qidirayotgan yoki yaqin vaqt ichida ish bilan ta'minlanishini kutayotgan ishchi kuchi.</li> </ul>
<b>Siklik ishcizlik</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>ishlab chiqarish darajasining pasayishiga bog'liq holda ishchi kuchiga bo'lgan talab kamayishi oqibatida yuzaga keladigan ishcizlik.</li> </ul>
<b>Dunyo aholisining bandligi</b>	<p>aholi bandligi ham turli mamlakatlarda turlicha. Masalan, moddiy boyliklar ishlab chiqarish sohasida Rossiya aholisining (mehnatda band aholining) 70%, AQSH aholisining 54%, noishlab chiqarish sohasida esa Rossiyaning 39%, AQSHning 46% mehnat resurslari band.</p>

	Bu ko'rsatkichlar qishloq xo'jaligi bo'yicha Rossiyada 15%ni, AQSHda 3%ni, sanoatda Rossiyada 37%ni, AQSHda 24%ni, xizmat ko'rsatish sohasida Rossiyada 48%ni, AQSHda 70% ni tashkil etadi.
<b>Dunyo-ning iqtisodiy faol aholisi</b>	Iqtisodiy faol aholi salmog'i g'arbiy Yevropa, Shimoliy Amerika mamlakatlarida, Avstraliyada 40–45%ni, Osiyo, Afrikava Lotin Amerikasi mamlakatlarida 30–40%ni tashkil etadi. Ishsizlikka barham berish ko'plab mamlakatlarda eng asosiy muammollardan biriga aylangan. Osiyo, Afrikava Lotin Amerikasi mamlakatlarda esa ishsizlarning mayjudligiga, iqtisodning, umuman, sust rivojlanganligi, ayollarning ijtimoiy ishlab chiqarishga kam tortilganligi, kichik yoshdagilar ko'pchilikni tashkil etishi sababdir.
<b>Nazorat savollari</b>	
1. Aholining tabiiy o'sishiga va zichligiga qanday omillar ta'sir etadi? Ularga ta'rif bering.	
2. «Demografik portlash» nima?	
3. Yer yuzida aholi irqiy tarkibi bo'yicha qanday tarqalgan?	
4. Aholi migratsiyasining asosiy oqimlari nimalardan iborat?	
5. Urbanizatsiya jarayoni yuqori bo'lgan hududlarni bilasizmi?	
6. Mehnat resurslaridan foydalanish muammollari haqida nima deya olasiz?	
<b>Seminar mashg'uloti uchun savollar:</b>	
Dunyo aholisining o'sishi. Dunyo aholisining o'sish tendensiysi. Davrlar kesimida. Dunyo aholisining zichligi va joylashushi. Dunyo aholisining Yer kurrasida o'ta notekis joylashganligi. Aholi ko'p to'plangan uchta asosiy areal. Har bir mamlakatning rivojlanishi uchun aholi soni va zichligining ahamiyati.	
Urbanizatsiya jarayonining rivojlanishi. Mamlakat yoki rayon aholisi sonida shaharliklar salmog'ining o'sishi. Shahar aglomeratsiyalari. Aholining jinsiy, diniy va irqiy tarkibi. Aholining yoshi bo'yicha tarkibi, uning tabiiy ko'payishi. Mehnat resurslari va bandlik muammolari. Aholining jismonan rivojlangan va sog'lom, mehnatga yaroqli qismi mehnat resurslarini tashkil etadi. Aholi bandligi. Iqtisodiy faol aholi salmog'i.	

## 5-BOB. JAHON XO'JALIGI GEOGRAFIYASI

<b>Reja:</b>	<b>5.1. Jahon xo'jaligining rivojlanish bosqichlari.</b> <b>5.2. Jahon sanoati rivojlanishining umumiy xususiyatlari: yoqilg'i-energetika, elektro-energetika, metallurgiya, mashinasozlik, kimyo, o'rmon va yog'ochni qayta ishlash, yengil va oziq-ovqat sanoatlari.</b> <b>5.3. Jahon qishloq xo'jaligining umumiy tavsifi: o'simlikshunoslik, texnik ekinlar, chovchachilik, dunyoda baliq ovlash va baliqchilik.</b> <b>5.4. XXI asrda jahon moliyaviy inqirozi sabablari va oqibatlari.</b>
<b>Tayanch iboralar:</b>	Jahon xo'jaligi, jahon bozori, rivojlanish modellari, markaz, poluperiferiya, periferiya, xalqaro mehnat taqsimoti, ixtisoslashuv, sanoat tarkibi, qishloq xo'jaligi, yer fondi, chovchachilik, dehqonchilik, baliqchilik, moliyaviy inqiroz

### 5.1. Jahon xo'jaligining rivojlanish bosqichlari

<b>Asosiy tushuncha</b>	<ul style="list-style-type: none"><li><b>Jahon xo'jaligi</b> – bu milliy xo'jaliklarning o'zaro bog'langan tizimi bo'lib, uning zaminida xalqaro mehnat taqsimoti, turli iqtisodiy va siyosiy munosabatlar yotadi. Shuningdek, tizim barcha jahon mamlakatlarini qamrab olishi, bir tomonlama bo'lmasligi va turli tafovutlarni keltirib chiqarishi kuzatiladi. [22]</li></ul>
<b>Jahon xo'jaligining</b>	<ul style="list-style-type: none"><li>XVI–XVII asrlarda jahon savdosi.</li><li>XVII–XVIII asrlarda jahon bozori.</li></ul>

<b>shakllanish bosqichlari</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• XVIII—XIX asrlarda yirik mashina industriyalarining paydo bo'lishi.</li> <li>• XIX asrda transport turlarining rivojlanishi.</li> <li>• XX asrdan hozirgacha postindustriallashuv davri.</li> </ul>
<b>Jahon xo'jaligi rivojlanishi-ning asosiy modellari</b>	<ol style="list-style-type: none"> <li><b>XVIII—XIX asrlarda jahon xo'jaligi bir markaz — Yevropa ta'siri ostida shakllangan.</b></li> <li><b>Jahon xo'jaligining ikki a'zoli modeli:</b> <ol style="list-style-type: none"> <li>1) Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar (Shimol);</li> <li>2) Iqtisodiy rivojlanayotgan mamlakatlar (Janub).</li> </ol> </li> <li><b>Jahon xo'jaligining uch a'zoli modeli:</b>  <b>Markaz</b> — yaxshi rivojlangan postindustirial rivojlanish davridagi davlatlar.  <b>Pohiperiferiya</b> — industiral sanoat mamlakatlari.  <b>Periferiya</b> — agrar iqtisodiyot bilan sust rivojlangan davlatlar.</li> <li><b>Jahon xo'jaligining polisentrik (ko'pmarkazli) modeli.</b> 10 ta bosh markazning astasekinliklik bilan shakllanishi.</li> </ol>
<b>Jahon xo'jali-gini tadqiq etishda geog-rafik katego-riyaning uch darajasi</b>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Jahon xo'jaligining umumiy geografiyası.</li> <li>2. Uning tarmoqlari geografiyası.</li> <li>3. Yirik mintaqalar va subregionlar geografiyası.</li> </ol>
<b>Xalqaro mehnat taqsimotida mamlakatlar ixtisoslashuviga ta'sir etuvchi uch omil:</b>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. XMTda qatnashayotgan mamlakatning o'zi qandaydir ustunliklarga ega bo'lishi kerak (masalan, tabiiy resurslarga boyligi, alohida tarmoqlari rivojlanishida ustun bo'lishi), ya'ni, ushbu mahsulotlarni ishlab chiqaruvchilarning bir qanchasidan ustun kelishi.</li> <li>2. Ushbu mahsulotlarga ehtiyoji bor mamlakat larning bo'lishi.</li> <li>3. Ishlab chiqaruvchi mamlakat o'z mahsulotlarini yetkazib berishda afzalliklarga ega bo'lishi kerak.</li> </ol>


<b>Xalqaro geografik mehnat taqsimotining asosiy shakllari</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• ixtisoslashuv va kooperatsiya, tashqi savdo, kapital eksporti, xalqaro turizm, ilmiy-texnik bilimlarning almashuvi va hokazo.</li> </ul>
<b>Jahon xo‘jaligida sanoatning rivojlanish bosqichlari</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• dastlabki hunarmandchiliklar (X asrgacha);</li> <li>• hunarmandchilik rivojlanishi (XV asrgacha);</li> <li>• manufaktura(XV–XVIII asrlar);</li> <li>• kombinatlar (XVIII asrdan boshlab);</li> <li>• teylorizm, fordizm va h.k.</li> </ul>
<b>Jahon xo‘jaligida sanoat tarmoqlari</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• eski tarmoqlar (toshko‘mir, metallurgiya, to‘qimachilik, parovozsozlik va boshqalar);</li> <li>• yangi tarmoqlar (avtomobilsozlik, plastmassa va kimyo tolalari va boshqalar);</li> <li>• eng yangi tarmoqlar (mikroelektronika, mikrobiologiya, robotsozlik va boshqalar).</li> </ul>

**5.2. Jahon sanoati rivojlanishining umumiy xususiyatlari:  
yoqilg‘i-energetika, elektro-energetika, metallurgiya,  
mashinasozlik, kimyo, o‘rmon va yog‘ochni qayta ishslash,  
yengil va oziq-ovqat sanoatlari**

<b>Jahon xo‘jaligi tarmoqlari tarkibiga quyidagilar kiradi:</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• yoqilg‘i-energetika sanoati;</li> <li>• elektroenergetika;</li> <li>• tog‘-kon qazib chiqarish sanoati;</li> <li>• metallurgiya sanoati; mashinasozlik;</li> <li>• kimyo sanoati;</li> <li>• o‘rmon va yog‘ochni qayta ishqlash sanoati;</li> <li>• to‘qimachilik sanoati.</li> </ul> <p><b>Jahon xo‘jaligi rivojlanishining muhim ko‘rsatkichlari 9-ilovada berilgan.</b></p>
---	---

Jahonda foydali  
qazilmlarning  
joylashuvি xaritasи

МЕТОДИЧЕСКАЯ ПОЛЕЗНЫХ МОДИФИКАЦИЙ



<b>Yoqilg'i-energetika sanoati</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Yoqilg'i-energetika sanoati dunyo xo'jaligining asosi bo'lib, u uchta bo'g'indan – yoqilg'i-energetika resurslarini qazib olish, resurslarni energiya ishlab chiqarish joylariga tashish, elektr va issiqlik energiyasini ishlab chiqarishdan tashkil topgan. XIX asrda va XX asrning boshida energiya resurslarining asosi ko'mir, XX asr o'rtalaridan boshlab ko'mir, neft, gaz, 60–90-yillarda (ko'mir, neft, gazdan tashqari) – yadro va suv resurslari bo'lib qoldi.</li> <li>• Dunyoda birlamchi energiya resurslarini iste'mol qilish muttasil oshib borayotir. XX asrning boshida (1900-yilda) ularning hajmi 1 mlrd tonna shartli yoqilg'iga, 2000-yilda (bashorat) 14 mlrd tonnaga yetgan. Energiya iste'molining o'rtacha o'sishi XX asrning birinchi yarmida yiliga 2–3%, 1950–1975-yillarda 5% bo'lган. Dunyoda birlamchi energiya resurslarini iste'mol qilishning umumiy hajmi turli variantdagi bashoratlarga ko'ra, 2000-yilda 14,5 va 16,8, mlrd t.sh.yo.ga, teng bo'lган bo'lsa, 2020-yilda esa 19,7 va 26,7 mlrd t.sh.yo.ga teng bo'ladi.</li> <li>• Dunyo energetikasining asosini uchta tarmoq – neft, gaz, ko'mir sanoatlari tashkil etadi.</li> </ul>
<b>Dunyo neft sanoati</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Neft sanoati dunyo yoqilg'i-energetikasining yetakchi tarmog'i bo'lib, u, dunyo xo'jaligiga katta ta'sir ko'rsatadi. Asosiy mahsulotidan energetika maqsadlarida foydalanimanligi uchun u energetika tarmoqlari guruhiga kiradi. Neft va neft mahsulotlarining bir qismi neft-kimyo sanoatida qayta ishlənadi.</li> <li>• Dunyoda neft qazib oluvchi mamlakatlar soni 1900-yilda – 20, 1940-yilda – 40, 1970-yilda – 60 ta bo'lган. Har yili dunyoda 4–4,5 mlrd t neft qazib olinadi. Eng yirik neft qazib oluvchi mamlakatlar – Saudiya Arabistoni, AQSH, Rossiya, Eron, Meksika, Xitoy va Venesueladir.</li> </ul>

Fors qoʻltigʻining 5 mamlakati dunyo neftining 25 %, OPEK mamlakatlari 40%, sanoati rivojlangan mamlakatlar (AQSH ni ham qoʼshib) 25%ini qazib oladi. Neftning aniqlangan zaxiralaridan 22,5%i dengiz konlariga toʼgʼri keladi. Dengizlarda qidiruv ishlari qirgʼoqdan 200–500 km uzoqlikda, 800 metrgacha chuqurlikda olib borilmoqda.

- Dunyo mamlakatlarida neft qazib olish va isteʼmol qilish koʼrsatkichlari 10-ilovada berilgan.**

<b>Neftni eksport qiluvchi mamlakatlardagi tashkiloti (OPEK)</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>OPEK – 1960-yil 10–14-sentyabr kunlari Bagʼ-dod shahrida boʼlib oʼtgan konferensiyada tuzilgan (inglizcha OPEC, The Organization of the Petroleum Exporting Countries). OPEK – kartel koʼrinishida boʼlib, neft qazib chiqaruvchi mamlakatlarda neftga boʼlgan narxning barqarorligini taʼminlash va nazorat qilish maqsadida tuzilgan. [39]</li> <li>Tashkilotning birinchi taʼsishilar Eron, Iroq, Quvayt, Saudiya Arabiston va Venesuela boʼlgan. Ushbu beshta mamlakat tarkibiga yana toʼqqiztasi qoʼshilgan: Qatar (1961), Indoneziya (1962), Liviya (1962), BAA (1967), Jazoir (1969), Nigeriya (1971), Ekvador (1973–1992), Gabon (1975–994), Angola (2007).</li> </ul>
<b>Dunyo gaz sanoati</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab rivojlana boshladi. Dunyo yoqilgʼi isteʼmoli strukturasida neft va koʼmirdan keyin uchinchi oʼrinni egallaydi (20%). Gaz ekologik eng toza energiya resursidir.</li> <li>Gazning aniqlangan zaxiralari boʼyicha, ayniqsa, MDH va Janubiy – Gʼarbiy Osiyo mamlakatlari (trln.m<sup>3</sup>), Rossiya (40), Eron (16), Saudiya Arabiston (6), BAA (5,7), AQSH (5,4), Jazoir (4), Kanada (2,6), Venesuela (3,1), Meksika (2), Indoneziya (2,5), Norvegiya (2,3), Malayziya (2), Xitoy (2), Nidyerlandiya (1,7), Turkmaniston, Oʼzbekiston va boshqalar ajralib turadi.</li> </ul>

	<ul style="list-style-type: none"> <li>Dunyoda gaz qazib olishning umumiy hajmi 1990-yilda 2,1 trln m<sup>3</sup>, 1995-yilda 2,2 trln m<sup>3</sup>, 2000-yilda 2,5– 2,6 trln m<sup>3</sup> bo‘lgan. Gaz 60 dan ortiq mamlakatda qazib olinadi. Gaz qazib oluvchi birinchi o‘nlik mamlakatlariga Rossiya, AQSH, Kanada, Nidyerlandiya, Turkmaniston, Eron, O‘zbekiston, Buyuk Britaniya, Indoneziya, Jazoir, Saudiya Arabistoni kiradi.</li> <li><b>Dunyo mamlakatlari gaz qazib olish ko‘rsat-kichlari 11-ilovada berilgan.</b></li> </ul>
Dunyo ko‘mir sanoati	<ul style="list-style-type: none"> <li>Dunyoning umumiy ko‘mir zaxiralari 1,2 trln t ga teng (52% toshko‘mir, 48% qo‘ng‘ir ko‘mir) Uning 66% i iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarga to‘g‘ri keladi. Dunyoda ko‘mir zaxiralari bo‘yicha quyidagi mamlakatlar yetakchi o‘rin egallaydi (mlrd t): AQSH (400), MDH mamlakatlari (280), Xitoy (105), GFR (90), Buyuk Britaniya (90), Kanada (15). Bulardan tashqari, Indoneziya, Botsvana, Zimbabve, Mozambik, Kolumbiya, Venesuelava boshqalar ko‘mir zaxiralari bilan ajralib turadi.</li> <li>1950–1995-yillarda ko‘mir qazib olish muttasil ko‘payib bordi: 1950-y. – 1,3, 1960-y. – 2,6, 1970-y. – 2,9, 1980-y. – 3,7, 1985-y. – 4,3, 1990-y. – 4,9, 1995-y. – 5,2 mlrd tonna.</li> </ul>
Elektro-energetika	<ul style="list-style-type: none"> <li>Sanoatning rivojlanishi ishlab chiqarish va turmush – uy-ro‘zg‘or sohalarini elektrlashtirish bilan uzviy bog‘liq. Dunyoda iste’mol qilinadigan energiyaning 1/3dan ko‘prog‘i (15 mlrd tonna sh.yo.) elektr energiyasiga aylantiriladi. 2000-yilda barcha birlamchi energiya resurslarining 40%i elektroenergiya ishlab chiqarishga sarflandi.</li> <li>O‘tgan asrning 50–70-yillarida u har o‘n yilda ikki marta ko‘payib bordi.</li> </ul>

Masalan, dunyoda 1950-yilda – 950, 1960-yilda – 2300, 1970-yilda – 5000, 1980-yilda – 8250, 1990-yilda – 11550, 2000-yilda – 13,2 mlrd kvt: soat elektr energiyasi ishlab chiqarildi. Dunyodagi barcha elektr stansiyalarning umumiy quvvati ham tez sur’atlarda o’smoqda: u 1970-yilda 1,1 mlrd kvt ga teng bo’lsa, 1995-yilda 2,6 mlrd kVt ga yetdi.

- Dunyoda elektr energiya ishlab chiqarish strukturasida asosiy o’rinni issiqlik elektr stansiyalari (IES – 63%), ikkinchi o’rinni gidroelektr stansiyalari (GES – 20%), uchinchi o’rinni esa, atom elektr stansiyalari (AES – 17%) egallaydi.
- Uchinchi guruhga GES larning elektr energiya ishlab chiqarishdagi salmog’i yuqori bo’lgan mamlakatlar kiradi. Bularga Norvegiya (99,5%), Braziliya (92%), Gonduras, Nepal, Shri Lanka, Paragvay (90% dan ko’proq), Efiopiya, Gabon (80%dan ortiq), Avstraliya, Kolumbiya, Peru, Keniya, Madagaskar, Yangi Zelandiya (70% dan ortiq), Kanada (62%), Shvetsiya (50%) hamda Tojikiston, Qirg’iziston misol bo’ladi.
- **Dunyo mamlakatlarida elektroenergiya ishlab chiqarish 12-ilovada berilgan.**

#### **Metallur-giya saneati**

- Temir rudasining dunyodagi umumiy geologik zaxiralari 394 mlrd t. bo’lib, uning hajmi bo‘yicha (mlrd t.) birinchi o’rinda MDH (Rossiya, Ukraina, Qozog’iston 111), ikkinchi o’rinda Xorijiy Osiyo (ayniqsa, Xitoy, Hindiston, 67,5), uchinchi Lotin Amerikasi (Braziliya, 61,7), undan keyin Afrika (JAR, Jazoir, Liviya, Mavritaniya, Liberiya, 59,4), Shimoliy Amerika (AQSH, Kanada, 50,7), Avstraliya (23,4), Xorijiy Yevropa (Fransiya, Shvetsiya, Buyuk Britaniya, GFR, 20,3) turadi.

- Dunyoda temir rudasini qazib olishning 1950–1990-yillardagi dnnamikasi quyidagi raqamlar bilan tavsiflanadi (mln t.): 1950-y. – 250, 1960-y. – 500, 1970-y. – 750, 1980-y. – 900, 1985-y. – 850, 1990-y. – 1000. Ikkinci jahon urushigacha chet ellarda, deyarli, barcha temir rudasini qazib olish AQSH va G‘arbiy Yevropa mamlakatlari hissasiga to‘g‘ri kelgan.

Hozirgi paytda dunyoda eng ko‘p temir ruda qazib oladigan mamlakatlar quyidagilar (mln t): MDH (236, shu jumladan, Rossiya 107, Ukraina 104, Qozog‘iston 24), Xitoy (170), Braziliya(162), Avstraliya (112), AQSH (58), Hindiston (50), Kanada (42), JAR (33), Shvetsiya(23) va b.[17]

- **Dunyo mamlakatlarida temir rudasini qazib olish 13-ilovada berilgan.**

### Rangli metallur-giya

- Rangli metallurgiya ham sanoatning eski tarmoqlaridan biri bo‘lib, FTI ta’sirida uning strukturasida katta o‘zgarishlar va yangilanishlar sodir bo‘ldi. Masalan, ikkinchi jahon urushigacha og‘ir metallar – mis, qo‘rg‘oshin, ruh, qalay eritish ustun bo‘lgan bo‘lsa, 60–70-yillarda birinchi o‘ringa alyuminiy chiqdi, shuningdek, «XX asr metallari» – kobalt, titan, berilliy va boshqalarni ishlab chiqarish doirasi kengaydi. Hozirda rangli metallurgiya, taxminan, 70 ta turli metalga bo‘lgan ehtiyojni ta’mirlamoqda. Lekin ishlab chiqarishning hajmi bo‘yicha (40 mln t) u qora metallurgiya ishlab chiqarish hajmidan 30 marta kamroqdir.
- **Dunyo mamlakatlarida oltin va kumush ishlab chiqarish 14-ilovada berilgan.**

<b>Mashinasozlik</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>Mashinasozlik dunyo ishlab chiqarish sanoatining asosiy tarmog'i bo'lib, ko'p jihatdan uning tarmoq strukturasi va joylashishi xususiyatlarini belgilab beradi. «Katta yettilik» mamlakatlari, Rossiya, Xitoy («ignadan samolyotgacha») – amaliy jihatdan barcha turdag'i metall buyumlar, mashina va jihozlar ishlab chiqaradi. G'arbiy va Sharqi Yevropa mamlakatlari, ba'zi rivojlanayotgan mamlakatlar (Braziliya, Hindiston, Singapur va b.), odatda, muayyan mashinasozlik mahsulotlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashgan. Ko'pchilik rivojlanayotgan mamlakatlarda mashinasozlik emas, to'g'riroq'i, transport, tog'-kon sanoati, qishloq xo'jaligiga xizmat ko'rsatadigan ta'mirlash ustaxonalari va oddiy inventarlarni tayyorlaydigan metallni qayta ishlash korxonalari mavjud.</li> <li><b>Dunyo mamlakatlariда avtomobil ishlab chiqarish sanoati 15-ilovada berilgan.</b></li> </ul>
<b>Dunyoning kimyo sanoati</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>Dunyoda plastmassa ishlab chiqarish 1950-yildagi 1,5 mln tonnadan 90-yillar boshida 100 mln tonnagacha ko'paydi. U regionlar bo'yicha quyidagicha taqsimlanadi: Xorijiy Yevropa – 40 mln t, Shimoliy Amerika – 30, Xorijiy Osiyo – 18, MDH – 4,5, Lotin Amerikasi – 4, Afrika va Yaqin Sharq – 2, Avstraliya – 1mln t. «Birinchi o'nlik» mamlakatlari asosan, iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar, Xitoy va Koreya Respublikasi hisoblanadi. Dunyo bo'yicha aholi jon boshiga o'rtacha 19–20 kg plastmassa ishlab chiqariladi. Uning eng yuqori darajasiga Belgiya (300 kg), Nidyerlandiya (255 kg), GFR (135 kg), AQSH (120 kg) erishgan. MDH mamlakatlarida u dunyoning o'rtacha ko'rsatkichidan past (16 kg), rivojlanayotgan mamlakatlarda esa yanaharn kamroqdir (2,5 kg).</li> </ul>

<b>Dunyoning o'rmon va yog'ochni qayta ishlash sanoati</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• O'rmon sanoati qurilish materiallari ishlab chiqaradigan tarmoqlar orasida eng eski tarmoqdir. U yog'och tayyorlovchi, yog'ochni qayta ishlaydigan, sellyuloza-qog'oz va o'rmon-kimyo korxonalarini birlashtiradi va yog'och, taxta, yog'och buyumlari, qog'oz va o'rmon-kimyo mahsulotlarini ishlab chiqaradi.</li> <li>• Yog'och tayyorlashda «birinchi o'nlik»ka kiradigan mamlakatlarning ko'pi shimoliy mintaqada joylashgan. «Ikkinchi o'nlikda» shimoliy mintaqadan Fransiya, Finlyandiya, GFR, Polsha, Ruminiya, Ispaniya, janubiy mintaqadan Yaponiya, Tailand, Fillippin, Koreya bor. Tayyorlanadigan yog'ochdan olinadigan yog'och-taxtaning salmog'i shimoliy mintaqada 80–100% ga (Rossiya va AQSHda 80%, Kanada – 90%, Shvetsiya – 90%), janubiy mintaqada esa 10–20% ga (Hindiston – 10%, Braziliya – 25%)ga teng.</li> </ul>
<b>Dunyo yengil sanoati</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Yengil sanoatning joylashishiga ko'p omillar ta'sir ko'rsatadi. Ularning eng muhimlari quyidagilar:</li> <ol style="list-style-type: none"> <li>1) xomashyo omili, asosan, xomashyonи birlamchi qayta ishlaydigan korxonalarning joylashishiga katta ta'sir ko'rsatadi.</li> <li>2) aholi, ya'ni iste'mol omili;</li> <li>3) mehnat resurslari omili. Yengil sanoat ko'p miqdordagi malakali mehnat resurslarini talab qiladi, uning barcha tarmoqlari ayollar mehnatidan ko'p foydalanadi.</li> </ol> <li>• <b>Dunyo mamlakatlarida paxta tolasidan gazlama ishlab chiqarish 16-ilovada berilgan.</b></li> </ul>
<b>To'qimachilik sanoati</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Yengil sanoatda yuz berayotgan geografik siljishlar uning yetakchi tarmog'i hisoblangan to'qimachilik sanoatida yaqqol o'z aksini topdi. U, sanoatning tipik eski tarmog'i bo'lishiga qaramay, FTI davrida to'qimachilik tolalarini ishlab</li> </ul>

	chiqarish doimiy o'sib borish tendensiyasiga ega. Lekin bir vaqtning o'zida tolalar ishlab chiqarish strukturasida tub o'zgarishlar sodir bo'lib, tabiiy (natural) tolaning salmog'i pasayib, kimyoviy tolaning salmog'i oshib bormoqda.
--	--

### **5.3. Jahon qishloq xo'jaligining umumiy tavsisi: o'simlikshunoslik, texnik ekinlar, chorvachilik, dunyoda baliq ovlash va baliqchilik**

<b>Jahon qishloq xo'jaligining umumiy tavsisi</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>Dunyo yer fondining umumiy maydoni – 34 mln km<sup>2</sup> (13,4 mlrd ga) bo'lib uning asosiy qismi Afrika, MDH, Xorijiy Osiyo, Shimoliy va Janubiy Amerikada joylashgan. Jon boshiga oladigan bo'lsak, aholisi nisbatan kam bo'lgan Avstraliya birinchi, aholisi eng ko'p bo'lgan Xorijiy Osiyo esa oxirgi o'rinni egallagan.</li> <li>Ishlov berilgan yerlar maydoni bo'yicha AQSH (190 mln ga), Hindiston (160 mln ga), Rossiya (134 mln ga), Xitoy (95 mln ga), Kanada (46 mln ga), Qozog'iston (36 mln ga), Ukraina (34 mln ga) ajralib turadi. Yevropadan tashqari jahoning barcha mintaqalarida tabiiy o'tloq va yaylovlar ishlov berilgan yerkarda nisbatan ko'proq.</li> </ul> <p><b>Dunyoning yer fondi tuzilmasi 17-illovada berilgan.</b></p>
<b>O'simlik-shunoslik</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>Donli ekinlar kishilik madaniyati tarixining barcha davrlarida bo'lgan. Arxeologik izlanishlar guvohlik beradiki, bug'doy Old Osiyoda eramizdan 5–6 ming yil, Misrda 4 ming yil, Xitoyda 3 ming yil, Bolqonda 2–3 ming yil avval ekilgan. Hozirgi vaqtida donli ekinlar uch ko'rsatkichi bo'yicha tahlil bilinishi lozim:           <ol style="list-style-type: none"> <li>1) ekin maydoni;</li> <li>2) yalpi hosili;</li> <li>3) xalqaro savdosi.</li> </ol> </li> </ul>

	<ul style="list-style-type: none"> <li>Dunyo miqyosida 720 mln gektar yerga donli ekinlar ekilmoqda. Ular jami ekin maydonining Buyuk Britaniya, Fransiya, Italiyada 50–60% ini, Rossiya, Polsha, Vengriya, Ruminiya, Yaponiyada 60–65, GFRda – 70, Vyetnam va Mongoliyada – 80 foizini egallagan. Jahonda jami ekin maydonining asosiy qismini 3 ta ekin-bug'doy (230 mln ga), sholi (140 mln ga), makkajo'xori (180 mln ga) tashkil etadi.</li> <li><b>Donli mahsulotlarni yetishtiruvchi asosiy mamlakatlar 18-ilovada keltirilgan.</b></li> </ul>
<b>Texnika ekinlari</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>texnika ekinlariga paxta, tabiiy kauchuk, kanop hamda tamaki kiradi. Paxta maydonlari 35 mln ga dan iborat. Ular, asosan, shimoliy yarim sharning 20° va 40° shimoliy kengliklari oralig'ida jamlangan. Paxta tolasi ishlab chiqarish jahonda asta-sekin o'sib borib, 19 mln t. ga yetdi.</li> <li><b>Jahonda paxta tolasini yetishtirish 19-ilovada ko'rsatilgan.</b></li> </ul>
<b>Jahon chorvachiligi geografiyası</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>Osiyo, Afrika, Lotin Amerikasi davlatlarida chorvachilik mahsuldarligi pastligi tufayli jahonda yetishtirilgan go'shtning 25, sutning 14 foizi tayyorlanadi.</li> <li>Aholi jon boshiga chorvachilik mahsulotlari iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda yuqori. Bu borada ayniqsa, chorvachilik intensiv rivojlangan Yangi Zelandiya, Nidyerlandiyaga o'xshash mamlakatlar ustunlik qiladi.</li> <li>Go'sht ishlab chiqarish tizimida mol va buzoq go'shti yetishtirish salmog'i 32%, cho'chqa go'shti yetishtirish – 39, parranda go'shti – 20%, ot va qo'y go'shti salmog'i 9% ga to'g'ri keladi.</li> </ul>
<b>Dunyoda baliq ovlash va baliqchilik</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>dunyoda ovlanadigan baliqning 75–80 foizi odamlar ovqatlanishi uchun sarflanadi, qolgan 20–25 foizi esa qayta ishianib, baliq uni, qo'shimcha ozuqaga, baliq moyiga aylantiriladi va chorva ozuqasi yoki farmasevtika sanoatida ishlataladi.</li> </ul>

	Dengizdan ovlangan mahsulotning 87–88 foizi baliq; 7–8 foizi mollyuska, 4–5 foizi raksimonlar, 0,5 foizi boshqa turlar. Ovlangan baliq strukturasida so'nggi o'n yilliklarda ilgari ko'p ovlangan seld va treska, angous baliqlari salmog'i pasaydi, qiymati kamroq bo'lgan moyva, mintay, xekkabilarning salmog'i oshdi.
--	---

#### 5.4. XXI asrda jahon moliyaviy inqirozi sabablari va oqibatlari

<b>XXI asrda jahon moliyaviy inqirozi-ning yuzaga kelishi sabablari:</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• <b>O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov 2008-yil 5-dekabrida O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi qabul qilinganining 16-yilligi munosabati bilan bo'lib o'tgan yig'ilish-dagi ma'ruzasida:</b>            «Bu inqiroz Amerika Qo'shma Shtatlarida ipotekali kreditlash tizimida ro'y bergen tanglik holatidan boshlandi. So'ngra bu jarayonning miqyosi kengayib, yirik banklar va moliyaviy tuzilmalarning likvidlik, ya'ni to'lov qobiliyati zaiflashib, moliyaviy inqirozga aylanib ketdi. Dunyoning yetakchi fond bozorlarida eng yirik kompaniyalar indekslari va aksiyalarning bozor qiymati halokatli darajada tushib ketishiga olib keldi. Bularning barchasi, o'z navbatida, ko'plab mamlakatlarda ishlab chiqarish va iqtisodiy o'sish sur'atlarining keskin pasayib ketishi bilan bog'liq boshqa salbiy oqibatlarni keltirib chiqardi», deb ta'kidlagan edi. [14]</li> </ul>
<b>Jahon moliyaviy inqirozi kelib chiqishining qo'shimcha sabablari</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• yirik rivojlangan mamlakatlarning ko'p yillar davomida davlat byudjeti taqchilligi va salbiy tashqi savdo balansiga egaligi;</li> <li>• davlat tashqi qarzi miqdorining YIMga nisbatan o'sish suratlarining jadallahishi;</li> </ul>

	<ul style="list-style-type: none"> <li>noratsional pul-kredit siyosati, hamda qayta moliyalash stavkasining surunkali ravishda past darajada ushlab turilishi natijasida qarzga yashash odatga va kundalik holatga aylanishi;</li> <li>ipoteka kreditlari berish talablarining asossiz bo'shashtirib yuborilganligi va uy-joy bozorida narxlarning qisqa muddat ichida keskin o'sishi.</li> </ul>
<b>Jahon moliyaviy inqirozining globallashuvi</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>AQSH ipoteka kreditlari bozoridagi tanglik holati;</li> <li>Investorlarning riskni qayta baholashga nisbatan ta'sirchanligi oshishi natijasida tanglikning xalqaro moliyaviy faollar bozoriga transformatsiyalanishi;</li> <li>Dunyodagi yetakchi indekslarning keskin tushishi, korporativ qimmatli qog'ozlar – aksiya, obligatsiyalar baholarining pasayishi oqibatida qarz jalb qilish shartlarining og'irlashishi va likvidlilik muammolarining avj olishi;</li> <li>Korporatsiyalar, hatto alohida shaxslarning xarid quvvatining pasayishi tufayli xalqaro tovar va xizmatlar aylanmasining qisqarishi va oqibatda jahon iqtisodiyotida iqtisodiy o'sish sur'atlarining pasayishi.</li> </ul>
<b>Jahon moliyaviy inqirozi oqibatlari</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>Moliyaviy inqirozning kengayishi global iqtisodiy o'sish sur'atlariga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Nafaqat moliyaviy sektor, balki iqtisodiyotning real sektorida ham ishlab chiqarishning pasayishi kuzatildi. 2008-yilning oktyabr oyiga kelib, GM, Ford va Toyota kabi avtomobil ishlab chiqaruvchi kompaniyalar savdo hajmida tegishinchcha 45%, 30% va 23% pasayish kuzatilgan [43].</li> <li>Birgina AQSHda 2008-yilning yanvar-sentyabr oylari mobaynida ish o'rinnari 760 mingtaga qisqartirilgan.</li> </ul>

2008-yilning sentyabr oyidan buyon esa, moliyaviy sektorda, 111000 kishi, avtomobil sanoatida 95000, transport sohasida 62000, chakana savdoda – 51000, telekommunikatsiya sohasida 28 000 kishi ishsizlar safidan o‘rin olgan [44]. 2008-yil davomida 2,6 mln ish o‘rni yo‘qotilgan vaishsizlik darajasi 7,2 foizga yetgan. Bu esa, 1992-yildan buyon kuzatilgan eng yuqori ko‘rsatkichdir.

### **Nazorat savollari**

1. Dunyo sanoati rivojlanishi bo‘yicha qanday guruhlarga bo‘linadi?
2. Dunyo sanoati qanday tarmoqlardan iborat?
3. Qaysi davlatlarda avtomobilsozlik yaxshi rivojlangan?
4. Dunyoda yengil sanoat yaxshi rivojlangan mamlakatlarni aytинг.
5. Sanoati eng kam taraqqiy etgan mamlakatlarni sanab bering va uning sabablarini ko‘rsating.
6. Qaysi davlatlarda tog‘-kon sanoati rivojlangan.
7. Yoqilgi sanoati rivojlangan mamlakatlarni sanang.
8. Juhon qishloq xo‘jaligining rivojlanishi va joylashishiga qanday omillar ta’sir ko‘rsatadi?
9. Juhon yer fondi qanday qismlardan iborat?
10. Juhon qishloq xo‘jaligi muhim tarmoqlarining joylashishiga xususiyatlarini ta’riflang.
11. Donli ekinlar joylashishini tushuntirib bering.
12. Texnika ekinlarining joylashish xususiyatlari nimalardan iborat?
13. Dunyo chorvachilik tarmoqlarining joylashishini tushuntirib bering.
14. Juhonda moliyaviy-iqtisodiy inqiroz sabablari tushuntiring.

### **Seminar mashg‘ulotlari uchun savollar:**

Juhon xo‘jaligi tushunchasi. Juhon xo‘jaligining rivojlanish bosqichlari. Sanoat rivojlanishining umumiylar xususiyatlari: Juhon yoqilg‘i-energetika sanoati. Juhon elektr-energetika sanoati. Juhon metallurgiya sanoati. Juhon mashinasozlik sanoati. Juhonning kimyo sanoati. Juhonning o‘rmon va yog‘ochni qayta ishslash sanoati. Juhon yengil sanoati. Juhon qishloq xo‘jaligining umumiylar ta’ifi. O‘simlikshunoslik. Texnik ekinlar. Chorvachilik. Dunyoda baliq ovlash va baliqchilik. Juhonda moliyaviy-iqtisodiy inqirozining kelib chiqish sabablari va oqibatlari.

## **6-BOB. DUNYONING REGIONAL TAVSIFI: (AQSH, GERMANIYA, YAPONIYA VA XITOY DAVLATLARINING IQTISODIY-GEOGRAFIK TAVSIFI)**

<b>Reja:</b>	<b>6.1. AQSHning iqtisodiy-geografik tavsifi. 6.2. Germanyaning iqtisodiy-geografik tavsifi. 6.3. Yaponyaning iqtisodiy-geografik tavsifi. 6.4. Xitoyning iqtisodiy-geografik tavsifi.</b>
<b>Tayanch iboralar:</b>	mustaqillik siyomlari, davlat tuzilmasi va tuzumi, geografik joylashuvi, tabiiy resurslari, iqtisodiy-geografik o'mni, iqtisodiyot tarkibi, transporti va tashqi iqtisodiy aloqalari.

### **6.1. AQSHning iqtisodiy-geografik tavsifi**

<b>Rasmiy nomlanishi</b>	<b>AMERIKA QO'SHMA SHTATLARI</b>
<b>Musta- qillik sanasi</b>	1776-yil 4-iyul (Buyuk Britaniya mustamlakasi bo'lgan)
<b>Davlat bayrog'i</b>	1960-yil 4-iyulda (50 ta yulduz) tasdiqlangan
<b>Davlat Gerbi</b>	1782-yil 20-iyulda tasdiqlangan



<b>Davlat tili</b>	Davlat tili – ingliz (taxminan – 75 %), ispan tili (10%), qolgan foizni fransuz, xitoy, nemis va boshqalar tashkil etadi.
<b>Poytaxti</b>	<b>Washington</b> – 1800-yildan boshlab poytaxt. 
<b>Yirik shaharlari</b>	Nyu-York, Los-Anjeles, Chikago, Xyoston, Filadelfiya, Finiks, San-Antonio, San-Diyego, Dallas va boshqalar.
<b>Boshqaruv shakli</b>	Prezidentlik Respublikasi
<b>Davlat tuzumi</b>	Federativ davlat
<b>Parlamenti</b>	<b>Ikki palatali:</b> Kongress. Yuqori palata – Senat (100 ta o'rin), Quyi palata – Vakillik palatasi (435 ta o'rin)
<b>Prezidenti</b>	<b>Barak Xuseyn Obama II</b> (44-prezident)
<b>Vitse-Prezident</b>	<b>Djozef Robinett Bayden</b>
<b>Aholi soni, kishi</b>	321,3 mln
<b>Aholisining o'rtacha zichligi, 1 km<sup>2</sup> ga/kishi</b>	32

<b>Aholisining tarkibi, %</b>	AQSH aholisining 82,8 % ni asli kelib chiqishi yevropaliklar, 12,6 % ni afrikaliklar, 3,6 %ini osiyoliklar, 1 %ini hindular, eskimoslar, aleuitlar tashkil etadi.
<b>Dini</b>	<b>Dunyoviy davlat.</b> Shu jumladan, denga e'tiqodi: katoliklar – 25 %, protestantlar – 61 %, yahudiylar – 2 %, qolganlar – 5% va ateistlar – 7 %.
<b>Dunyo xaritasida</b>	
<b>Maydoni, ming kv. km</b>	9 519,4
<b>Suvli maydon, % da</b>	6,76
<b>Chegara-ning umumiyligi uzunligi, km</b>	– 32 141 km. Shundan Kanada – AQSH chegarasi – 8893 km, Meksika – AQSH chegarasi – 3326 km, sohil bo'yi uzunligi – 19 924 km.
<b>Chegaradosh davlatlar</b>	<b>3 ta davlat.</b> Shimolda Kanada, Janubda Meksika, shimali-g'arbda dengiz bo'ylab Rossiya Federasiyasi bilan chegaradosh.
<b>Ma'muriy hududiy bo'linishi tarkibi</b>	<b>50 ta shtat, 1 okrug va 4 ta qaram ma'muriy birliklar.</b>

Ma'muriy hududiy bo'linish tuzilishi	<p><b>Shtatlar:</b> Aydaxo, Ayova, Alabama, Alyaska, Arizona, Arkanzas, Vayoming, Vashington, Vermont, Virjiniya, Viskonsin, Gavayi, Delaver, Jordjiya, G'arbiy Virjiniya, Illinoys, Indiana, Kaliforniya, Kanzas, Kentukki, Kolorado, Konnektikut, Lui-ziana, Massachusetts, Minnesota, Missisi pi, Mis-suri, Michigan, Montana, Men, Merilend, Neb-raska, Nevada, Nyu-Djersi, Nyu-York, Nyu-Mek-siko, Nyu-Gempshir, Ogayo, Oklaxoma, Oregon, Pensilvaniya, Rod-Aylend, Shimoliy Dakota, Shi-moliy Karolina, Tennessi, Texas, Florida, Janubiy Dakota, Janubiy Karolina, Yuta. <b>Kolumbiya Fede-ral okrugi</b> mamlakat poytaxti hisoblanadi. Shuningdek, <b>Puerto-Riko, Guam, Sharqiy Samoa va Virgin</b> orollarining ma'muriy birliklari jam qilingan.</p>
Geografik joylashuvi	<p>AQSHning asosiy hududi Shimoliy Amerika qit'asida joylashgan bo'lib, sharqda Atlantika okeanidan tortib, g'arbda Tinch okeaniga qadar cho'zilgandir. Undan tashqari AQSH tarkibiga yana 2 shtat qo'shiladi. Qit'aning chekka shimoli-g'arbida, bir vaqtning o'zida Kanada bilan chegaradosh bo'lgan Alyaska shtati joylashgandir. Tinch okeanida Gavayya shtati joylashgan. Mamlakat hududining 3/1 qismi tog'li hududlardan iborat bo'lib, yassi tekisliklar va Kordiler platosi kiradi. Mamlakatning eng yuqori nuqtasi bo'lib Alyaskadagi Mak-Kinli (6193 m) cho'qqisi hisoblanadi. O'rmonlar mamlakatning taxminan 30 % hududini qoplagan. Mamlakatning eng yirik ko'llari – Buyuk ko'llar (umumiyl maydonni – 245,2 ming kv. km): Yuqori, Michigan, Guron, Eri va Ontario bo'lib, dunyo chuchuk suvlarining eng yirik yig'ilmasidir. AQSHning iqlimi subarktikdan tropikkacha boradi</p>

	Yirik daryolari: Missisipi (uzunligi 3950 km bo'lib, uning hovuz maydoni butun mamlakatning taxminan 40%ini egallaydi), Micsuriy, Kolorado, Yukon va boshqalar.
<b>Tabiiy boyliklari</b>	AQSH turli mineral resurslarga boy davlat. Sharqiy tekisliklarda yoqilg'i foydali qazilmalardan toshko'mir Appalachi tog'oldi hududida va Markaziy tekisliklar (Hlinnoys)da ko'p uchraydi. Qo'ng'ir ko'mir Shimoliy tekisliklarda, neft va tabiiy gaz Missisipi va Janubiy tekisliklarda, oltingugurt Meksika qo'llitig'ida, fosforit Florida yarim orolida mavjud. Buyuk ko'llar rayonida katta hajmda temir (Mesabi) va mis (Kivino) rudalari, mamlakat markaziy qismida qo'rg'oshin-qalay (Sent-Djozef) rudalari mavjud. G'arbiy tog' hududlarida rangli metall: mis (Byut, Bingem-Kanon, Ili, Morensi), qo'rg'oshin (Ker-de-Alen), alyuminiy (Split-Rok), molibden (Kalaymaks va Kuesta), volfram, surma, litiy (Bishop), kumush, oltin (Xaymstek, Kripl-Krik va Komston) va uran (Granst) mavjud. Tog'lararo hududlarda katta hajmdagi ko'mir, neft va tabiiy gaz zaxiralari shakllangan. Alyaska shtatida toshko'mir, neft (AQSHning eng yirik neft koni Pradxo-Bey) va tabiiy gaz, oltin va platina mavjud. Shunday qilib, mamlakat fosforit va oltingugurt bo'yicha dunyoda birinchi, ko'mir, mis rudalari va kaliy tuzlari bo'yicha ikkinchi, yarim metall rudalar bo'yicha uchinchi, temir rudalari – to'r-tinch, tabiiy gaz – oltinchi, neft bo'yicha o'ninchi o'rinni egallaydi.
<b>Pul birligi</b>	<b>AQSH dolları (\$)</b> – 1861-yildan boshlab barcha banknotlar joriy etilgan. 1971-yil 15-avgustdan boshlab AQSH dollarining oltin rezerv bilan ta'minlanganligi bekor qilingan.

<b>YMM, mldr AQSH dollar'i</b>	<b>2013-yilda: 161889 [39]</b>
<b>Aboli jon boshiga, AQSH dollar'i</b>	<b>2013-yilda: 45336</b>
<b>YMMdagi ulushi, % da</b>	<b>2013-yilda:</b> sanoat 19,7 %, qishloq xo'jaligi – 0,9%, xizmat ko'rsatish – 79,4 %ni tashkil etdi.
<b>Sanoat tarmog'i</b>	<p>AQSH xo'jaligi tizimi yuqori darajada ishlab chiqarishga qaratilgan. Deyarli iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida bir nechta yirik kompaniyalar faoliyat yuritadi. Ularning barchasi yuqori darajadagi vertikal va gorizontal integratsiyaga ega, ya'ni korporativ ishlab chiqarish zanjiri jahonning katta hududlari bo'yicha mujassamlangan. Jahonning 500 yirik transmilliy korporatsiyasidan 174 tasi (shu jumladan 76 tasi sanoat) AQSHnidir.</p> <p>Mashinasozlik tarmoqlari tarkibida elektronika, avia-raketasozlik va avtomobil sanoati mavjud. AQSH elektronikasi superkompyuter va murakkab komplektatsiya (jamlash) detallarini ishlab chiqarishga ixtisoslashgan.</p> <p>Elektronika ishlab chiqarish bo'yicha texnoparklar Kaliforniya shtatida «Silekon vodiysi» va «Janubiy Kaliforniya», Arizona shtatida – «Silikon sahrosi», Kolorado shtatida – «Silikon tog'lari», Texasda – «Silikon tekisliklari» kabi yuqori texnologik zonalar tashkil etilgan.</p> <p>Ushbu hududlarda «Intel», «Etpl», «Xyulett-Pekard» va «Epson» kabi kompaniyalarning bosh markazlari joylashgan.</p> <p>Avia-kosmik sanoat AQSHning G'arbiy va Janubiy shtatlari (Kaliforniya, Vashington,</p>

Texas, Djorjiya va Florida)da rivojlangan. «NASA» milliy kosmik agentligi shtab-kvartirasi va Konoveral – kosmodromi Orlando shtatida, «Boing» aviaishlab chiqarish kompaniyasi shtab-kvartirasi Chikagoda joylashgan. Avtomobil sanoatida har yettinchi amerikalik band hisoblanadi. Mamlakatda uchta yirik avtomobil ishlab chiqaruvchi kompaniya «Djeneral Motors», «Ford Motors» shuningdek Germaniya-Amerika qo'shma «Daymler-Kraysler» kompaniyalari mavjud. Avtomobilarning 4/5 qismi Michigan shtatida ishlab chiqariladi. AQSH qora metall ishlab chiqarish bo'yicha yetakchi o'rinda turadi. Yoqilg'i-energetika kompleksda mamlakatning muhim tarmog'i hisoblanadi. AQSHning neftni qazib olishdagi ulushi 9,3 %ni tashkil etishiga, tabiiy gazning – 22,7 %, ko'mirning – 22,2 %ini ishlab chiqarishiga qaramasdan, Amerika bu borada yirik importchi bo'lib ham hisoblanadi. Elektr energiyasi ishlab chiqarish bo'yicha AQSH boshqa davlatlardan sezilarli darajada oldinda(3800 mlrd k Vt s., yoki jahondagi ulushi 26,6 %ni tashkil qiladi). Bu universal energiyaga katta talab borligini bildiradi. Elektr energiyining 70 % IES, 21 % ga yaqjni AES va 9,6 % GESlarda ishlab chiqariladi. Metallurgiya, neftni qayta ishslash, kimyo, atom sanoati, telekommunikatsiya, elektronika, axborot texnologiyalari, yengil va to'qimachilik, oziq-ovqat va tamaki ishlab chiqarish tarmoqlari yaxshi rivojlangan.

<b>Qishloq xo‘jaligi</b>	Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining hajmiga ko‘ra AQSH jahonda faqat Xitoydan keyingi o‘rinda turadi. Lekin ularni qayta ishlash bo‘yicha unga teng keladigan mamlakat hozircha yo‘q. AQSH makkajo‘xori, soya, paxta, mol go‘shti va parranda go‘shtini yetishtirish bo‘yicha jahonda birinchi o‘rinni, bug‘doy, yeryong‘oq, tamaki, sabzavot va mevalar etishtirish bo‘yicha ikkinchi-uchinchi o‘rinlarni egallaydi. AQSH qishloq xo‘jaligida 1,9 mln fermer xo‘jaliklari hisobga olingan. Agrosanoat kompleksi mamlakatda katta ahamiyatga ega bo‘lib, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksportidagi ulushi ko‘rsatkichlari tobora o‘sib bormoqda. Har yili dunyo bo‘yicha bug‘doy eksportining taxminan yarmi AQSH hisobiga to‘g‘ri keladi.
<b>Transporti</b>	AQSH – yuksak darajada rivojlangan transport mamlakatidir. Barcha turdag‘i transport rivojlanishiga qaramasdan, asosiy transport avtomobil bo‘lib, uning yuk tashishdagi ulushi 30%, yo‘lovchi tashishda esa 80% ni tashkil etadi. Avtomobil tarmog‘ining umumiy uzunligi 7,3 mln km bo‘lib, shundan 6,3 mln km ga yaqini qattiq qoplamaga ega. Avtomobil parki mamlakatda 207,5 mln dona avtombildan iborat bo‘lib, shundan 138 mln tasi yengil avtobiillarga to‘g‘ri keladi. Temiryo‘llar transport tizimida muhim vazifani bajaradi. Mazkur transportning yuk tashishdagi hissasi 40 % ga yaqin. XIX asrda temiryo‘l shiddat bilan rivojlandi, lekin avtombilda tashish raqobatda ustun kelgani uchun temiryo‘l transporti XX asrda bir muncha qisqardi. Neft va gaz quvurlarining uzunligi bo‘yicha mamlakat jahonda birinchi o‘rinni egallaydi.

	Dengiz transporti tashqi aloqalarni ta'minlashga, aviatsiya esa tashqi va ichki yo'lovchilarni tashishga xizmat qiladi. AQSH nafaqat eng yaxshi samolyotlarga, balki yirik samolyot parkiga ham ega. Mamlakat hududida jahoning eng yirik aeroportlari mavjud — Atlanta, Chikago va Los-Anjeles.
<b>Xalqaro iqtisodiy aloqalar</b>	AQSH — yuqori rivojlangan mamlakat va jahon iqtisodiyotining bosh «markazi» hisoblanadi. Ikkinci jihatni hozirgi zamон AQSH iqtisodiyotining jahon xo'jaligiga chuqur integrasiyalashganligidadir. Eksportda sanoat uskunalar, samolyotlar, avtomobillar, elektron uskunalar, harbiy texnika, kimyoiy vositalar, jo'xori, soya loviyasi yetkazib beriladi. Asosiy savdo hamkorlari: Kanada, Meksika, Yaponiya, Xitoy, Germaniya.
<b>Xalqaro tashkilotlarga a'zoligi</b>	BMT Xavfsizlik kengashining doimiy a'zosi, NATO, NAFTA, BST, BBT, XVF, JB, OTB va boshqalarga ham a'zo.
<b>Internet domeni</b>	.us, .mii, .gov
<b>Telefon kodi</b>	+1
<b>Soat millari</b>	-5...-10

### *Nazorat savollari*

1. AQSH geografik o'rнining qulayligi nimadan iborat?
2. AQSH qanday tabiiy resurslarga boy?
3. AQSHda davlat tuzumi qanday?
4. AQSH ahotisi o'sishi va joylashishining o'ziga xos xususiyatlari nimada?
5. AQSH sanoatining yetakchi tarmoqlari nimalardan iborat?
6. AQSHning asosiy qishloq xo'jalig tarmoqlari geografiyasi-chi?
7. AQSHning transport tarmoqlari rivojlanish va joylashishiga ko'ra qanday xususiyatlarga ega?
8. AQSH tashqi iqtisodiy aloqalari rivojlanishi bo'yicha qaysi xususiyatlari bilan ajralib turadi?

## 6.2. Germanianing iqtisodiy-geografik tavsifi

<b>Rasmiy nomlanishi</b>	<b>GERMANIYA FEDERATIV RESPUBLIKASI</b> (nemischa— Deutschland)
<b>Mustaqillik sanasi</b>	<b>1949-yil 23-may</b> (GFR va GDR 1990-yil 3-oktyabrdan birlashgan)
<b>Davlat bayrog'i</b>	1949-yil 23-mayda tasdiqlangan 
<b>Davlat Gerbi</b>	1950-yil 20-yanvarda tasdiqlangan 
<b>Davlat tili</b>	Nemis tili
<b>Poytaxti</b>	<b>Berlin</b> 

<b>Yirik shaharlari</b>	Berlin, Gamburg, Myunxen, <b>Kyoln</b> , Frankfurt-na-Mayne, <b>Shtutgar</b>
<b>Boshqaruv shakli</b>	Parlament RespUBLIKASI
<b>Davlat tuzumi</b>	Federativ davlat
<b>Parlamenti</b>	<b>Ikki palatali:</b> Yuqori palata – Bundesrat (federal yerlar vakillik organi), Quyi palata – Bundestag (parlament)
<b>Prezidenti</b>	<b>Yoaxim Gauk</b>
<b>Federal Kansler (Bosh vazir)</b>	<b>Angela Doroteya Merkel</b>
<b>Aholi soni, kishi</b>	80.8 mln
<b>Aholisining o‘rtacha zichligi, 1 km<sup>2</sup> ga/kishi</b>	229
<b>Aholisining tarkibi, %</b>	Nemislar – 93 %, qolgan foizni avstriyaliklar, chexlar, polyaklar, turklar va ruslar tashkil etadi.
<b>Dini</b>	<b>Dunyoviy davlat.</b> Shu jumladan, diniy e’tiqodiga ko’ra: katoliklar – 25 %, protestantlar – 61 %, yahudiylar – 2 %, qolganlar – 5% va ateistlar – 7 %ni tashkil etadi.
<b>Dunyo xaritasida</b>	

<b>Maydoni, ming km<sup>2</sup></b>	357, 0
<b>Suvli maydon, % da</b>	2,42
<b>Chegaraniug umumiy uzunligi, km</b>	3758
<b>Chegaradosh davlatlar</b>	<b>9 ta:</b> Shimolda— Daniya, sharqda— Polshava Chexiya, janubda— Avstriya va Shvetsariya, g'arbda — Fransiya, Lyuksemburg, Belgiyai, Niderlandiya.
<b>Ma'muriy hududiy bo'linishi tarkibi</b>	<b>16 ta mustaqil federal yer, 1 okrug.</b>
<b>Ma'muriy hududiy bo'linish tuzilishi</b>	<b>5 ta yangi:</b> Brandenburg, Meklenburg-Pomeraniya, Saksoniya, Saksoniya-Angalt, Tyuringiya — va 11 ta eski: Bavariya, Baden-Vyurtemberg, Berlin, Bremen, Gamburg, Gessen Janubiy Saksoniya, Shimoliy Reyn — Vestfaliya. Reinland-Pfals, Saar. Shlezvig-Golshteyn.
<b>Geografik joylashuvi</b>	GFR — Markaziy Yevropada joylashgan. Shimolda Shimoliy va Boltiq dengizlari bilan chegaralanadi. Mamlakat janubi-g'arbining katta qismining Yura va Shvarsvald tog'lari, g'arbda — uncha katta bo'limgan — Eyfel va Gensryuk, mamlakat markazida— Taunus va Shpessart, sharqda esa — Fixtelgerberg tog'lari egallagan. Yirik da'yolari: Reyn, Dunay, Elba, Vezer va Oder hisoblanadi. Mamlakat iqlimi dengizlidan kontinentalga o'tadigan mo'tadildir.
<b>Tabiiy boyliklari</b>	Germanianing katta qismida tabiiy sharoit qishloq xo'jaligi uchun qulay.

	Mamlakat hududining 33 foiziga yaqini Shimoliy Germaniya pastligida, deyarli yarmi yer yuzasi tekis bo'lgan o'rta Germaniya quyi tog'laridadir. Tuproqlari, asosan, o'rtacha unumdar. Ammo ishlanaqidigan yerlarining tuproqlari doim o'g'itlanganidan tabiiy tuproqlariga qaraganda ancha unumli. Sanoatining rivojlanishiga imkon beruvchi tabiiy sharoit va resurslar ko'p jihatdan mamlakatda mavjud foydali qazilmalar tufaylidir. Boltiq bo'yli bilan bog'liq rudali foydali qazilmalar, gersin burmalanishi bilan bog'liq yoqilg'ili foydali qazilmalar shular jumiasidandir. Germaniya toshko'mir qazib chiqarishda Yevropa da oldingi o'rinnlarda, ko'mir zaxiralari bo'yicha jahonda 5 inchi, ko'mir ishlab chiqarish va undan foydalanish bo'yicha esa 4-o'rinda turadi.
<b>Pol birligi</b>	<b>Yevro</b> (2002-yilgacha nemis markasi amal qilgan)
<b>YIM, AQSH dollarida</b>	<b>2013-yilda: 3,634,822,579,319 [39]</b>
<b>Aholi jon boshiga, AQSH dollarida</b>	<b>2013-yilda: 38291,62 dollar</b>
<b>YIMdagi ulushi, % da</b>	<b>2013-yilda:</b> qishloq xo'jaligi – 0,8 %, qazib olish va qaytaishlash sanoati – 28,1 %, xizmat ko'rsatish – 71,1 %.
<b>Sanoat tarmog'i</b>	Germaniya sanoati yuqori darajada rivojlangan davlat hisoblanadi. Uning jahon sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 5 % ni tashkil etadi. Mashinasozlik – Germaniyaning xalqaro ixtisoslashuvida bosh tarmoq rolini o'ynaydi. Jami sanoat tarkibidagi hissasi 40 % ga, eksportdagি hissasi esa yarmidan ko'prog'iga to'g'ri keladi.

	<p>Mashinasozlik tarmog'ida 20 mingdan ortiq mahsulot turlari ishlab chiqariladi.</p> <p>Ko'ptarmoqli mashinasozlik kompleksiga quyidagi tarmoqlar kiradi: Elektrotexnika, energetik mashinasozlik, ishlab chiqarish boshqaruving avtomatlash tirligan tizimi, shuningdek, elektronika («Simens», «Bosh», «Mile» va boshqalar);</p> <p>Avtomobilsozlik bo'yicha mamlakat Yevropada birinchi, jahonda uchinchi o'rinni egallaydi. Unda «Folksvagen», «Daymler Kraysler», «Meresedes-bens», «BMW», «Opel» va boshqa kompaniyalar mavjud. Ushbu kompaniyalarning filiallari jahoning o'nlab mamlakatlarida qurilgan.</p> <p>Optika-mexanika sanoati. Tarmoq korxonalarini yuqori sifatli fototexnika, linzalar, binokllar va teleskoplar («Karl Seys» kompaniyasi) ishlab chiqaradi;</p> <p>Kemasozlik mamlakatning shimoliy qismida rivojlangan.</p> <p>Kimyo sanoati yuksak darajaga erishgan. Deyarli barcha federal yerlarda tarmoqni rivojlantirishga katta e'tibor berilgan. Germaniyaning yirik kimyo konsernlariiga «Bayer», «BASF», «Xenkel» va boshqalar kiradi.</p>
--	---

<b>Qishloq xo'jaligi</b>	<p>Tabiiy sharoit Germaniyada qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanish uchun borishga qulay hisoblanadi. Mamlakatning yarmini qishloq xo'jaligi hududlari tashkil qiladi. Yer xususiy mulk ko'rinishida, asosan, fermer xo'jaliklari sifatida ishlanadi. Mulkchilik shakli asta-sekin o'zgarib, qishloq xo'jaligi birlashmalari (kooperativlar) va aksionyerlik jamiyatlariga aylantirilmoqda. Qishloq xo'jaligi tarkibida yilqichilik ulushining ko'pligi yaqqol kuzatiladi. Qoramol, cho'chqachilik deyarli barcha hududlarda uchraydi. Boshqoli ekinlarda bug'doy 47 % ni tashkil etmoqda.</p>
--------------------------	--


<b>Transporti</b>	Germaniyada zich aloqa yo'llari mavjud. Germaniya temir yo'llarda yuk tashish hajmi jihatidan Fransiyadan keyin, biroq Buyuk Britaniyadan uch barobar, Italiyadan to'rt barobar oldinda turadi. Avtomobil transporti hozir yuk va yo'lovchilarni temir yo'lga qaraganda ko'proq tashimoqda. Daryo transporti xorijiy Yevropada Gollandiyadan boshqa birorta mamlakatda Germaniyadek katta ahamiyat kasb etmaydi. Mamlakat ichkarisidagi yukning 20 foizi daryo va kanallar tizimi orqali tashiladi. Quruqlikdagi yo'llar kesishgan joylarda eng muhim transport uzel (tugun)lari Gamburg, Myunxen, Leypsig va boshqa shaharlarda qad ko'targan.
<b>Xalqaro iqtisodiy aloqlari</b>	<b>Eksportda:</b> mashina va uskunalar, kimyo mahsulotlari, optika va oziq-ovqat yetkazib beradi. <b>Import:</b> neft va neft mahsulotlari, tabiiy gaz va xomashyo mahsulotlari olib kiriladi. Asosiy savdo hamkorlari: Yevropa Ittifoqi mamlakatlari, AQSH va Yaponiya
<b>Xalqaro tashkilot-larga a'zoligi</b>	EI, BMT, NATO, BST, BBT, XVF, JB, YXHT, YTB, OTB va boshqalar
<b>Internet domenti</b>	.de
<b>Telefon kodi</b>	+49
<b>Soat millari</b>	CET (UTC+1, UTC+2)

#### *Nazorat savollari*

1. *GFR qachon tashkil topgan, jahon xo'jaligida qanday o'r'in tutadi?*
2. *Tabiiy sharoiti va resurslarining xo'jaligi rivojlanishiga qay darajada ta'sir ko'rsatadi?*
3. *Aholisi tabiiy va mexanik o'sishining o'ziga xos xususiyatlari nimada?*
4. *Aholi va mehnat resurslari*

5. Asosiy sanoat tarmoqlari qanday joylashgan?
6. Qishloq xo'jaligi yuksak darajada rivojlanganligining sabablari nimada?
7. Transporti.
8. Tashqi iqtisodiy aloqalari.

### 6.3. Yaponianing iqtisodiy-geografik tavsisi

<b>Rasmiy nomlanishi</b>	<b>YAPONIYA</b> (yaponcha – Nippon, Nixon)
<b>Mustaqillik sanasi</b>	<b>III–IV asrda</b> vujudga kelgan
<b>Davlat bayrog'i</b>	1870-yil 27-fevralda tasdiqlangan
	
<b>Davlat Gerbi</b>	1969-yilda tasdiqlangan
	
<b>Davlat tili</b>	yapon tili
<b>Poytaxti</b>	<b>Tokio</b>
	
<b>Yirik shaharlari</b>	Tokio, Iokogama, Osaka, Sapporo, Kioto, Kobe
<b>Boshqaruv shakli</b>	Konstitusion monarxiya
<b>Davlat tuzumi</b>	Federativ davlat

<b>Parlamenti</b>	<b>Ikki palatali:</b> Yuqori palata – Maslahatchilar palatasi (242 o'rin), Quyi palata – Vakillik Palatasi (480 o'rin)
<b>Imperator</b>	<b>Akixito</b> (1933-yil 23-dekabda Tokio shahrida tug'ilgan)
<b>Hukumat Raisi (Bosh vazir)</b>	<b>Sindzo Abe</b>
<b>Aholi soni, kishi</b>	127, 1 mln
<b>Aholisining o'rtacha zichligi, 1 km<sup>2</sup> ga/kishi</b>	336,3
<b>Aholisining tarkibi, %</b>	Aholining taxminan 98 % yaponlar, shuningdek, tub aholi hisoblangan ryukyular, ayinlar, burakuminlar va boshqa millatlar kamchilikni tashkil etadi.
<b>Dini</b>	<b>Dunyoviy davlat.</b> Diniy e'tiqod bo'yicha sintoizm, buddizm va xristian dinlari tarqalgan.
<b>Dunyo xaritasida</b>	
<b>Maydoni, ming km<sup>2</sup></b>	377, 9
<b>Suvli maydon, % da</b>	0,8
<b>Chegaradosh davlatlar</b>	<b>Yaponiya orollardan iborat bo'lgani uchun bevosita chegaradosh davlat yo'q..</b> Dengiz orqali Koreya Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi va Xitoy Xalq Respublikasi bilan chegaradosh.

<b>Ma'muriy hududiy bo'linishi tarkibi</b>	46 ta prefektura va 1 ta gubernatorlik.
<b>Ma'muriy hududiy bo'linish tuzilishi</b>	<b>Prefekturalar:</b> Aytı, Akita, Aomori, Vakayama, Gifu, Gumma, Ibaraki, Ivate, Isikava, Kagava, Kagosima, Kanagawa, Kioto, Koti, Kumamoto, Mie, Miyagi, Miyadzaki, Nagano, Nagasaki, Nara, Niigata, Oita, Okayama, Okinava, Osaka, Saga, Saytama, Siga, Sidzuoka, Simane, Tiba, Tokio, Tokusima, Totigi, Tottori, Toyama, Fukui, Fukuoka, Fukusima, Xyogo, Xirosima, Exime, Yamagata, Yamaguti, Yamanasi. Xokkaydo gubernatorligi.
<b>Geografik joylashuvi</b>	Yaponiya – Sharqiy Osiyodagi davlat bo'lib, Tinch okeanning g'arbiy qismidagi orollarda joylashgan. Eng yirik orollari: Xonsyu, Xokkaydo, Sikoku va Kyusyu. Shuningdek, 4000 dan ortiq mayda orolchalardan tashkil topgan Ryukyu orolidir. Mamlakat shimolidagi qirg'oqlarini – Oxotsk dengizi, sharqda – Tinch okeani, janubda – Tinch okeani va Janubiy Xitoy dengizi, g'arbda esa Koreys bo'g'ozi va Yapon dengizi suvlari yuvib turadi. Relef ko'p hollarda tog'lidir. Mamlakatda yer silkinishi juda ko'p bo'lib turadi. Harakatdagi va so'ngan vulqonlar soni ham ko'p, shu jumladan – eng yuqori nuqta Fudziyama vulqoni (Xonsyu orolida 3776 m. balandlikda joylashgan). Xonsyu orolining eng uzun daryosi – Sinao daryosidir. Mayda ko'llar ko'p. Yaponiyadagi eng katta ko'l Biva (maydoni 716 km <sup>2</sup> ). Mamlakat hududining 2/3 qismi o'rmonlar va o'simliklardan iborat.

<b>Tabiiy boyliklari</b>	Yaponiya hududi kuchli seysmik zonada joylashgan (1855, 1891, 1897 va 1923-yillarda falokatli zilzilalar bo'lgan). Yaponiyadagi 150 ta vulqondan 40 tachasi so'nmag'an. Vulqonli rayonlarda mineral va termal buloqlar ko'p. Foydali qazilmalardan ko'mir, temir rudasi, oltingugurt, marganes, qo'rg'oshin, rux, mis rudalari, neft, xromit, oltin, kumush va simob konlari bor. Yaponiyaning yoqilg'i xomashyo bazasi juda cheklangan. Ko'mir zaxiralari mamlakat ehtiyojining yarmiga yaqinini ta'minlaydi, kokslanuvchi sifatlari ko'mir juda oz. Yaponiya bir yilda qazib oladigan neftni AQSH yarim kunda qazib chiqaradi, temir va marganes rudalari kam, boksit va ko'pgina boshqa mineral xomashyolar butunlay yo'q.
<b>Pul birligi</b>	<b>yapon yenasi</b>
<b>YIM, AQSH dollarida</b>	<b>2014-yilda:</b> 4,601 trln [39]
<b>Aholi jon boshiga, AQSH dollarida</b>	<b>2014-yilda:</b> 36156 [39]
<b>YIMdagi ulushi, % da</b>	<b>2013-yilda:</b> qishloq xo'jaligi, o'rmon va baliqchilik ulushi – 1,2 %, sanoat – 25,8 %, xizmat ko'rsatish – 71,4 %ni tashkil etadi.
<b>Sanoat tarmoqlari</b>	Yaponiya og'ir sanoatining yetakchi tarmog'i mashinasozlikdir. Transport mashinasozligi, stanoksozlik, elektrotexnika buyumlari, elektron mashinalar, tibbiyot apparaturalari hamda to'qimachilik va oziq-ovqat sanoatlari uchun jihozlar ishlab chiqarish keng rivojlangan.

Avtomobil ishlab chiqarish bo'yicha «Toyota Motor», «Nissan Motor», «Xonda Motor», «Misubisi Motor», «Mazda Motor» va «Suzuki Motor» kabi yirik kompaniyalar mavjud. Yaponiya kemasozligi juda xiłma-xil: Iokogama, Osaka, Kobe, Nagasaki va boshqa ko'p mo'l-jallangan kemasozlik korxonalarida dunyoda eng yirik supertankyerlar, yuk tashish uchun belgilangan kichik kemalar ishlab chiqariladi. Yaponiya jahon elektronika sanoatining 1/5 qismini nazorat qiladi. Kompyuter, optik tola, yarim o'tkazgichlar va integral sxemalarni ishlab chiqarish bo'yicha AQSHdan keyingi o'rinni egallaydi. So'ngi paytlarda Yaponiya iqtisodiyoti pasayish tendensiyasiga ega. Buning asosiy sababi – Xitoy, Janubiy Koreya va boshqa raqobatchi davlatlar tomonidan Yaponianing jahon bozoridagi ulushini qisqartirishga qaratilgan harakatlaridir.

### **Qishloq xo'jaligi**

Iqtisodiyotda qishloq xo'jaligining pasayish tendensiyasi kuzatilmoque. Bunga qishloq xo'jaligi yerlarining cheklanganligi (1,4 ga), mahsulotlar tannarxining yuqoriligi, mehnat unumdorligining rivojlangan davlatlarga qaraganda pastligini asosiy sabab tarzida keltirish mumkin. Yaponiya qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan o'z ehtiyojining 40 %ini ta'minlaydi. Shunga qaramasdan, sholi, sabzavot va tuxum bo'yicha o'z ehtiyojini to'liq qondiradi. Yaponlarning ratsionida baliq va dengiz mahsulotlari katta ko'rsatkichni tashkil etadi. Aholi jon boshiga baliq iste'moli bo'yicha Islandiyadan keyingi o'rinni egallab, jahondabaliq tutish bo'yicha esa faqat Xitoydan keyingi o'rinda turadi.

<b>Transporti</b>	Yaponiya dunyoda eng rivojlangan transport tizimiga ega bo'lgan davlatlardan biri hisoblanadi. Transport tizimida quvurlar va daryo transporti turlarining yo'qlig'i ko'zga tashlanadi. Eng muhim transport – avtomobil bo'lib, uning yuk tashishdagi hissasi 55 %ni, yo'lovchi tashishdagi hissasi esa, 67 %ni tashkil etadi. Dengiz transporti mamlakatning tashqi savdosida yetakchilik qiladi. Temir yo'l transporti yuksak darajada rivojlangan. Tezyurar «Shinkansen», «Xikari» poyezdlari dunyoga mashhur. Aviatransport ham yuqori darajada taraqqiy etgan tarmoq. Mamlakatning bosh «havo darvozasi» Tokio xalqaro aeroperti – Xaneda – dunyoda eng qimmat aeroport sifatida e'tirof etilgan.
<b>Xalqaro iqtisodiy aloqalar</b>	Eksport uchun: avtomobil, temir va po'lat, elektronika va radioelektronika tovarlari, mashina va uskunalar, foto va videokameralar yetkazib beradi. Xomashyo va yoqilg'i, neft va mashinasozlik tovarlari, temir, mis, sink, marganes rudalari, boksit, yog'och, paxta, jun, ko'mir va oziq-ovqat mahsulotlari import qilinadi. Savdo hamkorlari: AQSH, Yevropa ittifoqi, Xitoy, Koreya Respublikasi, Tayvan, Indoneziya va Saudiya Arabistonи.
<b>Xalqaro tashkilot-larga a'zoligi</b>	BMT, OTB, BST, ETTB, ATES, «Katta yigirmalik», «Katta sakkizlik», Avstraliya guruhi va boshqalar
<b>Internet domenti</b>	.jp
<b>Telefon kodi</b>	+81
<b>Soat millari</b>	JST (UTC+9)


### *Nazorat savollari*

1. Yaponiyaning geografik o'rniga baho bering.
2. Qanday tabiiy resurslarga boy?
3. Davlat tuzumi qanday?
4. Aholisining o'sish va joylashish xususiyatlarini tushuntirib bering.
5. Mehnat resurslari hamda ulardan foydalanish muammolari.
6. Yaponiya jahonda qanday o'r'in tutadi?
7. Sanoatining yetakchi tarmoqlari geografiyasi qanday?
8. Asosiy qishloq xo'jaligi tarmoqlari geografiyasi.
9. Transport tarmoqlarining rivojlanish va joylashish xususiyatlari qanday?
10. Tashqi iqtisodiy aloqalarining rivojlanish xususiyatlarini tavsiflang.

### **6.4. Xitoyning iqtisodiy-geografik tavsifi**

<b>Rasmiy nomlanishi</b>	<b>XITOY XALQ RESPUBLIKASI</b>
<b>Mustaqillik sanasi</b>	<b>1949-yil 1-oktyabr</b>
<b>Davlat bayrog'i</b>	1949-yil 1-oktyabrdan tasdiqlangan 
<b>Davlat Gerbi</b>	1950-yil 20-sentyabrdan tasdiqlangan 

<b>Davlat tili</b>	xitoy tili, Makaoda esa – portugaliya va xitoy tillari. Gonkongda – xitoy va ingliz
<b>Poytaxti</b>	<b>Pekin</b> 
<b>Yirik shaharlari</b>	Chunsin, Shanxay, Pekin, Tyanszin, Guanchjou
<b>Boshqaruv shakli</b>	Sotsialistik respublika
<b>Davlat tuzumi</b>	Unitar davlat
<b>Parlamenti</b>	<b>Bir palatali:</b> Butunxitoy xalq vakillarining yig'ilishi (2979 deputat)
<b>Rais</b>	<b>Si Szinpin</b>
<b>Hukumat Raisi (Bosh vazir)</b>	<b>Li Kesyan</b>
<b>Aholi soni, kishi</b>	<b>2014-yilda:</b> 1 366,5 mln
<b>Aholisining o'rtacha zinchligi, 1 km<sup>2</sup> ga/kishi</b>	139,6
<b>Aholisining tarkibi, %</b>	Aholining etnik tarkibi – xitoyliklar (xan) – 93 %, chjuanlar, uyg'urlar, mo'g'ullar, tibetliklar. Xuey, myao va h.k. (turli til va irq guruhlariga mansub 50 ga yaqin xalq)dan iborat

<b>Dini</b>	<b>Dunyoviy davlat.</b> Shu jumladan, diniy e'tiqodiga ko'ra: sintoizm, buddizm va xristian dinlari tarqalgan.
<b>Dunyo xaritasida</b>	
<b>Maydoni, ming kv km</b>	9 596,9
<b>Suvli maydon, % da</b>	3,8
<b>Chegaraning umumiyligi, km</b>	Quruqlikda – 22 ming km <sup>2</sup> dan, qirg'oq bo'yicha 18 ming km dan ziyod.
<b>Chegaradosh davlatlar</b>	13 ta. Rossiya (40 km shimoli-g'arbda va 3605 km shimoli-sharqda), Mongoliya (4677 km), Shimoliy Koreya (1416 km), Vietnam (1281 km), Laos (423 km), Myanma (2185km), Hindiston (3903km), Butan (470 km), Nepal (1236km), Afg'oniston (76km), Tojikiston (414 km), Qirg'iziston (858 km) va Qozog'iston (1533 km).
<b>Ma'muriy hududiy bo'linishi tarkibi</b>	<b>22 ta provinsiya, 5 ta avtonom rayon, 4 ta munitsipal shahar va 2 ta maxsus ma'muriy rayon</b>
<b>Ma'muriy hududiy bo'linish tuzilishii</b>	<b>Provinsiyalar:</b> Anxoy, Fuszyan, Gansu, Guandun, Guychjou, Xaynan, Xebey, Xeylunszyan, Xenan, Xubey, Xunan, Szyansu, Szyansi, Girin, Lyaponin, Sinxay, Shansi,

	<p>Shandun, Shensi, Sichuan, Yunnan, Chjeszyan, Tayvan (23-provinsiya, status to‘liq belgilanmagan).</p> <p><b>Avtonom rayonlar:</b> Guansi-Chjuan avtonom rayoni, Ichki Mongoliya, Ninsya-Xuey, Sinszyan-Uyg‘ur, Tibet.</p> <p><b>Munitsipal shaharlar:</b> Pekin, Chunsin, Shanxay, Tyanszin.</p> <p><b>Maxsus ma’muriy rayonlar:</b> Gonkong (Syangan), Makao (Aomin)</p>
<b>Geografik joylashuvi</b>	<p>XXR – hududining asosiy qismi Sharqiy Osiyoda, g’arbiy qismi esa, Markaziy Osiyoda joylashgan. Janubi g’arbda – Tibet tog‘lari, janubda Himolay va Qoraqurum, shimolda va sharqda Kunlun, Nanshan va Sino Tibet tog‘lari bilan o‘ralgan. Xitoy iqlimi keskin farqlanadi shimol sovuq, janubi subtropik va tropik hududlarga to‘g‘ri keladi. Asosiy daryolari – Yanszi, Xuanxe, Siszyan. Ko‘zga ko‘ringan ko‘llari – Kukunor, Duntinxu, Poyanxu. Mamlakatning sharqiy qismi asosan adirlardir. Tog‘larda o‘rmonlar saqianib qolgan. Mamlakatning g’arbi va shimoli-g’arbida cho‘llar (Takla Makan, Gobi va h.k.), yarim cho‘llar va dashtlar mavjud.</p>
<b>Tabiiy boyliklari</b>	<p>Xitoy foydali qazilma boyliklarning, deyarli, barchasiga ega. Ko‘mirning turlari hamma hududlarda uchraydi. Dunyoda o‘nta yirik ko‘mir konlaridan ikkitasi Datun va Kayluan Xitoya joylashgan. Katta hajmdagi temir va marganes mamlakatning qora metallga bo‘lgan ehtiyojini to‘liq qondiradi. Janubiy rayonlarda ko‘plab rangli metallrudalari topilgan. Volfram, pyx, qalay, titan, litiy zaxiralari bo‘yicha Xitoy birinchi o‘rinni, mis bo‘yicha</p>

	uchinchi o'rinni, boshqa qazilma boyliklar, jumladan, uran, oltingugurt va kaolin bo'yicha ham yetakchi o'rinni egallaydi. Mamlakat katta neft zaxiralariiga ega bo'lishga qararnay, uning ushbu yoqilg'i turiga bo'lgan ehtiyoji qisman import hisobidan qondiriladi. Tabiiy gaz zaxiralari deyarli yo'q.
<b>Pul birligi</b>	<b>Xitoy yuani</b>
<b>YIM, AQSH dollar</b>	<b>2013-yilda:</b> 7,318 trln [39]
<b>Aholi jon boshiga, AQSH dollarida</b>	<b>2013-yilda:</b> 6569 [39]
<b>YIMdagi ulushi, % da</b>	<b>2013-yilda:</b> sanoat -- 46,6 %, qishloq xo'jaligi -- 9,7 % va xizmat ko'rsatish -- 43,7 %
<b>Sanoat tarmoqlari</b>	Xitoyda qazib chiqarish sanoatining yuqori darajada rivojlanishini uning boy tabiiy resurslari ta'minlaydi. Dunyoda ko'mir qazib chiqarish hajmi bo'yicha birinchi o'rinni, neft qazib olish hajmi bo'yicha yettinchi o'rinni egallaydi. Elektr energiyasi ishlab chiqarish bo'yicha Xitoy faqat AQSHdan keyingi o'rindaturadi. Elektr stansiyalarining asosiy turi issiqlik elektr stansiyalari bo'lib, ular ko'mirda ishlaydi. Lekin GESlar ahamiyati ham tobora ortib bormoqda. Yirik «Gechjouba» GESi 2700 MVt quvvatga ega. Xitoy cho'yan va po'lat quyish bo'yicha dunyoda bitinchi o'rinni egallaydi. Mashinasozlik katta sur'atlarda rivojlanmoqda. Iqtisodiy islohotlar natijasida elektronika, stanoksozlik va kemasozlik bosh tarmoqlarga aylanib bormoqda.

	Hozirda Xitoy televizor, tikuv mashinalar va velosipedlar ishlab chiqarish bo'yicha ham dunyoda birinchi o'rinni egallab kelayotir. Elektronika va elekrotexnika uskunalarini ishlab chiqaruvchi korxonalar, asosan, dengiz bo'yi viloyatlari va erkin iqtisodiy hududlarda joylashtirilgan. Xitoy mineral o'g'itlar, ip-gazlamalar, kiyimlar, poyafzal va bolalar o'yinchoqlarini ishlab chiqarishda dunyoda birinchi o'rinni, kimyoiy tola ishlab chiqarishda – ikkinchi, plastmassa bo'yicha oltinchi o'rinni egallaydi.
<b>Qishloq xo'jaligi</b>	Xitoy qishloq xo'jaligida o'simlikchilik yetakchi tarmoq hisoblanadi. Mamlakat shimalida bug'doy, makkajo'xori ko'plab ekiladi. O'sha yerlarda jahoning yirik tamakichilikka ixtisoslashgan hududi mavjud. Janubda va janubi-sharqda sholi yetishtirish avj olgan. Texnik ekinlardan shakarqamish va choy ekilishi keng tarqalgan. Xitoy dunyoda jami sholi, bug'doy, kartoshka, sabzavot, tamaki, soya, shuningdek cho'chqa, qo'y go'shti yetishtirish bo'yicha birinchi o'rinni egallaydi.
<b>Transporti</b>	Transport tizimida temiryo'l yetakchilik qiladi. Temiryo'l tarmog'ining uzunligi bo'yicha jahonda uchinchi o'rinni egallaydi. Tashqi savdoda dengiz transporti katta ahamiyatga ega. Daryo transportida yuk tashish hajmi bo'yicha faqat AQSHdan keyingi o'rinda turadi.
<b>Xalqaro iqtisodiy aloqalar</b>	Xitoy so'nggi yillarda muhim moliyaviy markazga aylanmoqda. Oltin-valyuta zaxirasi bo'yicha dunyoda ikkinchi o'rinni egallayotir. Xitoy tashqi savdo aylanmasining yillik o'sish surʼti 10–15 %ni tashkil etayotir.

	<p>Tashqi savdoda doimiy profitsit amal qilmoqda.</p> <p><b>Eksportning</b> asosiy tarkibi yengil sanoat (gazlama, kiyim, poyafzal) va mashinasozlik (maishiy texnika, o'yinchoqlar va h.k.)dan iborat. Xomashyo va yarim fabrikatlar ulushi 15 % dan oshmaydi.</p> <p>Xitoy <b>importining</b> asosini mashina va qurilmalar, xomashyo va yarim fabrikatlar tashkil etadi.</p> <p>Xitoy eksportida AQSHning hissasi 25 %ni, importida esa 10 %ni tashkil etadi.</p> <p>Yaponianing bu boradagi tegishinchcha 17 va 18% ni tashkil etadi. Boshqa savdo hamkorlariga Janubiy Koreya, Tayvan va Yevropa Ittifoqi mamlakatlari kiradi.</p>
<b>Xalqaro tashkilotlarga a'zoligi</b>	BMT, uning Xavfsizlik kengashi doimiy a'zosi, SHHT, BST, XVF, JB, OTB va boshqalar.
<b>Internet domeni</b>	.cn
<b>Telefon kodi</b>	+86
<b>Soat millari</b>	+8

### *Nazorat savollari*

1. XXR qachon tashkil topgan, jahon xo'jaligida qanday o'rin tutadi?
2. Tabiiy sharoiti va resurslari mamlakat iqtisodi rivojlanishiga qay darajada ta'sir ko'rsatadi?
3. Aholisi tabiiy va mexanik o'sishining o'ziga xos xususiyatlari nimada?
4. Aholi va mehnat resurslari
5. Asosiy sanoat tarmoqlari qanday joylashgan?
6. Qishloq xo'jaligi yuksak darajada rivojlanganligining sabablari nimada?
7. Transporti.
8. Tashqi iqtisodiy aloqalari.

**Seminar mashg'ulotlari uchun savollar:**

**1-mashg'ulot:**

AQSHning iqtisodiy-geografik tavsifi. Geografik joylashuvi. Davlat tuzumi. Xo'jaligining umumiy tavsifi. Ichki tafovutlari. Tashqi iqtisodiy aloqalari.

Germaniyaning iqtisodiy-geografik tavsifi. Geografik joylashuvi. Davlat tuzumi. Xo'jaligining umumiy tavsifi. Ichki tafovutlari. Tashqi iqtisodiy aloqalari.

**2-mashg'ulot:**

Yaponiyaning iqtisodiy-geografik tavsifi. Rivojlanish xususiyatlari. Geografik joylashuvi. Davlat tuzumi. Xo'jaligining umumiy tavsifi. Ichki tafovutlari. Tashqi iqtisodiy aloqalari.

Xitoyning iqtisodiy-geografik tavsifi. Geografik joylashuvi. Davlat tuzumi. Xo'jaligining umumiy tavsifi. Ichki tafovutlari. Tashqi iqtisodiy aloqalari.

## **7-BOB. MUSTAQIL DAVLATLAR HAMDO'STLIGI**

<b>Reja:</b>	<b>7.1. MDHning tashkil etilishi va maqsadi.</b> <b>7.2. MDHning Yevropa qismidagi (Rossiya, Ukraina, Belorussiya va Moldaviya) davlatlari iqtisodiy-geografik tavsifi.</b> <b>7.3. MDHning Kavkazorti (Armaniston, Gruziya va Ozarbayjon) davlatlari iqtisodiy-geografik tavsifi.</b> <b>7.4. MDHning Markaziy Osiyo (Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston) davlatlari iqtisodiy-geografik tavsifi.</b>
<b>Tayanch iboralar:</b>	MDH davlatlari, mustaqillik ramzları, davlat tuzilması, geografik joylashuvi, tabiiy resursları, iqtisodiy-geografik o'rni, iqtisodiyoti tarkibi, transporti va tashqi iqtisodiy aloqalari.

### **7.1. MDHning tashkil etilishi va maqsadi**


<b>Racmiy nomlanishi</b>	<b>MUSTAQIL DAVLATLAR HAMDO'STLIGI</b>
<b>Tashkil etilgan sanasi</b>	<b>1991-yil 8-dekabr</b>
<b>Tashkilot bayrog'i</b>	1996-yil 19-yanvarda tasdiqlangan



<b>Tashkilot gerbi</b>	1996-yil 18-yanvarda tasdiqlangan	
<b>Shtab-kvartirasi (Qarorgobi)</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>Belorussiya, Minsk, Kirov ko'chasi, 17-uy;</li> <li>Rossiya, Moskva, Varvarka ko'chasi, 7-uy;</li> <li>Rossiya, Sankt-Peterburg, Shpalernaya ko'chasi, 47-uy, Tavriya saroyi [35].</li> </ul>	
<b>A'zo davlatlar</b>	Hozirgi paytda MDH davlatlariga 11 ta sobiq Ittifoq davlatlari kiradi (Boltiq bo'yи respublikalaridan tashqari): Rossiya Federatsiyasi, Belorussiya, Ukraina, Moldova, Gruziya (1993–2009-y. tashkilot tarkibida bo'lgan), Armaniston, Ozarbayon, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston va O'zbekiston.	
<b>Ishchi tili</b>	Rus tili	
<b>Dunyo xaritasida</b>		
<b>Maydoni, ming km<sup>2</sup></b>	<b>22,1 mln km<sup>2</sup></b>	
<b>Aholi soni, kishi</b>	<b>2013-yilda: 282,2 mln MDH mamlakatlarining aholisi soni 21-ilovada berilgan.</b>	

<b>Aholisining o'rtacha zichligi, 1 km<sup>2</sup> ga/kishi</b>	<b>2013-yilda: 13 kishi</b>
<b>Rasmiy sayti</b>	<b><a href="http://www.cis.minsk.by">www.cis.minsk.by</a></b>
<b>Tashkil etishdan maqsad</b>	Rossiya, Ukraina, Belorussiya respublikalari taklifi bilan 1991-yilda MDH vujudga keldi. MDHning asosiy maqsadi yagona iqtisodiy makonni yaratish, o'zaro manfaatli aloqalarni o'rnatish, strategik mudofaani hamkorlikda boshqarish va yagona transport tizimini barpo etishdan iborat edi.
<b>Rivojlanishi- ning asosiy xususiyatlari</b>	Har bir mustaqil davlat bozor iqtisodiyoti munosabatlari har xil «start» darajasiga ega bo'lgan holda, iqtisodiyotida o'ziga xos tarmoqlar tarkibining shakllanganligi, asosiy ishlab chiqarish fondlariga egaligi, demografik xususiyatlari va boshqa jihatlari bilan kirib keldi. Albatta, siyosiy va iqtisodiy jihatdan to'la erkinlik, iqtisodiyotning yangi munosabatlarga o'tishi, an'anaviy yagona integratsiyaning barbod bo'lishi, har bir davlatda o'z milliy valyutasining kiritilishi, o'z navbatida, har bir mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy hayotiga ta'sir ko'rsatmasdan qolmadidi.
<b>Nazorat savollari</b>	
<ol style="list-style-type: none"> <li>1. MDH vujudga kelishi sabablari, mazmuni va mohiyatini ochib bering.</li> <li>2. MDHga a'zo mamlakatlarning qisqacha tavsifini bering.</li> <li>3. MDH mamlakatlarining iqtisodiy geografik o'rniiga oid o'ziga xos xususiyatlarni ta'riflab bering.</li> </ol>	

**7.2. MDHning Yevropa qismidagi  
(Rossiya, Ukraina, Belorussiya va Moldaviya)  
mamlakatlari iqtisodiy-geografik tavsisi**

<b>ROSSIYA</b>	
<b>Rasmiy nomlanishi</b>	<b>ROSSIYA FEDERATSIYASI</b>
<b>Mustaqil-lik sanasi</b>	<b>1990-yil 12-iyun</b>
<b>Davlat bayrog'i</b>	1993-yil 11-dekabrda tasdiqlangan
	
<b>Davlat Gerbi</b>	1993-yil 30-noyabrda tasdiqlangan
	
<b>Davlat tili</b>	<b>Rus tili</b>
<b>Poytaxti</b>	<b>Moskva</b>
	

<b>Yirik shaharlari</b>	Moskva, Sankt-Peterburg, Novosibirsk, Yekaterinburg, Nijniy-Novgorod va boshqalar
<b>Boshqaruv shakli</b>	Prezidentlik-Parlamentlik Respublikasi
<b>Davlat tizimi</b>	Federativ davlat
<b>Parlamenti</b>	<b>Ikki palatali:</b> Yuqori palata – Federatsiya Kengashi (178), Quyi palata – Davlat Dumasi (450)
<b>Prezidenti</b>	<b>Vladimir Vladimirovich Putin</b>
<b>Hukumat Raisi (Bosh vazir)</b>	<b>Dmitriy Anatoliyevich Medvedev</b>
<b>Aholi soni, kishi</b>	<b>143666,9 ming (2013)</b>
<b>Aholisining o‘rtacha zichligi, 1 km<sup>2</sup> ga/kishi</b>	<b>11,9 (2013)</b>
<b>Aholisining tarkibi, %</b>	ruslar – 80,9, tatarlar – 3,9, boshqirlar – 1,2, ukrainlar 1,4, chuvashlar – 1,0, chechenlar – 1,0, armanlar – 0,9, avarlar – 0,7, mordvalar – 0,5, qozoqlar – 0,5, ozarbayjonlar – 0,4, darginlar – 0,4, udmurtlar – 0,4, mariylar – 0,4, osetinlar – 0,4, beloruslar – 0,4, kabardinlar – 0,4, qumiqlar – 0,4, yakutlar – 0,4, lezginlar – 0,3, buryatlar – 0,3, ingushlar – 0,3, boshqalar – 3,5.
<b>Dini</b>	<b>Dunyoviy davlat.</b> Shu jumladan, dinga e’tiqodi: xristianlik – aksariyat pravoslav, islom, buddizm, yahudiylilik dinlariga e’tiqod qilinadi.

<b>Dunyo xaritasida</b>	
<b>Maydoni, ming km<sup>2</sup></b>	17124,4
<b>Suvli may- don, % da</b>	4,23
<b>Chegaraning umumiyligi uzunligi, km</b>	60900
<b>Chegaradosh davlatlar</b>	<b>18 ta</b> (Norvegiya – 195,8, Finlyandiya – 1340, Estoniya – 294, Latviya – 217, Litva – 280,5, Polsha – 232, Belorussiya – 959, Ukraina – 1974,04 (dengiz bo'yicha – 321 km), Abxaziya – 255,4, Gruziya – 365, Janubiy Osetiya – 70, Ozarbayjon – 390,3, Qozog'iston – 7 512,8, Xitoy – 4209,3, Mongoliya – 3485, Shimoliy Koreya (KXDR) – 39, dengiz bo'ylab Yaponiya va AQSH).
<b>Ma'muriy hududiy bo'linishi tarkibi</b>	<b>85 ta subyekt</b> (respublikalar – 22, o'lkalar – 9, viloyatlar – 46, federal ahamiyatga ega shaharlar – 3, avtonom oblast – 1, avtonom okrug – 4).
<b>Ma'muriy hududiy bo'linish tuzilishii</b>	<b>Respublikalar:</b> Adigeya, Oltoy, Boshqirdiston, Buryatiya, Dog'iston, Ingushetiya, Kabardino-Balkariya, Kalmikiya, Karachayevo-Cherkesiya, Kareliya, Komi, Qirim, Mariy El, Mordoviya, Saxa (Yakutiya), Shimoliy Osetiya,

Tatariston, Tuva, Udmurtiya, Xakasiya,  
Checheniston, Chuvashiya,

**O'lkalar:** Oltoy, Zabaykale, Kamchatka,  
Krasnodar, Krasnoyar, Perm, Primor,  
Stavropol, Xabarovsk,

**Oblastlar:** Amur, Arxangelsk, Astraxan,  
Belgorod, Bryansk, Vladimirsk, Volgograd,  
Vologod, Voronej, Ivanov, Irkutsk, Kaliningrad,  
Kaluga, Kemerov, Kirov, Kostroma, Kurgan,  
Kursk, Leningrad, Lipesk, Magadan, Moskva,  
Murmansk, Nijegorod, Novgorod, Novosibirsk,  
Omsk, Orenburg, Orlov, Penza, Pskov, Rostov,  
Ryazan, Samara, Saratov, Satalin, Sverdlov,  
Smolensk, Tambov, Tver, Tomsk, Tula,  
Tyumen, Ulyanov, Chelyabinsk, Yaroslav,

**Federal ahamiyatga ega shaharlar:** Moskva,  
Sankt-Peterburg, Sevastopol,

**Avtonom viloyat:** Yahudiy muxtor viloyati,

**Avtonomnie okruglar:** Nenes, Xanti-Mansiy –  
Yugra, Chukotka, Yamal-Nenes.

### Geografik joylashuvi


Rossiya Yevroosiyo materigining shimolida  
joylashgan. Tinch va Shimoliy muz okeanlari,  
shuningdek Boltiq, Qora, Azov va Kaspiy  
dengizlari bilan o'ralgan. Dunyoda eng uzun  
sohilga ega (37 653 km). Rossiyani Yevropa va  
Osiyo qismlariga bo'lувchi Ural tog'lari, Kum-  
Manich botig'i (vpadina) tashkil etadi.  
Rossiyaning yuqori nuqtasi Kavkazdag'i Elbrus  
tog'idi (5642 m). Yirik daryolari (ming km):  
Lena – 4400, Ob – 3,7, Yenisey – 3,5, Volga –  
3,5, Amur – 2,8 va boshqalar. Ko'llardan:  
Baykal, Ladoga, Onega, Taymir va boshqalar.

<b>Tabiiy boyliklari</b>	Rossiyada 20 mingdan ortiq foydali qazilmalar aniqlangan, jahon zaxirasida RFning ulushi: neft – 10–12 %, gaz – 32 %, ko'mir – 11 %, temir – 25 %, nikel – 33%; qo'rg'oshin – 10 %, rux – 15 %, kaly tuzi – 31 %. 2001-yilda RFning jami mineral zaxiralari qiymati 28 000 mlrd AQSH doll.ga baholangan bo'lib, ulardan gaz ulushi 32,2 %; ko'mir va slanets – 23,3 %, neft – 15,7 %; rudasiz foydali qazilmalar – 14,7 % ga to'g'ri kelgan. Zaxiralarning ekspluatatsiyadagi ulushi past bo'lganlari: boksitlar – 32,6 %; nefelin rudalar – 55,4 %; mis – 49 %; rux – 16,6 % ; qalay – 42,1 %; molibden – 31,5 %; qo'rg'oshin – 8,8 %; titan – 1,3 %; simob – 5,9 %ni tashkil etadi.
<b>Pul birligi</b>	<b>Rossiya rubli</b>
<b>YIM, mlrd AQSH dollarida</b>	<b>2014-yilda: 1869,2 (70976 mlrd rubl) [35]</b>
<b>Aholi jon boshiga, AQSH dollarida</b>	<b>2014-yilda: 13011,1 (2013-yil – 14818) [39]</b>
<b>YIMdagi ulushi, % da</b>	<b>2013-yilda:</b> qishloq va o'rmon xo'jaligi – 3,8 %, foydali qazilmalarni qazib chiqarish – 10,9 %, Qayta ishlash sanoati – 14,9 %, elektroenergiya, gaz, suv va boshqa kommunal xizmatlar – 3,4 %, qurilish – 6,5 %, savdo – 18,3 %, transport va aloqa – 8,6 %, moliya va xizmatlar – 17,1 %, davlat boshqaruvi, ta'lif, sog'liqni saqlash, mudosaa va xavfsizlik – 13,5 %
<b>Sanoat tarmog'i</b>	Rossiya – rivojlangan idustrial-agrar mamlakat hisoblanadi.

	Rossiya iqtisodiyotida og'ir sanoat, ayniqsa, mashinasozlik, metallurgiya, kimyo sanoati va energetika katta ahamiyatga ega. Qayta ishlash, harbiy – sanoat kompleksi, kemasozlik, avtomobilsozlik, aviakosmik, mikroelektronika, neftni qayta ishlash, oziq-oqat sanoati, qishloq xo'jaligi mashinasozligi, temiryo'l, yengil sanoat rivojlangan. Rossiyaning to'qimachilik sanoati asosan, mamlakatning Yevropa qismida joylashgan.
<b>Qishloq xo'jaligi</b>	Boshqoli don ekinlari, bog'dorchilik, uzumchilik, chovachilik sut-go'sht chovachiligi, sabzavot-chilik, parrandachilik bilan shug'ullaniladi. Chekka Shimolda – bug'ular boqiladi. Janubiy qismlarda – uzumchilik va bog'dorchilik rivoj-langan. Bاليقنى sanoat uchun ovlash yo'lga qo'-yilgan. Umumiy hududda qishloq xo'jaligi yerlari – 22,6 %, o'rmon – 65,6, suv fondi – 1,6 va boshqalar – 10,2 % ni tashkil etadi.
<b>Transporti</b>	Rossiya Federatsiyasida barcha – suv, avtomobil, quvur, temiryo'l va havo transporti turlari rivojlangan. Bu transport turlari bir-biri bilan tutashib, transport tizimini vujudga keltiradi. Yuk va yo'lovchi aylanmasi bo'yicha Rossiyada temiryo'l transporti birinchi o'rinda turadi. Jahonda AQSHdan keyin 2-o'rinda turuvchi temiryo'l uzunligi 87 ming km ga, yuk aylanmasi 196,7 mlrd tn/kmga, yo'lovchi aylanmasi 253,2 mlrd pas./km gatengdir (2005-yilgi ma'lumotlar). Yuk tashishda temiryo'l (41%) va quvurlar (55%) yetakchilik qiladi. Quvurlar magistralkarning umumiy uzunligi 213 km bo'lib, unda gaz quvurlari katta salmoqqa ega. Yuk tashishning umumiy hajmida avtomobil transporti ham yetakchi o'rinni egallaydi. Avtomobil yo'llarining umumiy uzunligi bo'yicha dunyoda (AQSH, Hindiston, Fransiya, Yaponiyadan keyin) 4-o'rinda bo'lib, 755 ming km ni tashkil etadi.

Xalqaro iqtisodiy aloqalar	<b>Eksport uchun:</b> neft va neft mahsulotlari, gaz, o'rmon-yog'och, metall, kimyo sanoati mahsulotlari, keng diapazonli fuqarolik va harbiy-texnika mahsulotlari yetkazib beriladi. <b>Import orqali:</b> mashina va uskunalar, paxta, iste'mol tovarlari, dori vositalari, go'sht, shakar va bug'doy olib kiritadi. <b>Asosiy savdo hamkorlari:</b> Yevropa Ittifoqi mamlakatlari, Germaniya, Ukraina, Belorussiya, Qozog'iston, Yaponiya va AQSH.
Xalqaro tashkilot-larga a'zoligi	BMT, uning Xavfsizlik kengashi doimiy a'zosi, MDH, ATES, SHHT, Katta sakkizlik, Katta yigirmalik, EvrAzES, BRIKS, BST va boshqalar.
Internet domeni	www.ru, www.su
Telefon kodi	+7
Soat millari	UTC +2...+12
<b>Nazorat savollari</b>	
<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Rossiyaning tabiiy sharoiti va resurslari iqtisodiyot rivojlanishiga qay darajada ta'sir ko'rsatadi?</li> <li>2. Davlat tuzumi qanday tashkil etilgan?</li> <li>3. Aholi va mehnat resurslari.</li> <li>4. Asosiy sanoat tarmoqlari qanday joylashgan?</li> <li>5. Qishloq xo'jaligiga tavsif bering.</li> <li>6. Transporti.</li> <li>7. Tashqi iqtisodiy aloqalari.</li> </ol>	

UKRAINA	
Rasmiy nomlanishi	UKRAINA RESPUBLIKASI
Mustaqillik sanasi	1991-yil 24-avgust

<b>Davlat bayrog'i</b>	1992-yil 28-yanvarda tasdiqlangan	
<b>Davlat Gerbi</b>	1992-yil 19-fevralda tasdiqlangan	
<b>Davlat tili</b>	<b>Ukrain tili</b>	
<b>Poytaxti</b>	<b>Kiyev</b>	
<b>Yirik shaharlari</b>	Kiyev, Xarkov, Odessa, Dnepropetrovsk, Zaporozje, Lvov, Krivoy Rog va boshqalar	
<b>Boshqaruv shakli</b>	Parlament-Prezident respublikasi	
<b>Davlat tuzumi</b>	Respublika	
<b>Parlamenti Oliy</b>	Rada (450 ta deputat)	
<b>Prezidenti</b>	<b>Pyotr Alekseevich Poroshenko</b>	
<b>Hukumat raisi</b>		

<b>(Bosh vazir)</b>	Vladimir Borisovich Groysman
<b>Aholi soni, kishi</b>	<b>2013-yilda: 45245,9 mln [35]</b>
<b>Aholisining o'rtacha zichligi, 1 km<sup>2</sup> ga/kishi</b>	<b>2013-yilda: 78,4</b>
<b>Aholisining tarkibi, %</b>	ukrainlar – 77,8, ruslar – 17,3, beloruslar – 0,6, moldavanlar – 0,5, qrim tatarlari – 0,5, bolgarlar – 0,4, vengerlar – 0,3, ruminlar – 0,3, polyaklar – 0,3, yahudiylar – 0,2, armanlar – 0,2, greklar – 0,2, tatarlar – 0,2, boshqalar – 1,2
<b>Dini</b>	<b>Dunyoviy davlat.</b> Shu jumladan, aholisi xristian pravoslavlavl (88 %) va boshqa dinlarga e'tiqod qiladi.
<b>Dunyo xaritasida</b>	
<b>Maydoni, km<sup>2</sup></b>	576 604 (47 o'rin)
<b>Suvli maydon, % da</b>	7
<b>Chegaraning umumiy uzunligi, km</b>	<b>Dengiz sohilining uzunligi:</b> 1355 km (Qora dengiz bo'yicha – 1056,5 km; Azov dengizi bo'yicha – 249,5 km, Kerch bo'g'osi bo'yicha esa – yana 49 km).

<b>Chegaraning unumiy uzunligi, km</b>	<b>Dengiz sohilining uzunligi:</b> 1355 km (Qora dengiz bo'yicha – 1056,5 km; Azov dengizi bo'yicha – 249,5 km, Kerch bo'g'ozи bo'yicha esa – yana 49 km).
<b>Ma'muriy hududiy bo'linishi tarkibi</b>	24 oblast, 1 tarespublika ahamiyatiga eg ashahar
<b>Ma'muriy hududiy bo'linish tuzilishii</b>	<b>Oblastlar:</b> Vinnisa, Volin, Dnepropetrovsk, Donesk (DXR), Jitomir, Zakarpatiya, Zaporoj, Ivano-Frankov, Kiyev, Kirovograd, Lugansk (LXR), Lvov, Nikolayev, Odessa, Poltava, Rovno, Sumsk, Ternopol, Xarkov, Xerson, Xmelnitskiy, Cherkassiya, Chernigov, Chernoviskaya. <b>Alohida maqomga ega bo'lgan shahar</b> – Kiyev.
<b>Geografik joylashuvi</b>	Yevropaning Sharqida joylashgan bo'lib, hududining g'arbdan sharqqacha bo'lgan masofa 1316 km, shimoldan janubgacha esa 740 km ni tashkil etadi. Janubdagagi chegaralarining Qora va Azov dengizlari yuvib turadi. Mamlakat hududining asosiy qismi adirlardan iborat bo'lib, faqat 5% i tog'lardan iborat. G'arbda – Karpat tog'lari mavjud. Mamlakatdagagi yuqori nuqta – Govyerla cho'qqisi – 2061m. Mamlakat iqlimi mo'tadil kontinental. <b>Asosiy daryolari (km): Dnepr – 1121, Dnestr – 925 va boshqalar.</b>
<b>Tabiiy boyliklari</b>	Ukraina Respublikasining tabiiy resurslari orasida tabiiy gaz, neft, ko'mir, temir va marganets rudalari, rangli metall rudalari mavjud. Neft va gaz konlari Prikarpate va Dnepr bo'yida joylashgan bo'lib, miqdorining kamligi tufayli kimyo sanoati xomashyo sifatida ishlataladi. Ichki iste'mol chetdan – Rossiya va Turkmanistondan keltiriladigan neft va gaz hisobiga qondirilmoqda.

	MDH miqyosidagi yirik toshko'mir koni Donbassda va temir rudakoni Krivoy Rogda joylashgan. Shuningdek, Ukrainada alyuminiy, titan, nikel, kam uchraydigan metallarning ham konlari mavjud.
<b>Pul birligi</b>	<b>Grivna</b> – 1996-yil 2-sentyabrdan joriy qilingan
<b>YIM, mlrd AQSH dollarida</b>	<b>2014-yilda: 135,256 (1605,5 mlrd grivna) [35]</b>
<b>Aholi jon boshiga, AQSH dollarida</b>	<b>2014-yilda: 2989,3 [35]</b>
<b>YIMdagi ulushi, % da</b>	<b>2013-yilda:</b> Sanoat – 25 %, qishloq xo'jaligi – 22 %, xizmat ko'rsatish – 53 %.
<b>Sanoat tarmoqlari</b>	<p>Ukraina industrial-agrar toifaga mansub mamlakat. Milliy raqobatbardoshlik darajasi bo'yicha 2013-yilda jahonda 84-o'rinni egallagan. Mamlakatda ko'mir qazib olish, qora va rangli metallurgiya, yoqilg'i sanoati, elektroenergetika, mashinasozlik, elektrostansiyalar uchun uskunalar ishlab chiqarish, kimyo, neft-kimyo va oziq-ovqat sanoatlari rivojlangan.</p> <p>Eng katta ko'mir konlari Donesk, Lvov-Volinsk va Dnepr bo'yida joylashgan. Qazib olinadigan ko'mirkokslanuvchi ko'mirdir.</p> <p>Mamlakatda ishlab chiqariladigan elektroenergiyaning 95% i issiqlik elektrostansiyalari hissasiga to'g'ri keladi. Ukraina hududida katta temir rudasi konlarining mavjudligi, bu yerda rivojlangan qora metallurgiya tarmog'ini vujudga keltirdi. MDHda ishlab chiqariladigan temir rudasining katta qismi, koks va cho'yanning, po'lat va prokatning 40% i shu davlat hissasiga to'g'ri keladi.</p>

	<p>Asosiy markazlari Dnepr bo‘yi, Donbass, Azov bo‘yida joylashgan. Rangli metallurgiya sanoati – alyuminiy, magniy, titan, nikel, rux va simob ishlab chiqarishga ixtisoslashgan.</p> <p>Mamlakatning mashinasozlik tarmog‘ida – og‘ir mashinasozlik (metallurgiya zavodlari uchun uskunalar ishlab chiqarish), transport mashinasozligi (teplovozsozlik), kemasozlik va avtomobilsozlik yaxshi yo‘lga qo‘yilgan.</p> <p>Kramatorsk, Krivoy Rog, Mariupolda og‘ir mashinasozlik, Nikolayevda – kemasozlik, Lvov va Kremenchugda avtomobilsozlik korxonalari joylashtirilgan.</p>
<b>Qishloq xo‘jaligi</b>	<p>Ukraina Respublikasining qishloq xo‘jaligi yuqori intensivligi va mahsuldorligi bilan ajralib turadi. Bunday holat, avvalo, unumdar qora tuproqning mavjudligi va qishloq xo‘jaligining mexanizatsiyalashtirilganligi bilan bog‘liqdir. Qishloq xo‘jaligida yalpi tovar mahsulot qiymati bo‘yicha chorvachilik ustun turadi.</p> <p>Ukraina dehqonchiligining asosini donchilik tashkil qiladi. Don ekinlari bilan ekin maydonlarining yarmidan ko‘pi band. Mamlakatning tabiiy-iqlim sharoitlari bu yerda kuzgi bug‘doyga qaraganda, bahorgi bug‘doy yetishtirish uchun katta imkoniyatlar tug‘diradi. Shuning uchun ham qishloq xo‘jaligida, asosan bahorgi bug‘doy yetishtiriladi.</p> <p>Don ekinlaridan yana makkajo‘xori, jo‘xori, dukkakli ekinlar yetishtiriladi.</p> <p>Ekin maydonlarining juda katta qismi texnika ekinlari – qand lavlagi, kungaboqar, kanop va tamaki bilan band qilingan.</p> <p>Umumiyligida qishloq xo‘jaligi yerlari – 70,8 %, o‘rmon – 17,6, suv fondi – 4,0 va boshqa hududlar – 7,6 % ni tashkil etadi.</p>

<b>Transporti</b>	Ukraina Respublikasida transport va aloqada 7,5% aholi band bo'lib, asosiy transport turlari temiryo'l, dengiz va daryo transporti, avtomobil, havo transportlari va quvurlardir. Daryo transportining asosiy arteriyasi — Dnepr daryosidir. Eng yirik porti Qora dengiz bo'yidagi Odessa shahridir. Hozirgi paytda bu port MDH davlatlariga, jumladan, O'zbekistonga ham xizmat ko'rsatmoqda.
<b>Xalqaro iqtisodiy aloqalari</b>	<p><b>Eksport uchun:</b> qora va rangli metall, energiya tashuvchilar, to'qimachilik, taxta, mashina va qurilmalar, kimyo va neft sanoati mahsulotlari, qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetkazib beradi.</p> <p><b>Import orqali:</b> elektroenergiya va elektr-manbalar, mashinasozlik mahsulotlari va transport uskunalarini olib kiriladi.</p> <p><b>Asosiy savdo hamkorlari bo'lib:</b> Rossiya, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari, AQSH, Xitoy va Turkiya hisoblanadi.</p>
<b>Xalqaro tashkilot-larga a'zoligi</b>	BMT, BST, MDH, BBT, XVF, YTIB va boshqalar
<b>Internet domeni</b>	.ua, .ukr
<b>Telefon kodi</b>	+380
<b>Sohat millari</b>	UTC+2

#### *Nazorat savollari*

1. Ukrainianing tabiiy sharoiti va resurslari iqtisodiyoti rivojlanishiga qay darajada ta'sir ko'rsatadi?
2. Davlat tuzumi qanday tashkil etilgan?
3. Aholi va mehnat resurslari.
4. Asosiy sanoat tarmoqlari qanday joylashgan?
5. Qishloq xo'jaligiga tavsif bering.
6. Transporti.
7. Tashqi iqtisodiy aloqalari.

## BELORUSSIYA

<b>Rasmiy nomlanishi</b>	<b>BELORUS RESPUBLIKASI</b>
<b>Mustaqillik sanasi</b>	<b>1991-yil 25-avgust</b>
<b>Davlat bayrog'i</b>	1995-yil 7-iyunda qabul qilingan 
<b>Davlat Gerbi</b>	1995-yil 7-iyunda qabul qilingan. 
<b>Davlat tili</b>	<b>Belorus va rus tillari</b>
<b>Poytaxti</b>	<b>Minsk</b> 
<b>Yirik shaharlari</b>	Minsk, Gomel, Vitebsk, Mogilyov, Bobryusk, Grodno, Brest
<b>Boshqaruv shakli</b>	Prezidentlik Respublikasi
<b>Davlat tuzumi</b>	Unitar davlat

<b>Parlamenti</b>	<b>Ikki palatali:</b> Yuqori palata – Respublika Kengashi (64), Quyi palata – Millat majlisi (110)
<b>Prezidenti</b>	<b>Aleksandr Grigorevich Lukashenko</b>
<b>Hukumat Raisi (Bosh vazir)</b>	<b>Andrey Vladimirovich Kobyakov</b>
<b>Aholisi soni, kishi</b>	<b>2013-yilda: 9468,1 ming [35]</b>
<b>Aholisining o‘rtacha zichligi, 1 km<sup>2</sup> ga/kishi</b>	<b>2013-yilda: 45,6</b>
<b>Aholisining tarkibi, %</b>	Beloruslar – 83,7, ruslar – 8,2, yahudiylar – 0,14 ukrainlar – 1,67, polyaklar – 3,10 va boshqalar
<b>Dini</b>	<b>Dunyoviy davlat.</b> Jumladan, xristian pravoslavlavlari – 80%, katoliklar – 10% va 10% boshqa dinlarga e’tiqod qiladi.
<b>Dunyo xaritasida</b>	
<b>Maydoni, km<sup>2</sup></b>	207 599
<b>Suvli maydon, % da</b>	2,26
<b>Chegaradosh davlatlar</b>	Shimoli-g‘arbda – Litva, shimolda – Latviya, shimoli-sharqda va sharqda Rossiya, janubda Ukraina, g‘arbda Polsha bilan chegaradosh.
<b>Ma’muriy hu- dudiy bo‘linishi tarkibi</b>	6 oblast, 118 rayon, 102 shahar, 109 shaharchalardan iborat.

<b>Ma'muriy hududiy bo'linish tuzilishi</b>	<b>Oblastlar:</b> Brest, Vitebsk, Gomel, Grodno, Mogilyov, Minsk
<b>Geografik joylashuvi</b>	Sharqiy Yevropaning markaziy qismida joylashgan. Mamlakatni dengizga olib chiqadigan yo'llar yo'q. O'rmonlar mamlakatning taxminan 40% ini egallaydi. Mamlakatdagi yuqori nuqta Dzerjinsk tog'i – 345 m. Daryolari (km): Dnepr – 700, Berezina – 561, Pripyat – 495 va boshqalar
<b>Tabiiy boyliklari</b>	Foydalı qazilmalardan kaliy tuz konlari (Starobin va Petrikov konlari) bir necha miliard tonna zaxiraga ega, janub va janubi-sharqda tuz toshi, Pripyat botig'ida neft, ko'mir bor. Shuningdek, respublikada torf konlari ham mavjud.
<b>Pul birligi</b>	<b>Belorus rubli</b> – 1993-yil 26-iyulda joriy etilgan
<b>YIM, mlrd AQSH dollarida</b>	<b>2014-yilda: 75,867 (778455,5 mlrd bel. rubli)</b>
<b>Aholi jon boshiga, AQSH dollarida</b>	<b>2014-yilda: 8012,98</b>
<b>YIMdagi ulushi, % da</b>	<b>2012-yilda:</b> Sanoat – 54 %, qishloq xo'jaligi – 17 %, xizmat ko'rsatish – 29 %
<b>Sanoat tarmoqlari</b>	Sanoatda elektr energetikasi, yoqilg'i energetikasi, metallurgiya, mashinasozlik va metalga ishlov berish, kimyo va neft kimyosi, yog'ochsozlik, sellyuloza-qog'oz, qurilish materiallari, shisha va chinni fayans, yengil, oziq-ovqat, un-yorma, farmatsevtika sanoati, mikrobiologiya va matbaachilik eng yirik tarmoqlar hisoblanadi.

	<p>Belorus Respublikasi sanoat tarmoqlari orasida, asosan, qayta ishlash sanoati ustun turadi. Ularga mashinasozlik, kimyo, yog'ochni qayta ishlash, yengil sanoat kabilar kiradi. Elektr energetika kompleksi avval torf asosida ishlagan bo'lsa, ayni davrda Ukrainianadan keltiriladigan ko'mir asosida ishlaqmoqda. Eng yirik elektr stansiyalari – Belorus, Berezovsk va Smolevichesk GRESlaridir.</p> <p>Belorus mashinasozligida yuqori quvvatli samosvallar ishlab chiqarish, stanoksozlik, qishloq xo'jaligi mashinasozligi rivoj topgan. Minskda ulkan-samosvallar ishlab chiqaradigan korxonalar joylashgan (MAZ), Vitebsk shahri esa stanoksozlik markazi hisoblanadi.</p>
<b>Qishloq xo'jaligi</b>	Kartoshka va zig'ir tolasini yetishtirish, qora-molchilik, cho'chqachilik, parrandachilik rivojlangan. Umumiy hududda qishloq xo'jaligi yerlari – 42,0%, o'rmonlar – 41,6, suv fondi – 6,4 va boshqalar – 10,0% ni tashkil etadi.
<b>Transporti</b>	<p>Temiryo'l va avtomobil trasporti – mamlakatning asosiy trasport vositalari hisoblanadi. Temiryo'l tarmog'inining bosh magistrali sifatida Orsha, Minsk va Brest yo'llari Belorussiyani sharqda Moskva va g'arbda Varshava bilan bog'lab turadi. Temiryo'lning umumiy uzunligi – 5512 km dan iborat. Belorussiyada avtomobil yo'llarining umumiy uzunligi 83 ming km ni tashkil etadi. Daryo floti vositasida 1500 km gacha masofaga kemalarda (asosan Dnepr daryo basseynida) yuk tashiladi. Havo transporti Minsk shahrida o'rtacha rivojlangan.</p> <p>Mamlakatda 7 ta xalqaro aeroport mavjud.</p>

<b>Xalqaro iqtisodiy aloqlari</b>	<p>2001–2006-yillarda Belorussiya ichki bozorda milliy ishlab chiqaruvchilar manfaatlarini himoya qilish yo‘lidan bordi. Tashqi iqtisodiy aloqlarda Belorussiya va Rossiya o‘rtasida yagona Ittifoq davlatini qurish siyosati amalga oshirildi.</p> <p><b>Eksport uchun:</b> yuk avtomobilari, traktorlar, televizorlar, muzlatkichlar, kimyo tolalari, kaliy o‘g‘iti, tekstil va yengil sanoat mahsulotlari yetkazib beriladi.</p> <p><b>Import orqali:</b> neft, tabiiy gaz, ko‘mir, mashina va uskunalar, qora va rangli metallurgiya, kimyo sanoati mahsulotlari olib kiriladi.</p> <p><b>Eksportdagи ulushi bo‘yicha:</b> Rossiyaga – 66,8 %, Latviya – 7,3 %, Ukraina – 6,3 %, Germaniya – 4,0 %, Litvaga – 4,1 % to‘g‘ri kelsa</p> <p><b>Importda Rossiyadan hissasi</b> – 62,8 %, Germaniya – 9,4 %, Ukraina – 3,2 % ga teng bo‘lmoqda.</p>
<b>Xalqaro tashkilotlarga a’zoligi</b>	BMT, MDH, Kollektiv xavfsizlik shartnomasi, XVF, JB, YevrAzeS va boshqalar.
<b>Internet domeni</b>	.by
<b>Telefon kodи</b>	+375
<b>Soat millari</b>	UTC+3
<p><b>Nazorat savollari</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Belorussiyaning tabiiy sharoiti va resurslari iqtisodiyoti rivojlanishiga qay darajada ta’sir ko‘rsatadi?</li> <li>2. Davlat tuzilishi qanday tashkil etilgan?</li> <li>3. Aholisi va mehnat resurslari.</li> <li>4. Asosiy sanoat tarmoqlari qanday joylashgan?</li> <li>5. Qishloq xo‘jaligini tavsiflab bering.</li> <li>6. Transporti.</li> <li>7. Tashqi iqtisodiy aloqlari.</li> </ol>	

## MOLDAVIYA

<b>Rasmiy nomlanishi</b>	<b>MOLDAVIYA RESPUBLIKASI</b>
<b>Mustaqil-lik sanasi</b>	<b>1991-yil 27-avgust</b>
<b>Davlat bayrog'i</b>	1990-yil 27-aprelda tasdiqlangan   
<b>Davlat Gerbi</b>	1990-yil 2-noyabrda tasdiqlangan 
<b>Davlat tili</b>	Moldavan tili
<b>Poytaxti</b>	<b>Kishinev</b> 
<b>Yirik shaharlari</b>	Kishinev, Tiraspol, Belsi, Benderi, Ribnisa
<b>Boshqaruv shakli</b>	Parlament Respublikasi
<b>Davlat tuzumi</b>	Unitar davlat


<b>Parlamenti</b>	<b>Bir palatali (101 ta deputat)</b>
<b>Prezidenti</b>	<b>Nikolay Vasilevich Timofti</b>
<b>Hukumat Raisi (Bosh vazir)</b>	<b>Yuriye Grigorevich Lyanke</b>
<b>Aholi soni, kishi</b>	<b>2013-yilda: 3557,6 ming</b>
<b>Aholisining o'rtacha zichligi, 1 km<sup>2</sup> ga/kishi</b>	<b>2013-yilda: 105,2</b>
<b>Aholisining tarkibi, %</b>	moldavanlar – 75,8, ukrainlar – 8,4 %, ruslar – 5,9 %, gagauzlar – 4,4 %, ruminlar – 2,2 %, bolgarlar – 1,9 % va boshqalar
<b>Dini</b>	<b>Dunyoviy davlat.</b> Shu jumladan, dinga e'tiqodi: xristian – aksariyat pravoslavlik – 93,3 %, qolgan qismini musulmonlar, yahudiylar va boshqalar.
<b>Dunyo xaritasida</b>	
<b>Maydoni, ming km<sup>2</sup></b>	<b>33, 8</b>
<b>Suvli maydon, %</b>	<b>1,4</b>
<b>Chegaradosh davlatlar</b>	<b>2 ta (Ukrainava Ruminiya)</b>
<b>Ma'muriy hududiy bo'linishi tarkibi</b>	32 rayon, 5 munisipiyev (oblast), 1 avtonom hudud va ma'muriy-hududiy birlik (levobereje). Shuningdek tarkibida tan olinmagan Pridnestroviye Respublikasi mavjud

<b>Ma'muriy hududiy bo'linish tuzilishi</b>	<b>Munisipiy (oblast):</b> Kishinyov, Belsi, Benderi, Komrat, Tiraspol. <b>Avtonom hudud:</b> Gagauziya.
<b>Geografik joylashuvi</b>	Mamlakat – Yevropaning janubi-sharqida joylashgan bo'lib, Dnestr (660 km) va Pruta (695) daryolarining o'ttasidagi katta qismni egallab turadi. Dengizga olib chiqadigan yo'llari yo'q. Mamlakat vodiylarga bo'linib ketgan tepalik adirlardan iboratdir. Yuqori nuqtasi 429 metrni tashkil etadi. Iqlimi – mo'tadil kontinental.
<b>Tabiiy boyliklari</b>	Moldaviya Respublikasining tabiiy resurslari orasida temir va marganets rudalari, rangli metall rudalari mavjud. Neft va gaz konlari miqdorining kamligi tufayli ular kimyo sanoatida xomashyo sifatida ishlatiladi.
<b>Pul birligi</b>	<b>Moldavan leysi</b> – 1993-yil 29-noyabrda joriy etilgan
<b>YIM, mldr AQSH dollarida</b>	<b>2014-yilda: 7,6 (112510 mln ley)[35]</b>
<b>Aholi jon boshiga, AQSH dollarida</b>	<b>2014-yilda: 2130,5</b>
<b>YIMdagi ulushi, % da</b>	<b>2013-yilda:</b> Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi YIM tarkibida – 24 % ni, sanoat va qurilish – 22% va xizmat ko'rsatish – 54% ni tashkil etdi.
<b>Sanoat tarmog'i</b>	Moldaviya agrar-industrial mamlakat. Iqtisodiyotining o'zagi bo'lib agrosanoat kompleksi hisoblanadi. Sanoatining asosiy tarmoqlari: oziq ovqat, yengil, elektronika, elektron, kimyo va yog'ochni qayta ishslash va boshqalardan iborat. To'qimachilik, kiyim-kechak va poyafzal ishlab chiqarilishi yaxshi yo'lga qo'yilgan.

<b>Qishloq xo‘jaligi</b>	Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining uchdan ikki qismini dehqonchilik tashkil etadi. Mamlakatda uzum, tamaki, bug‘doy, jo‘xori, qand lavlagi, kungaboqar, mevalar, kartoshka va sabzavotlar yetishtiriladi. Umumiy hududda qishloq xo‘jaligi yerlari – 59,8 %, o‘rmon – 13,3%, suv fondi – 2,5 % va boshqalar – 24,4 %ni tashkil etadi.
<b>Transporti</b>	Transport tizimi tranzit geografik joylashuvga asoslangan. Temir yo‘llarning umumiy uzunligi 1300 km, avtomobil yo‘llari 12,6 ming km (shundan 11 ming km qattiq qoplamali yo‘llar)ni tashkil etadi. Mamlakat orqali temir yo‘l, avtomagistral, gaz va neft quvurlari va elektr aloqa liniyalari o‘tadi.
<b>Xalqaro iqtisodiy aloqalar</b>	Eksport uchun vino, konyak, tamaki va bosh-qalarni yetkazib beradi. Import orqali tabiiy gaz, neft mahsulotlari, transport vositalari va uskunalari olib kiradi. Moldaviyaning asosiy savdo hamkorlari Ruminiya, Rossiya, AQSH, Germaniya va Yaponiya hisoblanadi.
<b>Xalqar tashkilotlar- ga a‘zoligi</b>	BMT, YXHT, MDH, ETTB, XVF, Yevropa Kengashi, BST va Yevroosiyo iqtisodiy hamkorligi (YOIH) tashkiloti kuzatuvchisi va boshqalar
<b>Internet domeni</b>	.md
<b>Telefon kodi</b>	+373
<b>Soat millari</b>	UTC+2, yozda UTC+3
<b>Nazorat savollari</b>	
1. Moldaviya davlat tuzumi qanday tashkil etilgan?	
2. Mamlakatning tabiiy sharoiti.	
3. Aholisi va mehnat resurslari.	
4. Asosiy sanovat tarmoqlari qanday joylashgan?	
5. Qishloq xo‘jaligiga tavsif bering.	
6. Transporti.	
7. Tashqi iqtisodiy aloqalari.	

**7.3. MDHning Kavkazorti  
(Armaniston, Gruziya (sobiq a'zosi) va  
Ozarbayjon) davlatlari iqtisodiy-geografik tavsi**

**ARMANISTON**

<b>Rasmiy nomilanishi</b>	<b>ARMANISTON RESPUBLIKASI</b>
<b>Mustaqil-lik sanasi</b>	<b>1991-yil 21-sentyabr</b>
<b>Davlat bayrog'i</b>	1990-yil 24-avgustda tasdiqlangan 
<b>Davlat Gerbi</b>	1992-yil 19-aprelda tasdiqlangan 
<b>Davlat tili</b>	<b>Arman tili</b>
<b>Poytaxti</b>	<b>Yerevan</b> 
<b>Yirik shaharlari</b>	Yerevan, Gyumri, Vanadzor


<b>Boshqaruv shakli</b>	Prezident Respublikasi
<b>Davlat tizimi</b>	Armaniston Demokratik Respublikasi. Davlat boshlig'i – Prezident. Qonun chiqaruvchi oliy organ – Millat Majlisi (1995-yildan). Oliy ijroiya va farmoyish beruvchi organi – Vazirlar Kengashi
<b>Parlamenti</b>	<b>Ikki palatali:</b> Yuqori palata – Milliy Kengashi, Quyi palata – Milliy assambleya
<b>Prezidenti</b>	<b>Serj Azatovich Sargsyan</b>
<b>Hukumat Raisi (Bosh vazir)</b>	<b>Ovik Argamovich Abraamyan</b>
<b>Aholi soni, kishi</b>	<b>2013-yilda: 3 017,4 ming</b>
<b>Aholisining o'rtacha zichligi, 1 km<sup>2</sup> ga/kishi</b>	<b>2013-yilda: 101,4</b>
<b>Aholisining tarkibi, %</b>	Aholisining deyarli 97% ini armanlar, qolganlarini ruslar, kurdlar, ukrainlar, gruzinlar, yunonlar, yahudiyilar va boshqalar tashkil qiladi.
<b>Dini</b>	<b>Dunyoviy davlat.</b> Diniy munosabatda aholining katta qisni (94 %) – Arman apostol cherkovining xristian-monofistlaridir. Shuningdek, rus pravoslav cherkoviga ibodat qiluvchilar, musulmonlar va boshqa konfessiya vakillari jamlangan.
<b>Dunyo xaritasida</b>	

<b>Maydoni, ming km<sup>2</sup></b>	29,7
<b>Suvli may- don, % da</b>	4,71
<b>Chegaradosh davlatlar</b>	Shimolda Gruziya, sharqda Ozarbayjon (Naxichevan Avtonom Respublikasi), janubda Eron, g'arbda Turkiya
<b>Ma'muriy hududiy bo'linishi tarkibi</b>	<b>10 ta viloyat va 1 ta shahar</b>
<b>Ma'muriy hududiy bo'linish tuzilishi</b>	<b>Viloyatlar:</b> Aragasotn, Ararat, Armavir, Vayosdzor, Gexarkunik, Kotayk, Loriy, Syunik, Tavush, Shirak. <b>Shahar</b> — Yerevan
<b>Geografik joylashuvi</b>	Qadimgi vulqonli Armaniston tog'ining shimoli-sharqiy qismida joylashgan Kavkaz ortidagi davlat. Dengizga chiqadigan yo'llari yo'q. Armaniston yerlarining katta qismi dengiz sathidan o'rtacha 1500 m dan balanddir. Mamlakatning janubi-g'arbiy qismini aholi yashaydigan yirik hududlar yig'ilgan Ararat vodiysi egallaydi. Eng yuqori nuqta — Aragas tog'i — 4090 m. Eng katta ko'li — Sevan. Iqlimi kontinental — tog'lidir.
<b>Tabiiy boyliklari</b>	Armaniston yer osti rudali foydali qazilmalarga boy. Rangli va qorametall, tuzli toshlar, bentonit va olovga chidamli tuproq, pyerlit, diatomit, ohak tosh, granit, marmar va boshqa konlar sanoat uchun katta ahamiyatga ega. Yarim qimmatli va o'rinosar toshlardan agata, ametista, ebsidiana konlari aniqlangan. Metall rudaigaridan 20 ta kon joylari aniqlangan: uchta — mis, oltita — molibden, beshta yarim metall (qo'rg'oshin, sink va boshqalar), to'rtta — oltin, ikkita — temir va boshqalar.

<b>Pul birligi</b>	<b>Arman drami</b> – 1993-yil 22-noyabrdan boshlab joriy etilgan
<b>YIM, mld AQSH dollarida</b>	<b>2014-yilda: 10,3 (4272,9 mld. dram) [35]</b>
<b>Aholi jon boshiga, AQSH dollarida</b>	<b>2014-yilda: 3404,5</b>
<b>Sanoat tarmoqlari</b>	Armanistonda rafinantlangan mis, birlamchi alyumin, molibden, rux, qo'rg'oshin, konsentratlashgan barit, oltin, kumush, tellur, oltingugurt kislotasi va boshqalar ishlab chiqariladi. Qayta ishlash sanoatida mashina va asbob-huskuna, elektrotexnika, kimyo sanoati yetakchilik qiladi. Lekin ularning xomashyosi tashqaridan keltirilganligi sababli mavqeyi tushib borgan. Oziq-ovqat (ichki vinochilik) va yengil sanoat, shuningdek, yuqori qiymatga ega bo'ladigan olmos, yuvelir buyumlar, mikroelektronika, kompyuter dasturlarini ishlab chiqarish yaxshi yo'llga qo'yilgan. Oltin va boksitlarni ishlab chiqarish cheklangan.
<b>Qishloq xo'jaligi</b>	Qishloq xo'jaligi ekin maydonlari juda kam. Asosan, Araksda vodiysidan foydalilanildi. Paxta, uzum, zaytun, donli va sabzavotlar yetishtiriladi. Jami hududdan 28% i atrofida chorvachilik bilan shug'ulanishadi. Umumiy hududda qishloq xo'jaligi yerlari – 68,9%, o'rmon – 11,2%, suv fondi – 0,9% va boshqalar – 19,0% ni tashkil etadi.
<b>Transporti</b>	Armaniston transport kompeksi (852 km temir yo'lli, 8 ming km avtomobil yo'llari, 2 ming km gaz quvurlari) muhim vazifani

	bajaradi, lekin uning samaradorligi qo'shni bo'lgan (Ozarbayjon va Turkiya) davlatlari tomonidan transport to'sig'i bo'lganligi sababli past.
<b>Xalqaro iqtisodiy aloqalari</b>	Brilliant, metall mahsulotlari, mashinlar alohida turlari, konyak, mis rudasi va boshqalar eksport qilinadi. Tabiiy gazi neft mahsulotlar, tamaki, oziq-ovqat mahsulotlari va boshqalar import qilinadi.
<b>Xalqaro tashkilotlariga a'zoligi</b>	BMT, MDH, Yevropa Kengashi, YXHT, JB, XVF, YTTB va boshqalar
<b>Internet domeni</b>	.am
<b>Telefon kodи</b>	+374
<b>Soyat millari</b>	UTC+4
<b>Nazorat savollari</b>	
<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Armanistonning davlat tuzumi qanday tashkil etilgan?</li> <li>2. Mamlakatning tabiiy sharoiti.</li> <li>3. Aholisi va mehnat resurslari.</li> <li>4. Asosiy sanoat tarmoqlari qanday joylashgan?</li> <li>5. Qishloq xo'jaligiga tavsif bering.</li> <li>6. Transporti.</li> <li>7. Tashqi iqtisodiy aloqalari.</li> </ol>	

GRUZIYA (MDHning sobiq a'zosi)	
<b>Rasmiy nomlanishi</b>	<b>GRUZIYA RESPUBLIKASI</b>
<b>Mustaqillik sanasi</b>	<b>1991-yil 9-aprel</b>

<b>Davlat bayrog'i</b>	2004-yilda tasdiqlangan (hozirgi ko'rinishi)	
<b>Davlat Gerbi</b>	2004-yil 1-oktyabrdan tasdiqlangan (hozirgi ko'rinishi)	
<b>Davlat tili</b>	<b>Gruzin tili</b>	
<b>Poytaxti</b>	<b>Tbilisi</b>	
<b>Yirik shaharlari</b>	Tbilisi, Kutaisi, Batumi, Rustavi, Zugdidi, Gori, Poti, Suxumi	
<b>Boshqaruv shakli</b>	Parlament Respublikasi	
<b>Davlat tuzumi</b>	Unitar davlat	
<b>Parlamenti</b>	<b>Ikki palatali:</b> Yuqori palata – Miliy Kengash, Quyi palata – Milliy assambleya	
<b>Prezidenti</b>	<b>Georgiy Teymurazovich Margvelashvili</b>	

<b>Hukumat Raisi (Bosh vazir)</b>	<b>Irakliy Tariyelovich Garibashvili</b>
<b>Aholi soni, kishi</b>	<b>2014-yilda: 4 490 500</b>
<b>Aholisining o'rtacha zichligi, 1 km<sup>2</sup> ga/kishi</b>	68
<b>Aholisining tarkibi, %</b>	gruzinlar – 83,7%, ozarbayjonlar – 6,5, armanlar – 5,7, ruslar – 1,5, osetinlar – 0,9, ezidlar – 0,5, greklar – 0,3, chechen va kistinlar – 0,2, ukrainlar – 0,2 %, assiriyaliklar, avarlar, abxzalr va boshqalar
<b>Dini</b>	<b>Dunyoviy davlat.</b> Pravoslav-xristianlar – 84 %, musulmon sunniylar (asosan, Ozarbayjon chegaralarida – 9,9, arman-grigoryan cherkovi (armanlar) – 3,9, katoliklar (gruzin va armanlarning uncha katta bo'limgan qismi) – 0,8 % va boshqalar.
<b>Dunyo xaritasida</b>	
<b>Maydoni, ming km<sup>2</sup></b>	69,7
<b>Suvli may- don, % da</b>	0,3

<b>Chegaradosh davlatlar</b>	Janubda Armaniston va Turkiya, janubi-sharqda Ozarbayjon, sharqda va shimolda Rossiya bilan chegaradosh
<b>Ma'muriy hududiy bo'linishi tarkibi</b>	<b>55 ta</b> ma'muriy tuzilmaga ega.
<b>Ma'muriy hududiy bo'linish tuzilishi</b>	Gruziya ma'ruriy tuzilishi bo'yicha <b>de-yure</b> 2 ta avtonom respublika: Abxaziya va Adjariya, 10 ta o'lkaza bo'linadi. Abxaziya va Janubiy Osetiya respublikalari <b>de-fakto</b> o'z o'zini mustaqil boshqarayotgan mamlakatlar hisoblanadi. O'z navbatida o'lka va avtonom respublikalar 55 ta ma'muriy tuzilmaga bo'linadi.
<b>Geografik joylashuvi</b>	Gruziya (Sakartvelo) respublikasi Kavkazor-tining markaziy va g'arbiy qismidagi, shimolda Katta Kavkaz va janubda Kichik Kavkaz o'rtalarida joylashgan davlatdir. G'arbda Qora dengizga tutash. Gruziya iqlimi g'arbda – subtropik, sharqda esa subtropikdan mo'tadilga o'tadigan iqlimdir.
<b>Tabiiy boyliklari</b>	Gruziya turli tuman foydali qazilmalarga ega bo'lgan mamlakat. Uning mineral resurs salohiyati 27 turdag'i foydali qazilmalar mavjud bo'lgan 450 ta joyni o'z ichiga oladi. Ularning katta qismini yuqori sifatli marganets rudalari tashkil etadi. Mamlakatda mineral va termal buloqlar ko'plab topilgan aynan ushbu buloqlar negizida 50 ga yaqin sog'lomlashtirish sihatgohlari yaratilgan.
<b>Pul birligi</b>	<b>Lari</b> – 1993-yil 5-apreldan boshlab joriy etilgan.

<b>YIM, mlrd AQSH dollarida</b>	<b>2012-yilda: 16626 [39]</b>
<b>Aboli jon boshiga, AQSH dollarida</b>	<b>2012-yilda: 5 000</b>
<b>Sanoat tarmoqlari</b>	Gruziya – rivojlanayotgan industrial-agrar mamlakatdir. Mineral xomashyoning barcha turlari: neft, tabiiy gaz, oltin, marganets rudasi va hokazolar qazib olinadi. Sanoatning yetakchi tarmoqlariga marganets rudasini qazib olish, polat trubalar, elektr quvvatlantiruvchi, elektr tashuvchi, metall kesuvchi uskunalar, qishloq xo'jaligi mashinalari va mineral o'g'itlarni ishlab chiqarish kiradi. Shuningdek, oziq-ovqat sanoati, yengil sanoat, qora va rangli metallurgiya sanoati ham o'ziga xos o'ringa ega.
<b>Qishloq xo'jaligi</b>	Mamlakat umumiy maydonining 16 % hududi qishloq xo'jaligi uchun yaroqli. Gruziyada bug'doy, makkajo'xori, loviya, kungaboqar, soyalar, kartoshka, tamaki, choy, sabzavotlar, qovun, meva va sitrusli o'simliklar yetishtiriladi.
<b>Transporti</b>	Transport kommunikatsiyasi ancha keng tizimga ega. Temiryo'l 1,6 ming km, avtomobil yo'llari – 20 ming km uzunlikka ega, 37 ta dengiz kemasi, portlar, aeroportlar, neft quvurlari (1 ming km) va gaz quvurlari (1,3 ming km)ni tashkil etadi (2006-y.). Transport xo'jaligi qayta ta'mirlanishga muhtoj, chunki Gruziya xalqaro transport koridori maqomiga da'vegar sifatida qo'shni davlatlarga neft, gaz, elektr va boshqa tovarlarni eksport qilishda yordam bermoqda.

<b>Xalqaro iqtisodiy aloqalari</b>	<b>Eksport uchun:</b> vino va mineral suvlar, foydali qazilmalar, oziq-ovqatlar va iste'mol mahsulotlari yetkazib beriladi. <b>Import orqali:</b> quvvat tuzatgichlar, mashina va uskunalar, iste'mol tovarlari olib kirladi. Davlat byudjetining 47% ini tovarlar tranziti orqali tushgan mablag'lar tashkil etadi.
<b>Xalqaro tashkilotlarga a'zoligi</b>	BMT, YXHT, JB, XVF, BST va boshqalar.
<b>Internet domeni</b>	.ge
<b>Telefon kodi</b>	+995
<b>Soat millari</b>	+4
<b>Nazorat savollari</b>	
<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Gruziya davlat tuzumi qanday tashkil etilgan?</li> <li>2. Mamlakatning tabitiy sharoiti.</li> <li>3. Aholisi va mehnat resurslari.</li> <li>4. Asosiy sanoat tarmoqlari qanday joylashgan?</li> <li>5. Qishloq xo'jaligini tavsiflab bering.</li> <li>6. Transporti.</li> <li>7. Tashqi iqtisodiy aloqalari.</li> </ol>	

## OZARBAYJON

<b>Rasmiy nomlanishi</b>	<b>OZARBAYJON RESPUBLIKASI</b>
<b>Mustaqillik sanasi</b>	<b>1991-yil 30-avgust</b>
<b>Davlat bayrog'i</b>	1991-yil 5-fevralda tasdiqlangan 
<b>Davlat Gerbi</b>	1993-yil 5-yanvarda tasdiqlangan 
<b>Davlat tili</b>	<b>Ozarbayjon tili</b>
<b>Poytaxti</b>	<b>Boku</b> 
<b>Yirik shaharlari</b>	Boku, Ganja, Sumgait, Mingechaur, Xirdalan, Lenkoran, Naxichevan, Shirvan, Xankendi
<b>Boshqaruv shakli</b>	Prezidentlik Respublikasi

<b>Davlat tuzumi</b>	<b>Unitar davlat</b>
<b>Parlamenti</b>	<b>Ikki palatali: Yuqori palata – Milliy Kengashi, Quyi palata – Milliy assambleya</b>
<b>Prezidenti</b>	<b>Aliyev Ilhom Geydar o‘g‘li</b>
<b>Hukumat Raisi (Bosh vazir)</b>	<b>Rasizade Artur Tair o‘g‘li</b>
<b>Aholi soni, kishi</b>	<b>2013-yilda: 9 477 00</b>
<b>Aholisining o‘rtacha zichligi, 1 km<sup>2</sup> ga/kishi</b>	<b>2013-yilda: 109,4</b>
<b>Aholisining tarkibi, %</b>	<b>2009-yildagi etnik tarkibi:</b> ozarbayjonlar – 91,60, lezinlar – 2,02, armanlar – 1,35, ruslar – 1,34, talishlar – 1,26, boshqa xalqlar – 2,43.
<b>Dini</b>	Ozarbayjon Konstitusiyasining 48-moddasiga ko‘ra davlat dunyoviy va diniy erkinliklarni ta’minlaydi. Aholisining qariyb 95% musulmonlardir. Musulmonlarning 85% shialar va 15% sunniy musulmonlar. Pravoslav, katolik va boshqa dinlar ham mavjud.
<b>Dunyo xaritasida</b>	
<b>Maydoni, ming kv km</b>	<b>86, 6</b>
<b>Suvli maydon, % da</b>	<b>1,6</b>


<b>Chegara-dosh davlatlar</b>	Kaspiy dengizi sharq tomondan sohilni egallaydi. Quruqlikda Rossiya, Gruziya, Armaniston va Eron bilan chegaradosh. Naxichevan avtonom respublikasi – Ozarbayjon ekslavi – Armaniston bilan shimoli-sharqda, Eron bilan janubi-g'arbda, Turkiya bilan shimoli-g'arbda chegaradosh. Ma'muriy hududiy bo'linishi tarkibi 66 ta rayon, 11 ta shahar va 1 ta avtonom respublika
<b>Ma'muriy hududiy bo'linish tuzilishi</b>	<p><b>Rayonlar:</b> Axsuy, Astarin, Belokan, Bardin, Beylagan, Bilyasuvar, Djebraile, Djalilabad, Dashkesan, Shabran, Fizulin, Kedabek, Geranboy, Geokchay, Adjigabul, Imishlin, Ismaillin, Kelbadjar, Kyurdamir, Lachin, Lenkoran, Lerik, Masallin, Neftechalin, Gabalin, Kax, Kazax, Gobustan, Gubin, Kubatlin, Kusar, Oguz, Saatlin, Sabirabad, Shekin, Salyan, Shemaxin, Shamkir, Samux, Siazan, Shushin, Terter, Tovuz, Udjar, Xachmaz, Xan.</p> <p><b>Shaharlar:</b> Baku, Shirvan, Gyandja, Lenkoran, Mingechaur, Naftalan, Sheki, Sumgait, Shusha, Xankendi, Evlax.</p> <p><b>Avtonom respublika</b> – Naxichevan.</p>
<b>Geografik joylashuvi</b>	Kavkazortining janubi-sharqiy qismida joylashgan mamlakat. Sharqda Kaspiy dengizi yjoylashgan (qirg'oq chizig'inining uzunligi, taxminan, 800 km.ga cho'ziladi. Mamlakat Kichik Kavkaz va janubda Talish tog'lari oralig'ida joylashgan). Eng baland nuqta – Bozordyuzyu – 4466 m. Ozarbayjon hududlarining taxminan yarmi tog'lar va Lenkoran pasttekisliklaridan iborat. Asosiy daryolari – Kura va Araksdir. Iqlimi o'zgaruvchan, subtropik.
<b>Tabiiy boyliklari</b>	Ozarbayjon yer osti qa'ri qimmatli foydali qazilmlarga ega: neft va tabiiy gaz, alunit, mis, oltin, molibden konlari, shuningdek, marmar, kaolin, tuf, dalomit kabi qurilish xomashyolari mavjud.

	Kaspiy tabiiy resurslari bilan neft qazib olish, baliqchilik sanoati, dengiz transporti va kema sozlash xo'jalik tarmoqlari bog'liq.
<b>Pul birligi</b>	<b>ozarbayjon manati</b> – 1994-yil 1-yanvardan joriy etilgan
<b>YIM, mird AQSH dollarida</b>	<b>2014-yilda: 75,226 (58977,8 mln manat) [35]</b>
<b>Aholi jon boshiga, AQSH dollarida</b>	<b>2014-yilda: 7937,74</b>
<b>Sanoat tarmoqlari</b>	Ozarbayjon – industrial-agrar mamlakat. Iqtisodiyotida neft va tabiiy gazni qazib olish, neftni qayta ishlash, mashinasozlik, kimyo, tog'-kon sanoati (temir rudasini qazib olish) va rangli metallurgiya muhim rol o'ynaydi, shuningdek, oziq-ovqat sanoati (konserva, choy, tamaki, vinochilik) va yengil sanoat (paxtani qaytaishlash, to'qima-chilik, shoyichilik, gilamchilik) ham rivojlangan.
<b>Qishloq xo'jaligi</b>	Uzumchilik, bog'dorchilik, tamaki etishtirish, sabzavot o'stirish, qoramol boqish va ipakchilik bilan shug'ullanishadi. Umumiy hududda qishloq xo'jaligi yerlari – 55,1%, o'rmon – 12,0, suv fondi – 1,7 va boshqalar – 31,2% ni tashkil etadi.
<b>Transporti</b>	Ozarbayjonda avtomobil transporti nisbatan katta ahamiyatga ega. Avtomobil yo'llarining umumiy uzunligi 59141 km, shundan 29210 km qattiq kopishmaga ega. Yirik avtomobil magistrallari temir yo'l bilan parallel o'tkazilgan. Kaspiy dengizi bo'ylab Rossiyadan Eronga boradigan avtomobil yo'li Boku orqali o'tadi.

	<p>Temiryo'l asosiy transport turlaridan biri bo'lib, yuk tashishning 40%, yo'lovchi tashishning 25 % uning hissasiga to'g'ri keladi.</p> <p>Temiryo'lning umumiy uzunligi – 2195 km.</p> <p>1962-yildan boshlab Boku xalqaro portidan parom vosisasida Turkmanboshiga boradigan dengiz transporti ishga tushgan. Oxirgi paytlarda Qozog'istonidan tankerlarda neft tashish ko'paydi.</p>
<b>Xalqaro iqtisodiy aloqalari</b>	<p><b>Eksport uchun:</b> kimyo va yoqilg'i sanoati, rangli va qora metallurgiya, mashinasozlik va metallni qayta ishlash, yengil sanoat va boshqa tovarlarni yetkazib beradi.</p> <p><b>Import orqali:</b> uskunalar, turli qishloq xo'jaligi mashinalari, avtomobillar, kiyim-kechak va oziq-ovqat mahsulotlari olib kiriladi.</p>
<b>Xalqaro tashkilot-larga a'zoligi</b>	BMT, MDH, XVF, JB, OTB va boshqalar
<b>Internet domeni</b>	.az
<b>Telefon kodi</b>	+994
<b>Sohat millari</b>	+4, ...+5
<p><b>Nazorat savollari</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Ozarbayjonning davlat tuzumi qanday tashkil etilgan?</li> <li>2. Mamlakatning tabiiy sharoiti.</li> <li>3. Aholisi va mehnat resurslari.</li> <li>4. Asosiy sanoat tarmoqlari qanday joylashgan?</li> <li>5. Qishloq xo'jaligiga tavsif bering.</li> <li>6. Transporti.</li> <li>7. Tashqi iqtisodiy aloqalari.</li> </ol>	

**7.4. MDHning Markaziy Osiyo  
(Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston)  
davlatlari iqtisodiy-geografik tavsifi**

**QOZOG'ISTON**

<b>Rasmiy nomlanishi</b>	<b>QOZOG'ISTON RESPUBLIKASI</b>
<b>Mustaqillik sanasi</b>	<b>1991-yil 16-dekabr</b>
<b>Davlat bayrog'i</b>	1992-yil 4-iyunda tasdiqlangan 
<b>Davlat Gerbi</b>	1992-yil 4-iyunda tasdiqlangan 
<b>Davlat tili</b>	<b>Qozoq va rus tillari</b>
<b>Poytaxti</b>	<b>Ostona sh. – 1998 yil 6-maydan boshlab poytaxt</b> 

<b>Yirik shaharlari</b>	Olma-ota, Ostona, Chimkent, Qarag'anda
<b>Boshqaruv shakli</b>	Prezidentlik Respublikasi
<b>Davlat tuzumi</b>	Unitar davlat
<b>Parlamenti</b>	<b>Ikki palatali:</b> Yuqori palata – Milliy Kengash, Quyi palata – Milliy assambleya
<b>Prezidenti</b>	<b>Nursulton Abishevich Nazarboev</b>
<b>Hukumat Raisi (Bosh vazir)</b>	<b>Karim Kajimkanovich Masimov</b>
<b>Aholi soni, kishi</b>	<b>2013-yilda: 17160,8 ming</b>
<b>Aholisining o'r-tacha zichligi, 1 km<sup>2</sup> ga/kishi</b>	<b>2013-yilda: 6,3</b>
<b>Aholisining tarkibi, %</b>	<b>2012-yilda:</b> qozoqlar – 65, ruslar – 22, o'zbeklar – 5, ukrainlar – 4, uyg'urlar – 3, tatarlar – 2,5 va boshqalar
<b>Dini</b>	Dunyoviy davlat. Qozog'istonda 70,2% musulmonlar, 26% xristian (pravoslav) va boshqa din vakillari ham bor. Davlatda din erkinligi mavjud, ya'ni dinga chek qo'yilmagan, biroq diniy erkinlikni cheklaydigan qonunlar ham mavjud.
<b>Dunyo xaritasida</b>	
<b>Maydoni, ming km<sup>2</sup></b>	<b>2 724, 9</b>

<b>Suvli maydon, % da</b>	1,5
<b>Chegaraning umumiyligi uzunligi, km</b>	— 13392,6 km. G'arbiy tarafda Kaspiy dengizi va janubda Orol dengizi joylashgan.
<b>Chegaradosh davlatlar</b>	<b>5 ta</b> , Shimolda Rossiya bilan (6 467 km), janubi-g'arbda — Turkmaniston (380 km), O'zbekiston (2300 km) va Qirg'iziston (980 km), Sharqda — Xitoy bilan (1460 km) chegaradosh.
<b>Ma'muriy hududiy bo'- linishi tarkibi</b>	14 tavaloyat va 2 tarespublika ahamiyatiga ega shahardan iborat
<b>Ma'muriy hududiy bo'linish tuzilishi</b>	Ostona va Olma-ota shaharlari respublika ahamiyatiga ega. <b>Viloyatlar:</b> Akmola, Aktyubinsk, Olma-ota, Atiraus, Sharqiy-Qozog'iston, Jambul, G'arbiy-Qozog'iston, Qarag'anda, Kustanoy, Qizilo'rda, Mangistau, Pavlodar, Shimoliy-Qozog'iston, Janubiy-Qozog'iston
<b>Geografik joylashuvi</b>	Mamlakat Markaziy Osiyoda joylashgan bo'-lib, hududining katta qismi cho'l — 36%, yarim cho'l — 18%, dasht va adirlar — 35 % va o'rmonlar — 5,9%ni tashkil etadi. Mamlakatdagi eng yuqori nuqta janubi-g'arb-dagi Xontangri chuqqisi — 6995 m. Ichki mintaqaviy Kaspiy va Orol dengizlarining suvfari qirg'oqlarini yuvib turadi. Iqlimi keskin kontinental. Yirik daryolari (km) — Irtish — 1700, Sirdaryo — 1400, Ishim — 1400, Ural — 1082. Yirik ko'llari — Orol, Balkhash va boshqalar.

<b>Tabiiy boyliklari</b>	Qozog'iston turli foydali qazilmalarga boy mamlakat. Mendeleyev jadvalidagi 116 elementdan 99 tasining borligi aniqlangan, 70 tasining zaxirasi topilgan, 60 tasidan ishlab chiqarishda foydalanimoqda. Hozirgi paytda 493 ta joyda 1225 turdag'i mineral xomashyo aniqlangan. Qozog'iston rux, volfram va barit zaxiralari bo'yicha dunyoda birinchi o'rinda, kumush, qo'rg'oshin va xromit bo'yicha ikkinchi o'rinda, mis va flyuorit – uchinchi o'rinda, molibden – to'rtinchi, oltin bo'yicha oltinchi o'rinni egallaydi. Foydali qazilma zaxiralari hajmi xrom va qo'rg'oshin rudalari bo'yicha MDHda birinchi o'rinda, neft, kumush, mis, marganes, sink, nikel va fosforit xomashyosi bo'yicha ikkinchi o'rinda, tabiiy gaz, ko'mir, oltin bo'yicha uchinchi o'rinda turadi.
<b>Pul birligi</b>	<b>Qozoq tangasi</b> – 1993-yil 15-noyabrdan boshlab joriy etilgan.
<b>YIM, mlrd AQSH dollarida</b>	<b>2014-yilda: 213,6 (40275,2 mlrd. tanga)</b> [35]
<b>Aholi jon boshiga, AQSH dollarida</b>	<b>2014-yilda: 12447,0</b>
<b>YIMdag'i ulushi, % da</b>	<b>2012-yilda:</b> sanoat – 37,9 %, qishloq xo'jaligi – 5,2 %, xizmat ko'rsatish – 56,9 %ni tashkil etgan.
<b>Sanoat tarmoqlari</b>	Mamlakatning asosiy sanoat bazasini neft, ko'mir, nikel, fosforit, oltin, kumush, boksitlarni qazib chiqarish va xomashyonи birlamchi qayta ishlash tashkil etadi. 2005-yilda Qozog'iston sanoatining ulushida qazib olish 50,9 foizga teng bo'lgan.

	<p>Sanoatning yetakchi tarmoqlari: rangli va qora metallurgiya, kimyo, mashinasozlik, vengil, oziq-ovqat sanoati, shuningdek neftni qayta ishlash, qurilish materiallarini ishlab chiqarish va h.k.lardir.</p> <p>Qozog'iston chet el kompaniyalari sarmoyalari yordamida neft va gazni quruqlikda (Tengez yirik koni) qazib olish bilan birga Kaspiy dengizi shelfida ham qazib olish ishlari olib boryapti.</p>
<b>Qishloq xo'jaligi</b>	<p>Qishloq xo'jaligi mamlakat iqtisodiyotida muhim tarmoq hisoblanadi. Don yetishtirish bo'yicha. Qozog'iston MDHda Rossiya va Ukrainadan keyin uchinchi o'rinni egallaydi. Qozog'iston o'zini non bilan to'liq ta'minlaydi va hatto kam hosil olingan yillarda ham uning 70% ini eksport qiladi. 2011-yilda 25 million tonna don yetishtirilgan.</p> <p>Qozog'iston shimolida bug'doy va boshqa boshqoli donlar bilan birga kungaboqar ham boshqalar yetishtiriladi.</p> <p>Qozog'istonning tabiiy sharoiti yilqichilik rivojlanishi uchun imkon beradi.</p> <p>Mamlakatda an'anaga ko'ra qo'y, ot, tuya, yirik shoxli qoramol ko'paytirish bilan shug'ullanilmoqda.</p> <p>Umumiy hududda qishloq xo'jaligi yerlari – 36,9%, o'rmon – 8,8, suv fondi – 1,6 va boshqalar – 52,7% ni tashkil etadi.</p>
Transporti	Transportida temiryo'llar (uzunligi 13,5 ming km), qattiq qoplamlari avtomobil yo'llari (uzunligi 87,4 ming km katta ahamiyat kasb etadi.

	Kaspiy va Orol dengizlari, Balxash, Irtish, Ural, Sirdaryo daryolarida kema qatnaydi. Quvur transporti rivojlangan. «Air Kazakhstan» havo yo'llari kompaniyasi mavjud.
<b>Xalqaro iqtisodiy aloqlari</b>	<p><b>Eksport uchun:</b> neft, tabiiy gaz, toshko'mir, temir rudasi, metall mahsulotlari (ferroeritmalar va rafinadlangan mis), qishloq xo'jaligi va kimyo sanoati mahsulotlari yetkazib beriladi.</p> <p><b>Import orqali:</b> neft mahsulotlari, transport vositalari, selyuloza, iste'mol mollari, mashina va uskunalar olib kiriladi.</p> <p><b>Tashqi savdoda</b> Rossiya, Ukraina, Qirg'iziston, Germaniya, Xitoy bilan hamkorlik qiladi.</p>
<b>Xalqaro tashkilotlarga a'zoligi</b>	BMT, MDH, JTTB(MBRR), Yevroosiyo iqtisodiy hamkorligi, SHHT, XVF, OTB, ITB va boshqalar
<b>Internet domeni</b>	.kz
<b>Telefon kodи</b>	+76, +77 i +7
<b>Soat millari</b>	UTC+5 i UTC+6

*Nazorat savollari*

1. Qozog'istonning davlat tuzumi qanday tashkil etilgan?
2. Mamlakatning tabiiy sharoiti va resurslari.
3. Aholisi va mehnat resurslari.
4. Asosiy sanoat tarmoqlari qanday joylashgan?
5. Qishloq xo'jaligiga tavsif bering.
6. Transporti.
7. Tashqi iqtisodiy aloqlari.

## QIRG'IZISTON

<b>Rasmiy nomlanishi</b>	<b>QIRG'IZISTON RESPUBLIKASI</b>
<b>Mustaqillik sanasi</b>	<b>1991-yil 3- avgust</b>
<b>Davlat bayrog'i</b>	1992-yil 3-martda tasdiqlangan 
<b>Davlat Gerbi</b>	1994-yil 14-yanvarda tasdiqlangan 
<b>Davlat tili</b>	Qirg'iz va rus tillari
<b>Poytaxti</b>	<b>Bishkek</b> 
<b>Yirik shaharlari</b>	Jalolobod, O'sh, Botken, Talas, Norin
<b>Boshqaruv shakli</b>	Parlament – Prezidentlik Respublikasi

<b>Davlat tuzumi</b>	Unitar davlat
<b>Parlamenti</b>	<b>Bir palatali:</b> Jogorku Kenesh – 120 deputat
<b>Prezidenti</b>	<b>Almazbek Sharshenovich Atambayev</b>
<b>Hukumat Raisi (Bosh vazir)</b>	<b>Temir Argembayevich Sariyev</b>
<b>Aholi soni, kishi</b>	<b>2013-yilda: 5 776 600</b>
<b>Aholisining o'rtacha zichligi, 1 km<sup>2</sup> ga/kishi</b>	<b>2013-yilda: 29</b>
<b>Aholisining tarkibi, %</b>	<b>2012-yilda:</b> qirg'izlar – 66,9, o'zbeklar – 14,14, ruslar – 10,65 va boshqa turli millat vakillari 8,31%ni tashkil qiladi. Umuman, mamlakatda 80 dan ortiq millat va elat vakillari istiqomat qiladilar.
<b>Dini</b>	<b>Dunyoviy davlat.</b> Aksariyat, musulmonlar. Nasroniy diniga e'tiqod qiluvchilar ham bor. Ular asosan: pravoslav, katolik va protestantlar (iyuteranlar, baptistlar, adventistlar)dan iborat.
<b>Dunyo xaritasida</b>	
<b>Maydoni, ming km<sup>2</sup></b>	198,5
<b>Suvti maydon, % da</b>	3,6
<b>Chegaraning umu- miy uzunligi, km</b>	Quruqlikdagi chegaraning umumiy uzunligi – 4503 km.

<b>Chegaradosh davlatlar</b>	<b>4 ta</b> davlat: shimolda Qozog'iston (1113 km), g'arbda O'zbekiston (1374 km), Janubi-g'arbda Tojikiston (972 km), Janubi-sharqda Xitoy Xalq Respublikasi (1048 km) bilan chegaradosh.
<b>Ma'muriy huddiy bo'linishi tarkibi</b>	7 viloyatga bo'linadi va 2 ta respublika ahamiyatiga molik shahar mavjud.
<b>Ma'muriy huddiy bo'linish tuzilishii</b>	<b>Viloyatlar:</b> Jalolobod, O'sh, Botken, Talas, Norin, Issiqko'l va Chuy.
<b>Geografik joylashuvi</b>	Qirg'iziston – shimoli-sharqiy O'rta Osiyoda joylashgan davlat. Dengizga olib chiqadigan yo'li mavjud emas. Qirg'iziston Tyan-Shan (eng yuqori nuqta Pobeda cho'qqisi – 7439 m) va Pomir-Oloy tog' tizmalarida joylashgandir. Mamlakat hududining 90% dan ortig'i dengiz sathidan 1500 m balandlikda joylashgan. Asosiy daryolari – Norin, Chu, Talas. Yirik va mayda ko'llari juda ko'p (3000 dan ortiq), ularning ichida eng mashhuri Issiq ko'ldir. Iqlimi kontinental.
<b>Tabiiy boyliklari</b>	Neft, gaz, qo'ng'ir ko'mir, toshko'mir, oltin, temir, qo'rg'oshin, rux, mis, qalay, simob, volfram, surma ruda konlari mavjud
<b>Pul birligi</b>	<b>qirg'iz somi</b> – 1993-yil 10-maydan joriy etilgan
<b>YIM, mlrd AQSH dollarda</b>	<b>2014-yilda: 7,405 (397,3 mlrd som)</b> [35]
<b>Aholi jon boshi-ga, AQSH dollarida</b>	<b>2014-yilda: 1281,9</b>
<b>Sanoat tarmoqlari</b>	Qirg'iziston – industrial-agrar mamlakat hisoblanadi.

	Mamlakat sanoatining yetakchi tarmoqlari – mashinasozlik, rangli metallurgiya, yengil sanoat va oziq-ovqat sanoatlaridan iborat.
<b>Qishloq xo‘jaligi</b>	Qishloq xo‘jaligi asosini – qoramolchilik tashkil etadi. Ipakchilik, uzumchilik, urug‘chilik va mevachilik rivojlangan. Umumiy hududda qishloq xo‘jaligi yerlari – 32,5%, o‘rnmon – 13,1, suv fondi – 3,8 va boshqalar – 50,6% ni tashkil etadi.
<b>Transporti</b>	Relefining tog‘lik xarakteri tufayli Qirg‘izistonda temir yo‘l transporti yaxshi rivojlanmagan. Shu sababli eng yirik tarmoq avtomobil ransportidir.
<b>Xalqaro iqtisodiy aloqalari</b>	Go‘sht, paxta, jun, oltin, simob, uran, elektroenergiya, tamaki, ichimliklar va oziq-ovqat mahsulotlari eksport qilinadi. Neft, tabiiy gaz, mashina va qurilmalar, kimyoiy mahsulotlar, oziq-ovqat mahsulotlari import qilinadi. <b>Asosiy tashqi savdo hamkorlari: eksportda:</b> Shveytsariya – 27,2%, Rossiya – 19,2%, O‘zbekiston – 14,3%, Qozog‘iston – 11,4%, Fransiya – 6,7%. <b>Importda:</b> Rossiya – 36,6%, Xitoy – 17,9%, Qozog‘iston – 9,2%, Germaniya 8,2% va h.k.
<b>Xalqaro tashkilotlarga a’zoligi</b>	BMT, MDH, SHHT, XVF, JB, BST, OTB va boshqalar
<b>Internet domeni</b>	.kg
<b>Telefon kodi</b>	+996
<b>Soat millari</b>	UTC+6
<b>Nazorat savollari</b>	
1. Qirg‘izistonning davlat tuzumi qanday tashkil etilgan?	
2. Mamlakatning tabiiy sharoiti va resurslari.	
3. Aholisi va mehnat resurslari.	
4. Asosiy sanoat tarmoqlari qanday joylashgan?	
5. Qishloq xo‘jaligini tavsiflab bering.	
6. Transporti.	
7. Tashqi iqtisodiy aloqalari.	

## TOJIKISTON

<b>Rasmiy nomlanishi</b>	<b>TOJIKISTON RESPUBLIKASI</b>
<b>Mustaqillik sanasi</b>	<b>1991-yil 9-sentyabr</b>
<b>Davlat bayrog'i</b>	1992-yil 24-noyabrda tasdiqlangan 
<b>Davlat Gerbi</b>	1993-yil 28-dekabrda tasdiqlangan 
<b>Davlat tili</b>	<b>Tojik tili</b>
<b>Poytaxti</b>	<b>Dushanbe</b> 
<b>Yirik shaharlari</b>	Dushanbe, Xo'jand, Kulob, Qo'rg'ontep, Xorog.
<b>Boshqaruv shakli</b>	Prezidentlik Respublikasi

<b>Davlat tizimi</b>	Unitar davlat
<b>Parlamenti</b>	<b>Tojikiston Parlamenti</b> Yuqori palata— Majlisi (33), Quyi palata— Majlisi namoyondagon (63)
<b>Prezidenti</b>	<b>Emomali Raxmon</b>
<b>Hukumat Raisi (Bosh vazir)</b>	<b>Koxir Rasulzada</b>
<b>Aholi soni, kishi</b>	<b>2013-yilda: 8 161,1 ming</b>
<b>Aholisining o'rtacha zichligi, 1 km<sup>2</sup> ga/kishi</b>	<b>2013-yilda: 57,4</b>
<b>Aholisining tarkibi, %</b>	Tojikiston aholisi milliy tarkibi 2010-yildagi ma'lumotlarga ko'ra: tojiklar – 83,4, o'zbeklar – 12,2, qirg'izlar 0,8 va boshqa turli millat vakillari 3,6% ni tashkil qiladi.
<b>Dini</b>	<b>Dunyoviy davlat.</b> Aholining aksariyat qismi musulmonlar. Xristian diniga e'tiqod qiluvchilar ham bor. Ular, asosan, pravoslav, katolik va protestantlar (baptistlar)dir.
<b>Dunyo xaritasida</b>	
<b>Maydoni, ming km<sup>2</sup></b>	142,1 (93-o'rin)
<b>Suvli maydon, % da</b>	0,3

<b>Chegaranining umumiyligi, km</b>	Quruqlikdagi chegaranining umumiy uzunligi – 4503 km.
<b>Chegaradosh davlatlar</b>	O'rta Osiyoda eng kichik hududga ega bo'lgan davlat. Sharqda – Xitoy, shimol va g'arbda – Qirg'iziston va O'zbekiston, janubda esa – Afg'oniston bilan chegaradosh.
<b>Ma'muriy hududiy bo'li-nishi tarkibi</b>	<b>4 ta:</b> 2 ta viloyat, 1 ta avtonom viloyat va 1 ta poytaxt-shahar.
<b>Ma'muriy hududiy bo'li-nishining tuzilishi</b>	<b>Dushanbe shahri, viloyatlar:</b> So'g'd, Xatlon va Tog'li Badaxshon avtonom viloyati
<b>Geografik joylashuvi</b>	Markaziy Osiyoda joylashgan. Dengizga olib chiqadigan yo'li mavjud emas. Mamlakat hududining 93 % ini dunyoning eng yirik tog' tizmalari qatoriga kirgan Tyanshan, Hisor, Oloy va Pomir tog'lari egallab turadi. Yuqori nuqta – I.Somoni – 7495 m. Iqlimi keskin kontinental. <b>Asosiy daryolari:</b> Sirdaryo, Amudaryo va Zarafshon. <b>Yirik ko'llari:</b> Qorako'l, Iskandarko'l, Qayraqqum suv ombori.
<b>Tabiiy boyliklari</b>	Katta gidroenergetik salohiyatga ega. Mineral resurslarga boy mamlakat. Tojikistonning shimoldagi So'g'd viloyatida dunyoning eng yirik kumush konlaridan biri bo'lgan – Katta Konimansur joylashgan. Shuningdek, Tojikiston qimmatbaho toshlar, uran (ayrim ma'lumotlarga qaraganda jahon zaxrasining 16%), oltin, ko'mir, alyumin va yarim metall rudalarga boy.

<b>Pul birligi</b>	<b>Somoni</b> – 2000-yil 30-oktyabrdan boshlab joriy etilgan.
<b>YIM, mlrd AQSH dollarida</b>	<b>2014-yilda: 9,25 (45605,2 mln somoni)</b> [35]
<b>Aholi jon boshiba, AQSH dollarida</b>	<b>2014-yilda: 1133,48</b>
<b>YIMdagi ulushi, % da</b>	<b>2014-yilda:</b> YIM qishloq xo'jaligiga 18,9%, sanoatga – 21,9%, xizmat ko'rsatishga – 59,2% to'g'ri keladi.
<b>Sanoat tarmoqlari</b>	Tojikiston industrial-agrar mamlakat sanaladi. Tog'-kon, rangli metallurgiya, kimyo, mashinasozlik va metalni qayta ishlash va yengil sanoat. Yengil sanoat poytaxtda rivojlangan sanoat tarmoqlaridan biri. Bunga asosiy sabab paxta, ipak, jun va boshqa mahsulotlar mamlakatning o'zida yetishtiriladi.
<b>Qishloq xo'jaligi</b>	Qishloq xo'jaligining asosiy mahsulotlari: paxta, ipak, don, tamaki, sabzavot, mevalar va quruq mevalardan iborat. Umumiy hududda qishloq xo'jaligi yerlari – 50,3%, o'rmon – 26,7, suv fondi – 0,3 va boshqalar – 22,7% ni tashkil etadi.
<b>Transporti</b>	Tojikiston iqtisodiyotiga transport katta ta'sir ko'rsatadi. Temiryo'l – 680 km, avtomobil yo'llari – 27 ming km.dan ortiq, 549 km uzunlikdagi quvurlar mamlakatni O'zbekiston gazi bilan ta'minlaydi. Transport tizimida avtomobil asosiy o'rinni egallaydi. Dushanbe – Termiz, Dushanbe – Qo'rg'ontep, Dushanbe – Kulob, Dushanbe – Xo'jand, Xorog – O'sh avtomagistrallari mavjud. Havo yo'llari ham samarali hisoblanadi.

Xalqaro iqtisodiy aloqalar	<b>Eksportga</b> alyuminiy, rangli va noyob metallar rudasi, elektroenergiya, oltin, paxta, mevalar, o'simlik moyi, tekstil mahsulotlari chiqariladi. <b>Import orqali:</b> qorametall, neft mahsulotlari, yengil sanoat mollari, avtomobillar, qishloq xo'jaligi texnikasi, farmatsiyika vositalari, tibbiy uskunalar olib kiriladi. <b>Asosiy tashqi savdo hamkorlari, eksportda:</b> Nidyerlandiya – 36,7%, Turkiya – 26,5%, Rossiya – 8,6%, Eron – 6,6%, Xitoy – 5,7%. <b>Importda:</b> Rossiya 32,3 %, Xitoy – 11,9%, Qozog'iston – 8,8%, O'zbekiston – 4,7%.
Xalqaro tashkilotlarga a'zoligi	BMT, MDH, SHHT, JB, XVF, OTB, ITB va boshqalar
Internet domeni	.tj
Telefon kodи	+992
Soat millari	UTC+5

#### *Nazorat savollari*

1. Tojikistonning davlat tuzumi qanday tashkil etilgan?
2. Mamlakatning tabiiy sharoiti va resurslari.
3. Aholisi va mehnat resurslari.
4. Asosiy sanoat tarmoqlari qonday joylashgan?
5. Qishloq xo'jaligini tavsiflab bering.
6. Transporti.
7. Tashqi iqtisodiy aloqalari.

## TURKMENISTON

<b>Rasmiy nomlanishi</b>	<b>TURKMENISTON RESPUBLIKASI</b>
<b>Mustaqililik sanasi</b>	<b>1991-yil 27-oktyabr</b>
<b>Davlat bayrog'i</b>	1992-yil 19-fevralda tasdiqlangan 
<b>Davlat Gerbi</b>	1992-yil 19-fevralda tasdiqlangan 
<b>Davlat tili</b>	<b>Turkman tili</b>
<b>Poytaxti</b>	<b>Ashxabod</b> 
<b>Yirik shaharlari</b>	Ashxabod, Turkmanobod, Toshhovuz, Turkmanboshi, Mariy
<b>Boshqaruv shakli</b>	Prezidentlik Respublikasi

<b>Davlat tuzumi</b>	Unitar davlat
<b>Parlamenti</b>	<b>Bir palatali:</b> Majlis (125 a'zo)
<b>Prezidenti</b>	<b>Gurbanguli Myalikgulyevich Berdimuxamedov</b>
<b>Hukumat Raisi (Bosh vazir)</b>	<b>Akya Nuberdiyeva</b>
<b>Aholi soni, kishi</b>	<b>5 240 502</b>
<b>Aholisining o'rtacha zinch- ligi, 1 km<sup>2</sup> ga/kishi</b>	<b>10</b>
<b>Aholisining tarkibi, %</b>	Turkmanlar – 81%, o'zbeklar – 9, ruslar – 3,5, qozoqlar – 1,9, ozarbayjonlar, tatarlar va armanlar – 0,7% ni tashkil etadi.
<b>Dini</b>	Dunyoviy davlat. Turkmaniston aholisining aksariyat qismi musulmonlar (asosan sunniylar) – 89%. Xristianlar 9% va qolgan boshqa konfessiyalar – 2 dan iborat.
<b>Dunyo xaritasida</b>	
<b>Maydoni, ming km<sup>2</sup></b>	<b>491, 2</b>
<b>Suvli maydon, % da</b>	<b>4,9</b>

<b>Chegaranining umumiyligi, km</b>	3736 km
<b>Chegaradosh davlatlar</b>	Shimol va sharqda O'zbekiston (1621 km), shimolda Qozog'iston (379 km), sharqda va janubda Afg'oniston (744 km), janubda Eron (922 km)ni tashkil etadi.
<b>Ma'muriy hududiy bo'linishi tarkibi</b>	6 ta
<b>Ma'muriy hududiy bo'lini-shining tuziliishi</b>	<b>Ashxabod shahri, viloyatlar:</b> Axal, Balqon, Toshhovuz, Lebop va Mariy
<b>Geografik joylashuvi</b>	Markaziy Osiyoda joylashgan davlat. Qirg'oqlarini G'arbda Kaspiy dengizi suvlari yuvib turadi. Mamlakat hududining katta qismi – Qoraqum cho'li bilan qoplangan dashtlardan iborat. Janubi va janubi g'arbda – Kopetdag va Paropamiza tog'lari joylashgan. Yuqori nuqta – Ayrbobo – 3139 m. Iqlimi keskin kontinental. Asosiy daryolari – Amudaryo, Tajik.
<b>Tabiiy boyliklari</b>	Turkmaniston yerlari qimmatli foydali qazilmalarga ega: neft va tabiiy gaz, oltin-gugurt, qo'rg'oshin, mirabilit, yod, brom. Mamlakatda sanoatni rivojlantirish uchun kerak bo'ladigan xomashyolar: ohaktosh, mergel, dolomit, granit, gips, olovga chidamli loy, kvarsli qum, graviy va boshqalar mavjud. Kaspiy dengizidan neft qazib olinadi, baliqchilik sanoati ham ancha rivojlangan.
<b>Pul birligi</b>	<b>turkman manati</b> – 1993-yil 1-noyabrdan boshlab joriy etilgan

<b>YIM, mldr AQSH dollarida</b>	<b>2013-yilda: 40,16 [39]</b>
<b>Aholi jon boshiga, AQSH dollarida</b>	<b>2013-yilda: 9700 [39]</b>
<b>YIMdagi ulushi, % da</b>	<b>2013-yilda:</b> sanoat 34%, qishloq xo'jaligi – 10%, xizmat ko'rsatish – 56%.
<b>Sanoat tarmoqlari</b>	Neft va tabiiy gaz qazib olish – mamlakat iqtisodiyotining asosini tashkil etadi. To'qimachilik sanoati, neftkimyo va metalni qayta ishlash, elektrotexnika sanoati kabi tarmoqlar rivojlangan.
<b>Qishloq xo'jaligi</b>	Paxtachilik – qishloq xo'jaligida asosiy o'rinni egallab keladi. Polizchilik, sabzavotchilik, uzumchilik, qoramolchilik (qorako'l, qo'y qo'zi, tuya, ot boqiladi) bilan shug'ullanishadi. Umumiy hududda qishloq xo'jaligi yerlari – 69%, o'rmon – 25 va boshqalar – 6% ni tashkil etadi.
<b>Xalqaro iqtisodiy aloqlari</b>	<b>Eksportda:</b> gaz, neft, koks va boshqa neft mahsulotlari, elektroenergiya, kimyo mahsulotlari, paxta matolari, gilam va gilam buyumlari, teri va teri buyumlari, shoyi, sabzavotlar, mevalar, baliq va qora ikra hamda zotdor otlar yetkazib beriladi. <b>Import orqali:</b> mashina va uskunalar, transport vositalari, metall va metall qurilmalari, qora va rangli metall buyumlari, ko'mir, yog'och, kimyo vositalari, dorilar; sanoat iste'mol mollari, sanoat va qishloq xo'jaligi texnikalari, avtotransport, metall buyumlar va mineral o'g'itlar olib kiriladi. <b>Tashqi savdo hamkorlari, eksportda:</b> Ukraina – 51,6%, Polsha – 10%, Vengriya – 8%.,

	<b>importda:</b> Rossiya – 16,8%, Xitoy – 16,7%, Turkiya – 13,8%, Ukraina – 7,8%, Germaniya – 5,5%.
<b>Xalqaro tashkilotlarga a'zoligi</b>	BMT, MDH, OTB va boshqalar. 1995-yil 12-dekabrda BMTning Bosh assambleyasida Turkmanistonning «doimiy neytraliteti» qabul qilingan.
<b>Internet domeni</b>	.tm
<b>Telefon kodi</b>	+993
<b>Soat millari TMT</b>	(UTC+5)

### *Nazorat savollari*

1. Turkmanistonning davlat tuzumi qanday tashkil etilgan?
2. Mamlakatning tabiiy sharoiti va resurslari.
3. Aholisi va mehnat resurslari.
4. Asosiy sanoat tarmoqlari qanday joylashgan?
5. Qishloq xo'jaligini tavsiflab bering.
6. Tashqi iqtisodiy aloqalar.

### *Seminar mashg'ulotlari uchun savollar:*

**1-mashg'ulot:** MDH davlatlarining iqtisodiy geografik o'rniiga ta'rif. MDH davlatlarinig tabiiy sharoiti va resurslari. Rossiya Federasiyasining aholisi va mehnat resurlari, xo'jaligiga baho. Ichki tafovutlari.

**2-mashg'ulot:** MDH davlatlarining iqtisodiy geografik o'rniiga ta'rif. MDH davlatlarinig tabiiy sharoiti va resurslari. Ukraina, Belorussiya, Moldova, Ozarbayjon, Armaniston va Gruziya aholisi va mehnat resurlari, xo'jaligiga baho. Ichki tafovutlari.

**3-mashg'ulot:** Markaziy Osiyo (Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston) davlatlarining iqtisodiy geografik o'rniiga ta'rif: tabiiy sharoiti va resurslari tavsifi, aholisi va uning joylashuvi, xo'jaligining rivojlanish xususiyatlari. Markaziy Osiyo davlatlarining ichki tafovutlari.

## II BO'LIM. O'ZBEKISTONNING IQTISODIY GEOGRAFIYASI

### 8-BOB. O'ZBEKISTONNING JAHON XO'JALIGI TIZIMIDAGI O'RNI

<b>Reja:</b>	<b>8.1. O'zbekistonning jahonda tutgan o'rni 8.2. O'zbekistonning hududiy bo'linishi.</b>
<b>Tayanch ibroralar:</b>	Mustaqillik siyomatari, geografik joylashuv, iqtisodiy-geografik o'rinni, hukumat, ma'muriy-hududiy bo'linishi, ixtisoslashuv

#### 8.1. O'zbekistonning jahonda tutgan o'rni

<b>Rasmiy nomlanishi</b>	O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
<b>Mustaqillik sanasi</b>	<b>1991-yil 31-avgustda e'lon qilingan</b>
<b>Davlat bayrog'i</b>	1991-yil 18-noyabrda tasdiqlangan
	
	
<b>Davlat Gerbi</b>	1992-yil 2-iyulda tasdiqlangan
	
<b>Davlat tili</b>	O'zbek tiliga davlat tili ma'qomi 1989-yil 21-oktbrda berilgan

<b>Poytaxti</b>	<b>Toshkent shahri</b>
<b>Yirik shaharlari</b>	Toshkent, Samarqand, Buxoro, Namangan, Farg'ona, Andijon, Qarshi, Nukus, Urganch, Qo'qon
<b>Boshqaruv shakli</b>	Prezidentlik Respublikasi
<b>Davlat tuzumi</b>	Unitar davlat
<b>Parlamenti</b>	<b>Ikki palatali:</b> Oliy Majlis. Yuqori palata – Senat (100), Quyi qonunchilik palatasi (150)
<b>Prezidenti</b>	<b>Islom Abdug'aniyevich Karimov</b> (Birinchi Prezident – 1990–2016-yillar)
<b>Bosh vazir</b>	<b>Shavkat Miromonovich Mirziyoyev</b> (2016-yil sentyabr oyidan Prezident vazifasini bajaruvchi)
<b>Aholi soni, kishi</b>	<b>2015-yilda: 31,2 mln</b>
<b>Aholisining o'rtacha zichligi, 1 km<sup>2</sup> ga/kishi</b>	<b>2015-yilda: 75,8</b>
<b>Aholisining tarkibi, %</b>	Aholining 83,8%ini o'zbeklar, 10%ini boshqa Osiyo qit'asi vakillari (4,5% tojiklar, 2,3% qozoqlar, 2,2% qoraqalpoqlar, 1% qirg'izlar va turkmanlar) tashkil qiladi.

	Qolgan 5% ini ruslar va boshqa slavyan xalqlari vakillaridan, yana 1,2%i turli (tatar, uyg'ur, ozarbayjon, turk, arab, koreys va h.k.) millatlaridan iborat.
<b>Dini</b>	<b>Dunyoviy davlat.</b> Shu jumladan, diniy e'tiqodiga ko'ra: islom – sunniylar, xristian – pravoslav va boshqa diniy konfessiyalar mavjud.
<b>Dunyo xaritasida</b>	
<b>Maydoni, ming km<sup>2</sup></b>	448,97
<b>Suvli maydon, %</b>	4,9
<b>Chegaraning umumiyligi, km</b>	6221
<b>Chegaradosh davlatlar</b>	<b>5 ta</b> qo'shni davlatlar: sharqda – Qirg'iziston (1099 km); shimoli-sharqda, shimolda va shimoli-g'arbda – Qozog'iston (2203 km); janubi-g'arbda va janubda – Turkmaniston (1621 km); janubda – Afg'oniston (137 km) va janubi-sharqda-Tojikiston (1161 km) bilan chegaradosh.
<b>Geografik joylashuvi</b>	O'zbekiston O'rta Osiyoning markaziy qismida joylashgan. O'zbekistonning kenglik bo'yicha shimoldagi chekka nuqtasi Ustyurt platosi ( $45^{\circ} 36'$ shim. kenglik)da, eng janubiy nuqtasi Termiz shahri yonida

	(37° 11' shim. kenglikda) joylashgan. Uzoqlik bo'yicha esa chekka nuqtalar 56° 00' dan 73° 10' sharqiy uzoqlikkacha boradi. Ana shu geografik nuqtaiar bo'yicha mamlakat hududi g'arbdan sharqqa 1400 km, shimaldan janubga 925 km masofaga cho'zilgan. Yuqori nuqta – Hisor tog'i – 4643 m. Farg'ona vodiysiga tegishli bo'lgan O'zbekistonning 4 ta anklav hududi Qirg'izistonda joylashgan. O'zbekistonda 2 ta anklav hududning biri Tojikistonga va yana biri Qirg'izistonga tegishli.
<b>Pul hirligi</b>	<b>O'zbek so'mi</b> – 1994-yil 1-iyuldan joriy etilgan.
<b>YIM, so'm</b>	<b>2014-yilda:</b> 144867,9 mlrd so'mni tashkil etib, 2013-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 108,1 foizni ta'mintadi. <b>Asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar dinamikasi 35-ilovada keltiriilgan.</b>
<b>Aholi jon boshiga</b>	<b>2014-yilda:</b> 4625,4 ming so'mni tashkil etdi.
<b>YIMdagi ulushi, % da</b>	<b>2013-yilda:</b> sanoat – 24,2; qishloq xo'jaligi – 17,6; qurilish – 6,0; transport va aloqa – 12,0; savdo – 8,5; boshqalar – 23,8; mahsulotlarga sof soliqlar – 8,0
<b>Internet domeni</b>	.uz
<b>Telefon kodi</b>	+998
<b>Soat millari</b>	+5
<b>8.2. O'zbekistonning ma'muriy-hududiy bo'linishi</b>	
<b>Ma'muriy hududiy bo'linishi tarkibi</b>	14 ta subyekt (respublika – 1, viloyatlar – 12, respublika ahamiyatiga ega shahar – 1). Jami 193 ta tuman va shahardan tashkil topgan.

**Ma'muriy hududiy  
bo 'imishi tuzilishi**



Qoraqalpog'iston Respublikasi. Viloyatlar: Andijon, Buxoro, Jizzax, Qashqadaryo, Namangan, Navoiy, Samarcand, Surxondaryo, Sirdaryo, Toshkent, Farg'ona, Xorazm. Poytaxt: Toshkent shahri.

**O'zbekiston Respublikasi ma'muriy-hududiy bo'limishi to "g'risidagi ma'lumot  
22-ilovada berilgan.**

<b>Qoraqol-pog'iston Respublikasi</b>	<p><b>poytaxti</b> – Nukus sh., hududi – 166,6 ming km<sup>2</sup>, aholisi – 1692,8 ming kishi, 14 ta tuman: Amudaryo, Beruniy, Konliko'l, Qorao'zak, Kegeyli, Qo'n-g'irot, Mo'ynoq, Nukus, Taxtako'pir, To'rtko'l, Xo'jayli, Chimboy, Shurnanay, Ellikqal'a.</p> <p><b>Qishloq xo'jaligi:</b> paxtachilik, sholichilik, qora-ko'lchilik, sabzavot va poliz mahsulotlarini yetishtirish.</p> <p><b>Sanoati:</b> metallni qaytaishlash, elektroenergetika, to'qimachilik, oziq-ovqat va boshqa tarmoqlar.</p>
<b>Andijon viloyati</b>	<p><b>markazi</b> – <b>Andijon sh.</b>, hududi – 4,3 ming km<sup>2</sup>, aholisi – 2714,2 ming kishi, 14 ta tuman: Andijon, Oqoltin, Asaka, Bاليqchi, Bo'z, Buloqboshi, Jalolquduq, Izboskan, Qo'rg'ontep, Marhamat, Paxtaobod, Ulug'nor, Xo'jaobod, Shahrixon.</p> <p><b>Qishloq xo'jaligi:</b> donchilik, paxtachilik, ipakchilik, meva va uzum mahsulotlarini yetishtirish.</p> <p><b>Sanoati:</b> foydali qazilmalar, neft va tabiiy gazni qazib olish va qayta ishslash, qurilish sanoati, to'qimachilik sanoati va h.k.</p>
<b>Buxoro viloyati</b>	<p><b>markazi</b> – <b>Buhoro sh.</b>, hududi – 40,32 ming km<sup>2</sup>, aholisi – 1707,4 ming kishi, 11 ta tuman: Olot, Buxoro, Vobkent, G'ijduvon, Jondor, Kogon, Qorako'l, Qorovulbozor, Peshku, Romiton, Shofirkon.</p> <p><b>Qishloq xo'jaligi:</b> donchilik, paxtachilik, chorvachilik, ipakchilik, meva va sabzavot mahsulotlarini yetishtirish.</p> <p><b>Sanoati:</b> to'qimachilik, neft va tabiiy gaz, qimatbaho metallarni qazib olish va qayta ishslash.</p>
<b>Jizzax viloyati</b>	<p><b>markazi</b> – <b>Jizzax sh.</b>, hududi – 21,21 ming km<sup>2</sup>, aholisi – 1186,6 ming kishi, 12 ta tuman: Arnasoy, Baxmal, G'allaorol, Jizzax, Do'stlik, Zomin, Zarbdor, Mirzacho'l, Paxtakor, Forish, Yangiobod.</p>

	<p><b>Qishloq xo‘jaligi:</b> donchilik, paxtachilik, chorvachilik mahsulotlarini etishtirish.</p> <p><b>Sanoati:</b> elektroenergetika, qora va rangli metallurgiya, kimyo va oziq-ovqat, mashinasozlik, yog‘ochni qayta ishlash, qurilish materiallari ishlab chiqarish.</p>
<b>Qashqada-ryo viloyati</b>	<p><b>markazi – Qarshi sh.</b>, hududi – 28,57 ming km<sup>2</sup>; aholisi – 2777,8 ming kishi, 13 ta tuman: G‘uzor, Dehqonobod, Qamashi, Qarshi, Koson, Kasbi, Kitob, Mirishkor, Muborak, Nishon, Chiroqchi, Shahrisabz, Yakkabog‘.</p> <p><b>Qishloq xo‘jaligi:</b> donchilik, paxtachilik, chorvachilik, sabzavot-meva, ipakchilik mahsulotlarini yetishtirish.</p> <p><b>Sanoati:</b> neft, tabiiy gaz, oltingugurt, sink, marmar va tuzni qazib olish va qayta ishlash, to‘qmachilik va oziq-ovqat tarmoqlari.</p>
<b>Navoiy viloyati</b>	<p><b>markazi – Navoiy sh.</b>, hududi – 110,99 ming km<sup>2</sup>, aholisi – 881,2 ming kishi, 8 ta tuman: Konimex, Karmana, Qiziltepa, Navbahor, Nurota, Tomdi, Uchquduq, Xatirchi.</p> <p><b>Qishloq xo‘jaligi:</b> donchilik, paxtachilik, bog‘dorchilik, chorvachilik, qorako‘l, ipakchilik mahsulotlarini yetishtirish.</p> <p><b>Sanoati:</b> energetika, tog‘-kon sanoati, qurilish materiallari, oltin qazib olish.</p>
<b>Namangan viloyati</b>	<p><b>markazi – Namangan sh.</b>, hududi – 7,44 ming km<sup>2</sup>, aholisi – 2420,6 ming kishi, 11 ta tuman: Kosonsoy, Mingbuloq, Namangan, Norin, Pop, To‘raqo‘rg‘on, Uychi, Uchqo‘rg‘on, Chortoq, Chust, Yangiqo‘rg‘on.</p> <p><b>Qishloq xo‘jaligi:</b> paxtachilik, bog‘dorchilik, uzumchilik, ipakchilik, sabzavotchilik va chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish.</p>

	<b>Sanoati:</b> elektrotexnika, kimyo mahsulotlari, to'qimachilik, vinochilik va konserva mahsulotlarni ishlab chiqarish
<b>Samarqand viloyati</b>	<p><b>markazi – Samarqand sh.</b>, hududi – 16,77 ming km<sup>2</sup>, aholisi – 3326,2 ming kishi, 14 ta tuman: Oqdaryo, Bulung‘ur, Jomboy, Ishtixon, Katta - qo‘rg‘on, Qo‘shraobod, Narpay, Nurobod, Poyariq, Pasdarg‘om, Paxtachi, Samarqand, Toyloq, Urgut.</p> <p><b>Qishloq xo‘jaligi:</b> paxtachilik, bog‘dorchilik, uzumchilik, ipakchilik, tamaki mahsulotlarini yetishtirish.</p> <p><b>Sanoati:</b> mashinasozlik, oziq-ovqat, elektr qurilmalar, lift, qurilish materiallari, tikuvchilik va chinni buyumlari ishlab chiqarish.</p>
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<p><b>markazi – Guliston sh.</b>, hududi – 4,28 ming km<sup>2</sup>, aholisi – 739,5 ming kishi, 8 ta tuman: Oqoltin, Boyovut, Guliston, Mirzaobod, Sardoba, Sayxunobod, Sirdaryo, Xovos.</p> <p><b>Qishloq xo‘jaligi:</b> donchilik, paxtachilik, bog‘dorchilik, chorvachilik, ipakchilik mahsulotlarini yetishtirish.</p> <p><b>Sanoati:</b> mashinasozlik, qurilish materiallari, yengil sanoat, un mahsulotiari ishlab chiqarish.</p>
<b>Surxon-daryo viloyati</b>	<p><b>markazi – Termiz sh.</b>, hududi – 20,1 ming km<sup>2</sup>, aholisi – 2218,9 ming kishi, 14 ta tuman: Oltinsoy, Angor, Boysun, Bandixon, Denov, Jarqo‘rg‘on, Qumqo‘rg‘on, Qiziriq, Muzrabod, Sariosiyo, Termiz, Uzun, Sherobod, Sho‘rchi.</p> <p><b>Qishloq xo‘jaligi:</b> paxtachilik, polizchilik, subtropik mevalar, chorvachilik, qorako‘lchilik mahsulotlarini yetishtirish.</p> <p><b>Sanoati:</b> oziq-ovqat, yengil, neft va tabiiy gaz, ko‘mir, rudalar, fosfat, qimmatbaho va rangli metallar, tuz qazib olish va qayta ishlash.</p>

<b>Farg'ona viloyati</b>	<p><b>markazi – Farg'ona sh.</b>, hududi – 6,76 ming km<sup>2</sup>, aholisi – 3280,8 ming kishi, 14 ta tuman: Oltiariq, Oxunboboyev, Bag'dod, Beshqir, Buvayda, Dang'ara, Quva, Rishton, So'x, Toshloq, O'zbekiston, Uchko'pir, Farg'ona, Furqat, Yozyovon.</p> <p><b>Qishloq xo'jaligi:</b> don mahsulotlari, paxtachilik, sabzavot, kartoshka, tuxum, sut, asal, chorvachilik va ipakchilik mahsulotlarini yetishtirish.</p> <p><b>Sanoati:</b> neftni qazib olish va qayta ishlash, mineral o'g'itlar, qurilish materiallari, xalq iste'mol tovarlari, oziq-ovqat, to'qimachilik va kimyo mahsulotlarini ishlab chiqarish</p>
<b>Xorazm viloyati</b>	<p><b>markazi – Urganch sh.</b>, hududi – 6,05 ming km<sup>2</sup>, aholisi – 1629,1 ming kishi, 10 ta tuman: Bog'ot, Gurlan, Qo'shko'pir, Urganch, Xazorasp, Xonqa, Xiva, Shovot, Yangiariq, Yangibozor.</p> <p><b>Qishloq xo'jaligi:</b> sholi, bug'doy, paxta, uzum, kartoshka, chorvachilik, qorako'l mahsulotlarini yetishtirish.</p> <p><b>Sanoati:</b> yengil, oziq-ovqat, mashinasozlik, paxtani qaytaishlash, un mahsulotlarini ishlab chiqarish</p>
<b>Toshkent viloyati</b>	<p><b>markazi – Toshkent sh.</b>, hududi – 15,25 ming km<sup>2</sup>, aholisi – 2671,0 ming kishi, 14 ta tuman: Oqqo'rg'on, Ohangaron, Bekobod, Bo'stonliq, Bo'ka, Zangiota, Qibray, Quyichirchiq, Parkent, O'rtachirchiq, Chinoz, Yuqorichirchiq, Yangiyo'l.</p> <p><b>Qishloq xo'jaligi:</b> paxtachilik, donchilik, bog'dor-chilik, uzumchilik, ipakchilik, parranda va chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish.</p> <p><b>Sanoati:</b> metallurgiya, mashinasozlik, elektr energetika, kimyo, to'qimachilik, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish</p>

<b>Toshkent shahri</b>	<p><b>bududi – 260 km<sup>2</sup></b>, aholisi – 2,3 mln kishi, 11 ta tuman: Bektemir, MirzoUiug‘bek, Mirobod, Olmazor, Sirg‘ali, Uchtepa, Chilonzor, Shayxontohur, Yunusobod, Yashnobod, Yakkasaroy.</p> <p><b>Sanoati:</b> mashinasozlik, elektr qurilmalari, yengil sanoat, shuningdek, oziq-ovqat, xalq iste’moli tovarlari ishlab chiqariladi.</p>
------------------------	---

### ***Nazorat savollari***

1. O‘zbekistonning jahonda tutgan o‘rnini tushuntiring.
2. O‘zbekiston qanday qilib mustaqillikka erishdi?
3. O‘zbekistonda ma’muriy-hududiy bo‘linish prinsipi haqida gapirib bering.
4. Ma’muriy-hududiy bo‘linishdagi afzalliklar nimalaridan iborat?

### ***Seminar mashg‘uloti uchun savollar:***


O‘zbekiston Respublikasining tashkil topishi, yangilanish va taraqqiyotning o‘zbek modeli. O‘zbekistonning geografik o‘rni, ma’muriy-hududiy bo‘linishi. Iqtisodiy-geografik o‘rni, maydoni va chegaralari. O‘zbekistonning dunyo miqyosidagi (global) – makro o‘rnini baholash. O‘zbekistonning ma’muriy – hududiy bo‘linishi.

## **9-BOB. O'ZBEKISTONNING TABIIY RESURS SALOHIYATI**

<b>Reja:</b>	<b>9.1. O'zbekistonning tabiiy sharoiti va resurslari.</b> O'zbekistonning tabiiy resurslar bilan ta'minlanganligi va ularni baholash. <b>9.2. Tabiiy resurslarning joylashuvi. Tabiatdan oqilona foydalanish va tabiat muhofazasi muammolari.</b>
<b>Tayanch iboralar:</b>	Tabiiy resurslar, foydali qazilmalar, minerallar
<b>O'zbekistonning tabiiy resurs salohiyati</b>	<b>9.1. O'zbekistonning tabiiy sharoiti va resurslari.</b> <b>O'zbekistonning tabiiy resurslar bilan ta'minlanganligi va ularni baholash</b>  <b>O'zbekistonning tabiiy resurs salohiyati</b> Foydali qazilmalar mamlakatning turli hududlarida keng tarqalgan. «O'zbekiston, — degan edi Birinchi Prezident Islom Karimov, — o'z yer osti boyliklari bilan haqli suratda faxrlanadi — bu yerda Mendeleyev davriy sistemasining deyarli barcha elementlari topilgan. Hozirga qadar 2,7 mingdan ziyod turli foydali qazilma konlari va ma'danlar bo'lgan istiqbolli joylar aniqlangan. Ular 100 ga yaqin mineral xomashyo turlarini o'z ichigaoladi. Ularning tasdiqlangan zaxiralari qiymati 970 milliard AQSH dollarini tashkil etadi. Shu bilan birga, umumiy mineral-xomashyo potensiali 3,3 trillion AQSH dollaridan ortiqroq baholanayotganini ham aytib o'tish kerak».

O'zbekiston  
Respublikasi  
foydali  
qazilmalari  
xaritasi

卷之三



<b>Foydali qazilma topilmalaridan foydalanishda turkumlanish</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>Yoqilg'i-energetika (neft, tabiiy gaz, ko'mir, uranrudasi, torf);</li> <li>rudalar (qora, rangli, nodir va qimmatbaho metallar);</li> <li>Kimyoiy xomashyo (fosforit, apatit, kaliy, tuz, oitingugurt va h.k);</li> <li>Tabiiy qurilish materiallari va rudasiz foydali qazilmalar (ohaktosh, sement, qimatbaxo toshlar, mineral suvlari va h.k.)</li> </ul>
<b>Yoqilg'i-energetika resurslariga (ko'mir, neft va tabiy gaz)</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>Ko'mir zaxiralari 2 mldr tonnadan ziyod. Ular Toshkent viloyati (Angrenda qo'ng'ir ko'mir), Surxondaryo viloyatida (Sharg'un, Boysun, Ko'g'itonda toshko'mir konlari) mavjud.</li> <li>Angren, Sharg'un va Boysun konlariда ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan. Shuningdek, Toshkent viloyati atroflarida va Hisor vohalari istiqbolli zaxiralarga ega.</li> <li>O'zbekiston hududida 160 dan ziyod neft va 115 ta tabiiy gaz konlari aniqlangan. Neft zaxirasi 350 mln tonnani, tabiiy gaz esa 2 trln kub.m.ni tashkil qiladi. Neftning asosiy manbalari Farg'ona, Janubi-g'arbiy Hisor, Surxondaryo vohalarida mujassamlashgan. Zaxiralar hozirgi foydalinishda neft bo'yicha 30-yilga, gaz bo'yicha esa 35 yilga yetadi.</li> <li>Respublikada zaxirasi sanoatda ishlatilishi mumkin bo'lgan 160 dan ortiq neft va gaz konlari ochilgan. Ulardan 115 tasi Buxoro-Xiva havzasida, 27 tasi Farg'ona vodiysi, 10 tasi Surxondaryo, 7 tasi Ustyurtda joylashgan. Mazkur konlarning gaz, gaz-kondensati, gaz-neft, neft, gaz-neft kondensatli va neft-gaz kondensatli turlari mavjud [17].</li> </ul>
<b>Rudalar</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>O'zbekistonda qora metallardan temir, marganets va xrom aniqlangan. Hozirgi paytda mamlakat hududida 200 dan ortiq temir ruda konlari ma'lum.</li> </ul>

	<ul style="list-style-type: none"> <li>Temir zaxiralari istiqboli 2,2 mld tonnani tashkil yetadi.</li> <li>Qimmatbaho metall tarkibidan o'rin olgan oltin zaxiralari Muruntou va Angren atroflaridagi konlarda mavjud. Yiliga 80--90 tonna oltin ishlab chiqarilishi yo'lga qo'yilgan.</li> <li>O'zbekistonda bir yilda o'rtacha 5 ming tonna mis ishlab chiqariladi.</li> <li>O'zbekiston yirik hajmdagi radioktiv metall zaxiralariga ega bo'lib, dunyoda yetakchi o'rirlarni egallaydi. Masalan, Uchquduq hududi uran rulariga ega. Navoiy tog'-kon metallurgiya kombinati jahon bozorini uran rudasi bilan ta'minlashda 3-o'rinni egallaydi.</li> </ul>
<b>Kimyoviy xomashyo</b>	Mamlakatimiz hududida kaliy, osh tuzi va fosforitning katta zaxiralari aniqlangan. Magniy va natriyning sul'fat tuzlari esa kam uchraydi. Fosforitning katta konlari Qizilqumda topilgan. Uning Ovminzatog', Bukantog', Toshqazgan, Quljiktog' va Boysun tog'larida topilgan konlari, ayniqsa, istiqbollidir. Talk va talk toshining sanoat ahamiyatiga ega to'planmalari faqat Sulton Uvays tog'larida uchraydi. Talkdan qishloq xo'jalik zararkunandalariga qarshi kurash vositasi sifatida hamda tibbiyotda dorddarmon tayyorlashda foydalaniadi.
<b>Tabiiy qurilish materiallari va rudasiz foydali qazilmalar</b>	O'zbekiston qurilish sanoati uchun ishlatiladigan xomashyo (qum, qumtos, ohaktosh, granit, marmar, tog' biiluri, yashma, marmarsimon oniks kabilalar) ga boy. Ayniqsa, G'ozg'on marinari (Navoiy viloyati) mo'jizakor sifatining dovrug'i «yetti iqlim»ga yetgan. Mamlakatdagi deyarli barchadaryo o'zan va yoyilma yotqiziqlarida shag'al, qum, shag'altosh, shuningdek kvars oqqumi ko'p tarqalgan.

Oqqum oyna va kulolchilik sanoatining qimmatli xomashyosi hisoblanadi. Oqqum konlari Toshkent viloyati (May va Ozodboshi qishloqlari hududi)da, Navoiy shahrining yaqinida, Farg'ona vodisida ko'p uchraydi.

<b>Mineral suv resurslari</b>	Mamlakat hududining litologik jinslar majmuida muayyan miqdorda yerosti suv zaxiralari mavjud. Yer osti suvlarining (shifobaxsh) 100 ga yaqin istiqbolli chashmalari o'r ganilgan. Mutaxassislarining aniqlashicha, mamlakat yerosti suvlarining o'rni qaytadan tiklanib turuvchi zaxirasi sekundiga 1000 m <sup>3</sup> ga teng.
-------------------------------	---

## **9.2. Tabiiy resurslarning joylashuvi. Tabiatdan oqilona foydalanish va tabiat muhofazasi muammolari**

<b>Yer fondi</b>	Mamlakatimizning yer fondi 44,405 ming ga, shundan qishloq xo'jalik yer turlarining umumiy maydoni 26,8 mln ga. Ularning katta qismi (82,8 foiz)ni Qizilqum, Ustyurt va boshqa cho'l hamda tog'oldi, tog' yaylovlari egallaydi; o'rmon va butazorlar 5,4 foizni, ko'p yillik daraxtazorlar 1,3 foizni, pichanzorlar 0,42 foizni, bo'z yerlar 0,3 foizni tashkil etadi. Umumiy hududda qishloq xo'jaligi yerkari – 22,6%, o'rmon – 3,1, suv fondi – 1,8 va boshqalar – 35,6% maydonni egallaydi.
------------------	---

<b>Tuproq resurslari</b>	Tuproqning tabiiy holati, ya'ni, donadorligi, chirindi miqdori, madaniylashish darajasi dehqonchilikning hosildorligiga ta'sir ko'rsatadi. Mamlakatning tekislik mintaqalarida oddiy bo'z tuproq, tog' yonbag'iirlarida, asosan, bo'z tuproq, tog'larda to'q tusli bo'z tuproq keng tarqalgan. Ularning chirindi miqdori qora yoki kashtan tuproqlarinikiga nisbatan 4–6 marta kam bo'lsa ham,
--------------------------	--

	ona jinsining donadorligiga va quyosh nurini ko'p qabul qilishiga ko'ra, unumtdorligi ancha yuqori.
<b>O'zbekistonning yirik daryolari</b>	Norin va Qoradaryo, So'xva Chirchiq, Zarafshon va Qashqadaryo, Surxondaryo va Sherobod kabi daryolar bor. Mamlakatning yirik suv arteriyalari hisoblangan Amudaryo va Sirdaryo hamda ularning irmoqlari O'zbekiston hududidan tashqarida boshlanadi. Shuning uchun ham Amudaryoning yillik o'rta oqim suv hajmi $79 \text{ km}^3$ bo'lgani holda, uning 8 foizi; Sirdaryoning yiiliko'rta oqim suv miqdori $38 \text{ km}^3$ bo'lgani holda uning faqat 10 foizi O'zbekiston hududida hosil bo'ladi.

### ***Nazorat savollari***

1. O'zbekistonning tabiiy resurslari salohiyatiga baho bering.
2. O'zbekistonda foydali qazilmalar qanday turkumlanadi?
3. O'zbekistonda yoqilg'i energetikasi uchun qanday zaxiralar bor?
4. O'zbekistonda qanday ruda kontlari bor?
5. Yer fondi resurslaridan qanday foydalanylapti?
6. Suv resurslaridan qanday foydalanylapti?

### ***Seminar mashg'ulotlari uchun savollar:***

O'zbekistonning tabiiy sharoiti va resurslari. O'zbekistonning tabiiy resurslar bilan ta'minlanganligi va ularni baholash.

Tabiiy resurslarning tarqalishi. Tabiatdan oqilona foydalananish va tabiat muhofazasi muammolari.

## **10-BOB. O'ZBEKISTON AHOLISI VA MEHNAT RESURSLARI**

<b>Reja:</b>	<b>10.1. O'zbekiston aholisi dinamikasi.</b> <b>10.2. Abolining jinsiy va yosh tarkibi.</b> <b>10.3. Mehnat resurslari va aholi bandligi.</b>
<b>Tayanch iboralar:</b>	Aholi dinamikasi, hududlar aholisi, zichligi, milliy tarkibi, populyasiyasi, migratsiyasi, mehnat resurslari, aholi bandligi

### **10.1. O'zbekiston aholisi dinamikasi**

<b>O'zbekis- ton aholisi</b>	O'zbekistonning aholisi 2015-yilning boshiga kelib 31,2 million nafardan ortib ketdi. O'zbekiston aholisi sonining ko'pligi bo'yicha MDHda uchinchi o'rinda turadi. Bu yerda Markaziy Osiyo davlatlari umumiy aholisining salkam 44 foizi yashaydi.
<b>Aholi dinamikasi</b>	Agar aholi 1940-yilda 6551 ming kishini tashkil etgan bo'lsa, 1970-yilda 11799 ming kishi, 1990-yilda 20322 ming kishi, 2010-yilda 28520 ming kishini tashkil etdi. Aholining o'sishi tarixiy-an'anaviy va ijtimoiy-iqtiso-diy xususiyatlarga ega. Uzoq va yaqin o'tmishda O'zbekiston murakkab tarixiy yo'lui bosib o'tdiki, bu narsa mamlakat aholisining dinamikasiga hamda demografik va migratsion holatlariga bevosita ta'sir ko'rsatdi. Mamlakat aholisi va uning tarkibi, ayniqsa, XIX asrning o'rtalaridan boshlab jiddiy o'zgarishlarni boshidan kechirdi.

Chor Rossiyasining Turkiston hududini istilo qilishi natijasida aholi soni, uning milliy va jinsiy tarkibi, ko‘payish darajasi, joylashuv xususiyatlari o‘zgardi. XIX asrning so‘nggi 35 yili davomida O‘zbekiston hududiga Rossiyadan 70—75 ming kishi, XX asrning dastlabki 18 yilida— 229,2 ming kishi, 1926—1939-yillarda esa 650 ming kishi ko‘chib kelgan. Aholi sonida yuz bergen o‘sish fashistlar bosib olgan hududlardan ko‘chirib keltirilgan odamlar hisobiga yuz berdi. 1940—1945-yillarda O‘zbekiston aholisi 1,4 mln. kishiga kamayib ketdi.

Mamlakat aholisi urushdan keyingi yillarda, asosan, tabiiy o‘sish tufayli ko‘paymoqda. Mamlakat aholisi 1945—1950-yillarda bir million nafarga, 1950—1960-yillarda 2,2 mln, 1960—1970-yillarda 3,4 mln, 1970—1980-yillarda 3,7 mln kishiga, 1980—1990-yillarda 4,6 mln, 1990—1999-yillarda 3,7 mln nafarga ko‘paydi. Agar aholi soni 2000-yilda 24487,7 ming kishini tashkil etgan bo‘lsa, 2014-yilda 31330 ming kishiga yetdi [35].

**O‘zbekiston aholisining soni, o‘sish surʼtlari va joylashishi 23-ilovada berilgan. O‘zbekistonning doimiy aholi soni 24-ilovada berilgan.**

## 10.2. Aholining jinsiy va yosh tarkibi

<b>O‘zbekiston aholisi tarkibi</b>	O‘zbekistonda jami aholi sonidagi tub xalqlarning ulushi 83,8 foizni tashkil qiladi. Mamlakat qishloqlarida yashovchi tub aholi esa 96,7 foizga teng. Hududda rus, qozoq, qoraqalpoq, tojik, tatar, qrim-tatarlar, ozarbayjon, boshqirdlar, uyg‘urlar va koreyslar ham yashaydi. Mustamlakachilik yillarida mamlakatimizga ko‘p-gina slavyan xalqlari vakillari kirib keldi. Ularning umumiy soni 3 mln. atrofida.
------------------------------------	--

	Ruslar bilan birga yurtimizga ukrainlar, beloruslar, polyaklar, chexlar, slovaklar, bolgarlar ham kirib keldi. Shu tariqa, mamlakatimiz aholisi tobora ko'p millatli bo'lib bordi.
<b>Aholi zichligi</b>	mamlakatning geografik rayonlari aro keskin farq mavjud. Masalan, Farg'ona vodiysida joylashgan Andijon viloyatida har bir km <sup>2</sup> ga 511,8 kishi to'g'ri kelgani holda Qoraqalpog'iston Respublikasida 8,9, Navoiy viloyatida 7,0 kishiga to'g'ri keladi. Viloyatlar o'rtasida aholi zichligi nisbati 73 martaga farq qildi.
<b>Shahar aholisi</b>	1940-yilda shahar aholisi 24,5 foizni, 1959-yilda 33 foizni, 1970-yilda 36,6 foizni, 1979-yilda 41,2 foizni, 1989-yilda 40,7 foizni va 2003-yilda esa 38,8 foizni tashkil qildi.
<b>Aholining jinsiy va yosh tarkibi</b>	Ikkinci jahon urushiga erkaklarning safarbar qilinishi natijasida O'zbekiston aholisining mutlaq miqdori bir million kishiga kamaydi va 1959-yilda o'tkazilgan aholi ro'yxati bo'yicha erkaklar soni 48 foizga tushib qoldi, ayni bir paytda ayollar umumiy aholining 52 foizini tashkil qildi. Urushdan keyingi tinch qurilish yillarida aholi jinsiy tarkibidagi katta farq barham topa bordi. 2003-yilda mamlakat aholisining 49,8 foizini erkaklar tashkil qildi, ya'ni 1000 erkakka 1026 ayol to'g'ri keldi. Mamlakatimizda tabiiy o'sishning yuqoriligi aholining yosh tarkibiga katta ta'sir ko'rsatib kelmoqda. Shuning uchun ham aholi nisbatida yosh bolalar va o'smirlarning salmog'i katta. 2002-yilda o'tkazilgan aholi ro'yxati ma'lumotlariga ko'ra, mamlakat aholisining 40,8 foizini 0–14 yoshdagি bolalar va o'smirlar, 28,3 foizini 15–29 yoshdagilar, ya'ni umumiy aholining 69,1 foizini bolalar, o'smirlar va mehnat qobiliyatiga ega bo'lgan yoshlар tashkil etgan. 1991-yilda o'rtacha umr ko'rish

70,3 (erkaklar – 67,3, ayoilar – 73,3) yoshga teng bo‘lgan bo‘lsa, 2014-yilda 73,5 yosh (erkaklar – 71, ayollar – 76)ni tashkil etdi.

**O‘zbekistonda tuzilgan nikohlar soni, ajralishlar, tug‘ilganlar, o‘limlar, ko‘chib kelganlar va ko‘chib ketganlar soni to‘g‘risidagi ma’lumotlar 25–30-ilovalarda berilgan.**

### 10.3. Mehnat resurslari va aholi bandligi

<b>Mehnatga layoqatli yoshdagi mehnatga layoqatli aholi</b>	ishlamayotgan birinchi va ikkinchi guruh nogironlaridan hamda yoshiga ko‘ra imtiyozli shartlarda nafaqa oluvchi shaxslardan tashqari, mehnatga layoqatli yoshdagi shaxslar (16 yoshdan 60 yoshgacha bo‘lgan erkaklar va 16 yoshdan 55 yoshgacha bo‘lgan xotin-qizlar)ni o‘z ichiga oladi.
<b>Iqtisodiy faol aholi</b>	— mehnat bilan band bo‘lgan va ishsiz fuqarolar.
<b>Iqtisodiy faol bo‘lмаган aholi</b>	— mehnat bilan band va ishsiz deb hisoblanmaydigan shaxslar, shu jumladan: <ul style="list-style-type: none"> <li>• ishlab chiqarishdan ajralgan holda ta‘lim olayotgan hamda ish haqiga yoki mehnat daromadiga ega bo‘lмаган o‘quvchilar va talabalar;</li> <li>• ishlamayotgan uchinchi guruh nogironlari;</li> <li>• uy bekalari hamda bolalarni parvarish qilish bilan band bo‘lgan ishlamayotgan ayollar;</li> <li>• ko‘char va ko‘chmas mulkdan daromad olib, ishlamayotgan shaxslar;</li> <li>• ixtiyoriy ravishda mehnat bilan band bo‘lмаган shaxslar.</li> </ul>
<b>Uzluksiz ta‘lim tizimi</b>	O‘zbekiston Respublikasining «Ta‘lim to‘g‘risida»gi qonuniga muvofiq: <ul style="list-style-type: none"> <li>• <b>maktabgacha ta‘lim</b> (bolalar bog‘chasi);</li> <li>• <b>umumiy o‘rta ta‘lim 1–9-sinfgacha:</b> (ya’ni boshlang‘ich ta‘lim (1–4-sinflar); tayanch ta‘lim (5–9-sinflar);</li> </ul>

	<ul style="list-style-type: none"> <li>• <b>o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi</b> (Akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari);</li> <li>• <b>Oliy ta'lim</b> (bakalavriat va magistratura);</li> <li>• <b>Oliy o'quv</b> yurtidan keyingi ta'lim;</li> <li>• <b>Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash kabilardan iborat.</b></li> </ul>
<b>Ta'lim muassasalari</b>	<p><b>O'zbekistonda 2012/13 o'quv yilida</b> [37]:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• kunduzgi <b>o'rta ta'lim muassasalari (mekteblar)</b> soni <b>9779 ta</b> bo'lib, ularda <b>4491 ming</b> o'quvchi ta'lim olgan.</li> <li>• Akademik <b>litseylar soni 143 ta</b> bo'lib, ularda jami <b>112 ming ta o'quvchi</b> tahsil ko'rgan.</li> <li>• Kasb-hunar <b>kollejlari soni 1408 ta</b> bo'lib, ularda <b>1573,9 ming o'quvchi</b> ta'lim olgan.</li> <li>• <b>Oliy ta'lim muassasalari soni 64 ta</b> bo'lib, talabalar soni <b>258,3 mingtani</b> tashkil etgan.</li> </ul>
<b>Ishga joylashtirishga muhtoj mehnat bilan band bo'limgan aholi (ishsizlar)</b>	— qonun hujjatlariga muvofiq rasman ishsiz sifatida ro'yxatdan o'tkazilgan shaxslar, shuningdek, haq to'lanadigan ishga yoki daromad keltiruvchi mashg'ulotga ega bo'limgan, mustaqil ravishda ish izlovlchi va bunday ish taklif etilsa, ishga joylashishga tayyor bo'lgan mehnatga layoqatli yoshdag'i vaqtincha mehnat bilan band bo'limgan shaxslar.
<b>Rasmiy ravishda ro'yxatga olingan ishsizlar</b>	— 16 yoshdan nafaqa bilan ta'minlanish huquqini olish yoshigacha bo'lgan, ish, ish haqi va daromadga ega bo'limgan, mehnat idoralarida ish qidiruvchi, ishlashga, kasb bo'yicha tayyorgarlikdan va qayta tayyorgarlikdan o'tishga, malaka oshirishga rozilik bildirib, ro'yxatga olingan shaxslar.
<b>O'zbekistonligi mehnat resurslari va bandlik</b>	Mamlakatimizda aholi sonining o'sishi bilan bir qatorda uni foydali mehnatga jalb qilish imkoniyatlari kengaydi. O'zbekiston aholisi 1970–1998 yillarda 1,9 martaga, mehnat resurslari esa 2,0 martaga ko'paydi.

Agar 1991-yilda mehnat resurslari 10200 mingni tashkil etgan bo'lsa 2002-yilga kelib mehnat resurslarining umumiy miqdori 13181,0 ming kishidan ortdi. Ularning yillik o'rtacha o'sish sur'ati 210–220 ming kishidan iborat. 2014-yil 1-yanvar holatiga ko'ra mehnat resurslari soni 17,7 mln kishini tashkil etgan bo'lsa, iqtisodiy faol aholi soni 12,9 mln nafarga teng bo'ldi. Shundan, iqtisodiyotda band aholi soni 12,2 mln kishini, iqtisodiy nofaol aholi 4,8 mln nafarni tashkil etdi.

### **Mehnat resurslari va aholining bandligi 32- ilovada berilgan.**

#### *Nazorat savollari*

1. O'zbekiston aholisi yiliga qanchaga ko'paymoqda?
2. Qaysi viloyatlarda aholining zichligi yuqori?
3. O'zbekistonda o'zbeklardan tashqari yana qaysi millat vakillari yashaydi?
4. Urbanizatsiya jarayoni qanday kechmoqda?
5. Mehnat resurslari to'g'risida gapiring.
6. Aholi bandligi muammolarini yechish uchun qanday chora tadbirlar ko'ritmoqda?

#### *Seminar mashg'ulotlari uchun savollar:*

Aholi dinamikasi. Aholining tabiiy ko'payishi. Aholining jinsiy va yosh tarkibi. Demografik siyosat. Aholining milliy tarkibi. Etnik tarkibi. Shahar va qishloq aholisi. Aholining joylashish xususiyatlari. Tashqi va ichki migratsiya. Migratsiya siyosati. Aholining ijtimoiy tarkibi. Aholi tarkibi va undagi o'zgarishlar. Mehnat resurslari. Mehnat resurslari va ularning bandligi masalalari

## 11-BOB. O'ZBEKISTON SANOATI GEOGRAFIYASI

<b>Reja:</b>	<b>11.1. O'zbekiston sanoati va uning yetakchi tarmoqlari.</b> <b>11.2. Yoqilg'i-energetika majmuyi.</b> <b>11.3. Metallurgiya, mashinasozlik, kimyo, qurilish materiallari, yengil va oziq-ovqat sanoatlari.</b> <b>11.4. Ishlab chiqarishni modernizatsiyalash</b>
<b>Tayanch iboralar:</b>	sanoat, tarmoqlar geografiyasi, neft majmuasi, gaz tarmog'i, korxonalar, qayta ishlash mahsulotlari.
<b>11.1. O'zbekiston sanoati va uning yetakchi tarmoqlari</b>	
<b>Sanoat</b>	<p>O'zbekiston iqtisodiyotida sanoat ishlab chiqarishi yetakchilik qiladi. U mamlakat iqtisodiy taraqqiyotida muhim o'rinn tutib, xalq xo'jaligining barcha tarmoqlari uchun moddiy-texnika vositalarini to'xtovsiz takror ishlab chiqarish manbayi sifatida faoliyat ko'rsatadi, iqtisodiy rayonlarning, viloyatlarning, ijtimoiy ishlab chiqarish texnikaviy darajasini belgilab beradi hamda moddiy va mehnat resurslaridan foydalanishning holatiga ta'sir ko'rsatadi.</p> <p><b>Og'ir sanoat:</b> kimyo va neft kimyosi; mashinasozlik elektronika, energetika va boshqalar.</p> <p><b>Engil sanoat:</b> paxta tozalash, shoyi to'qish, konservalash, yog'-moy va boshqa tarmoqlar</p>
<b>O'zbekiston sanoatining</b>	Mustamlakachilik yillarda O'zbekistonning xalq xo'jaligi bir tomonlama rivojlantirildi. Ya'ni, qishloq xo'jaligida paxta yetishtirishga, sanoatda esa paxta yalpi

<b>umumiy tavsifi</b>	<p>hosilini birlamchi qayta ishlash (ya'ni, Rossiya to'qimachilik sanoati uchun xomashyo – paxta tolasi ishlab chiqarish)ga asosiy e'tibor qaratildi.</p> <p>Respublika sanoatining qolgan muhim tarmoqlari ham paxta majmuini rivojlantirishni ko'zda tutgan holda taraqqiy topib bordi.</p> <p>1913-yilda mamlakatimiz hududida 425 ta sanoat korxonasi mavjud edi. Ularning 208 tasi paxta tozalash, 80 tasi oziq-ovqat, 14 tasi metallsozlik sanoat korxonalaridan iborat bo'lgan, qolganlari esa objuvoz (guruch ishlab chiqaradigan), xumdon yasash va boshqa korxonalar edi. Ikkinchisi jahon urushidan oldingi besh yillikdarda (1929–1940) O'zbekiston sanoati va qishloq xo'jaligi birmuncha rivojlandi.</p> <p>XX asrning ikkinchi yarmida O'zbekistonda, ayniqsa, gaz, neft, kimyo, mashinasozlik, rangli metallurgiya, yoqilg'i sanoati tarmoqlari yaratildi. Mamlakatimiz iqtisodiyot tarmoqlari mustaqillik yillarda yangicha yo'nalish oldi va rivojlanishning sifat jihatidan yangi bosqichiga qadam qo'ydi. Mustaqillik yillarda sanoatning yangi, yuqori texnologiyaga ega bo'lgan tarmoqlari (avtomobilsozlik, radiotexnika, murakkab, malakali kadr talab, mashinasozlik va h.k.) vujudga keldi. Hozirgi vaqtida respublika sanoati tarkibida 100 dan ortiq tarmoq; va tarmoqchalar mavjud bo'lib, ular bir necha majmualarni tashkil etadi.</p> <p><b>O'zbekiston yalpi ichki mahsulotining tarmoqlari bo'yicha taqsimoti 35-ilovada berilgan.</b></p>
<b>Sanoat tarkibi</b>	respublika sanoat tarmoqlarining hozirgi tarkibida eng katta ulushni yoqilg'i energetikasi sanoati (24,1 foiz) egallaydi. Undan keyin yengil sanoat ulushi 17,8 foiz, oziq-ovqat – 14,2 foiz, metallurgiya – 10,3 foizga to'g'ri keladi.

## 11.2. Yoqilg'i-energetika majmui

<b>Yoqilg'i-energetika majmui</b>	Yoqilg'i sanoati O'zbekiston og'ir sanoatining muhim tarmoqlaridan biri bo'lib, u tabiiy gaz, neft, ko'mir qazib chiqarishni va ularni qayta ishlashni hamda tayyor mahsulotni iste'molchilarga yetkazib berishni o'z ichiga oladi.
<b>Neft sanoati</b>	Mamlakatimizda birinchi neft koni 1904-yilda Farg'ona vodiysi (Chimyon)da ochilgan edi. Ushbu neft zaxirasiga tayanib, Oltiariq neftni qayta ishlash zavodi qurilgan. U O'zbekistonda neftni qayta ishlash sanoatining barpo qilinishiga asos yaratdi. Ikkinci jahon urushi va undan keyingi yillarda Farg'ona vodiysi (Janubiy Olamushuk, Polvontosh Andijon)da va Janubiy O'zbekistonda (Xaudak, Lalmikor) yangi neft konlari ishga tushirildi va Farg'ona neftni qayta ishlash zavodi qurildi. Biroq har ikkala zavodning ishlab chiqarish quvvati kam bo'lib, neft mahsulotlariga bo'lган ehtiyoj chetdan keltirish hisobiga qondirilar edi. Mustaqillik tufayli neft sanoatida keskin burilish yuz berdi. Buxoro va Qashqadaryo viloyatlarida ko'plab yirik (jumladan, Ko'kdumaloq) konlarning ishga tushirilishi natijasida neft qazib olish keskin o'sdi. 1960-yilda 1,6 mln tonna neft (gaz kondensati bilan birga), 1980-yilda 1,3, 1990-yilda 2,8, 1997-yilda 7,9 va 2002-yilda 7,2 mln tonna neft qazib olindi yoki 5 martaga ortdi. Respublikada neftning assosiy qismi (92 foizi) Qashqadaryo viloyatida qazib chiqariladi. U biroz miqdorda Andijon, Surxondaryo, Navoiy, Farg'ona viloyatlarida ham qazib chiqariladi.
<b>Gaz sanoati</b>	Mamlakat yoqilg'i-energetika sanoatining eng rivojlangan va iqtisodiyotda salmoqli o'ringa ega bo'lган tarmog'idir. Gaz qazib olish va ishlatish miqdori katta tezlik bilan o'sib bormoqda.

Masalan, 1990-yilda mamlakatda 40,7 mlrd m<sup>3</sup>, 1995-yilda 48,6 mlrd m<sup>3</sup> gaz qazib olingen bo'lsa, 2002-yilga kelib uning hajmi 58,4 mlrd m<sup>3</sup> dan oshib ketdi.

Endilikda O'zbekiston gaz zaxiralari va qazib chiqarishda dunyoning birinchi 10 mamlakati safiga kiradi. MDH mamlakatlarida esa Rossiya va Qozog'istondan keyin 3 o'rinda turadi. Gazning Respublika yoqilg'i balansidagi hissasi 2/3 ga teng. Tabiiy gazdan sanoat maqsadlarida foydalanish 1950—1960-yillarda boshlangan. Yilma-yil mamlakat gaz sanoatining geografiyasini kengayib bordi. Dastlab Farg'ona vodiysida, 1960-yillarda Buxoro va Navoiy viloyatlarida, 1970-yillardan boshlab Qashqadaryo viloyatida gazning g'oyat katta zaxiralarini topildi. 1958—1960-yillarda Jarqoq — Buxoro — Samarkand — Toshkent gaz quvuri qurildi. Ushbu gaz magistralining qurilishi bilan respublikaning mazkur zonadagi sanoat markazlari, shaharlar va ko'pgina qishloqlarni gazlashirish boshlandi. 1962-yilda katta zaxiraga ega bo'lgan Gazli koni ishga tushirildi. Ikkinchisi eng uzun va eng yirik gaz quvuri «O'rta Osiyo — Markaz» deb yuritilardi.

Uchinchi yirik quvur «Buxoro — Toshkent — Bishkek — Olmaota» edi. Eng yirik gaz, neft gaz kondensati konlaridan Gazli, Muborak, Sho'rtan, Ko'kdumaloq, Qorovulbozor, Mingbuloq hisoblanadi. Hozirgi vaqtida Qashqadaryo viloyatining janubi-g'arbiy qismida joylashgan va zaxirasining kattaligi jihatidan mamlakatimizda tengi yo'q Sho'rtanda gaz majmui qurilgani hamda oltin gugurti kamroq bo'lgan tabiiy gazni energetika ehtiyojlari uchun regionlarga uzatish maqsadida Sho'rtan-Sirdaryo — Toshkent gaz quvuri ishga tushirilgan. Shuningdek, Gazli — Chimkent gaz quvuri qurilib, foydalanishga topshirildi. Sho'rtan gaz majmuida jahonda birinchi bo'lib molekulyar elak (g'alvir)lar qo'llanilmoxda. Mamlakatning ko'pgina gaz konlari (98%) oltingugurtli gazdir [17].

<b>Ko'mir sanoati</b>	Mamlakatimiz hududidan dastlabki ko'mir qazib olish 1930-yillarning oxirida boshlangan. Toshkent viloyatining Ohangaron vodiysida Angren, Surxondaryo viloyatining Sarosiyoy (Sharg'un) va Boysun (To'da) tumanlarida ko'mir konlari bor. Angren qo'ng'ir ko'mir konida 1940—1948-yillardan buyon ochiq va yopiq usullarda ko'mir qazib olinadi. 1941-yilda topilgan Sharg'un konidan 1958-yildan boshlab toshko'mir qazib olinadi. 1961-yilda Angren ko'mir konida yerosti gazogeneratorlarida ko'mirni yuqori bosimdag'i havo oqimi yordamida energetik gazga aylantiradigan «Yerostigaz» stansiyasi qurilgan. Angren va Yangi Angren GRESlarining to'la ko'mirga o'tkazilishi bilan mamlakatning ko'mirga bo'lgan yillik ehtiyoji 8—9 mln tonnaga etdi. Bunday ehtiyojni qondirish Boysun tumanida topilgan To'da tosh ko'mir konini tezroq ishga tushirishni taqozo qiladi.
<b>Elektr energetika sanoati</b>	O'zbekistonda GESlar qurish ishlari 1926-yilda Toshkentda Bo'zsuv GESini qurish bilan boshlanib ketdi. O'sha davrda Bo'zsuv GESi O'rta Osiyoda birinchi va yirik energetika inshooti edi. Ikkinchi jahon urushigacha Bo'zsuv daryosida va Bo'zsuv kanalida Qodiriya, Bo'rjar, Tovoqsoy va boshqa GESlar qurildi. 1948-yilda Farhod GESi ishga tushirildi. So'ngra Chirchiq-Bo'zsuv suv tarmoqlarida, Shahrixonsov va Namangansoy daryolarida, Darg'om, Hazarbog', Qumqo'rg'on kanallarida qator GESlar qurildi. Natijada respublikaning elektr energiyasiga bo'lgan ehtiyoji 1955-yilga kelib GESlar hisobidan 65 foizga qondirildi. Mamlakat elektr energetika sanoati 1960—1970-yillarda birinchi marta, 1970—1980-yillarda ikkinchi marta, 1980—1990-yillarda esa uchinchi marta o'z taraqqiyot bosqichining yuksak ko'rsatkichlariga erishdi.

Shu davrlarda mamlakatda eng qudratli Toshkent (quvvati 1860 ming kVt.), Navoiy (1250 ming kVt.), Taxiatosh (730 ming kVt.), Sirdaryo (3,0 mln kVt.), Angren (484 ming kVt.), Yangiangren (1,8 mln kVt.) GRES gigantlari qurildi va ishga tushirildi.

Mamlakatda issiqlik va gidravlikelektr stansiyalarini qurish va ishga tushirish bilan elektr energiyasi ishlab chiqarish quvvati ortib bormoqda. Hozirgi vaqtida respublikada mavjud bo'lgan elektr stansiyalarining umumiy quvvati 11640 MVtni tashkil etadi, shundan 85,3 foizi issiqlik, 14,7 foizi gidroelektr stansiyalariga to'g'ri keladi. Respublikada elektr energiyasi ishlab chiqarish 2000-yildagi 56,6 mln kVt.dan 2002-yilga kelib, 49,3 mlrd kVt soatga etdi.

### **11.3. Metallurgiya, mashinasozlik, kimyo, qurilish materiallari, yengil va oziq-ovqat sanoatlari**

<b>Metallur-giya majmui</b>	<p>Mamlakat metallurgiya majmui og'ir sanoatning muhim tarkibiy qismi bo'lib, u butun sanoat ishlab chiqarishining 13,9 foiz mahsulotini beradi. Ushbu sanoat majmui respublikada tarkib topgan rangli metallurgiya va qora metallurgiya sanoat tarmoqlarini o'z ichiga oladi. Olmaliq tog'-metallurgiya kombinati mamlakat rangli metallurgiya sanoatining majmuyi va ko'rki. Tarmoqning yetakchi korxonasi va tugal metallurgiya sikliga ega bo'lgan mazkur kombinat Qalmoqqir mis koni (1954), ruda boyitish fabrikasi (1957), metallurgiya zavodi (1962)dan iborat. Respublikada yiliga 83–85 ming tonnadan ortiq mis ishlab chiqarilmoqda. Navoiy, Olmaliq tog'-metallurgiya kombinatlari, O'zbekiston o'tga chidamli va qayta eriydigan metallar kombinati, O'zmetkombinat korxonalarini qayta qurish ishlari davom ettirilmoqda.</p>
-----------------------------	---

<b>Mashinasozlik</b>	O'zbekiston mashinasozlik majmui uzoq yillar mobaynida sekinlik bilan tarkib topdi. Mashinasozlik majmuining hududiy joylashuvida juda keskin tafovutlar mavjud bo'lib, bunda Toshkent shahri nihoyat katta salmoqqa (54,0 foiz) ega, shuningdek, Toshkent (12,1 foiz), Andijon (6,4 foiz), Samarqand, Farg'ona (5,5 foiz) viloyatlarining ham salmog'i anchagina. Lekin bu sohada hanuzgacha Navoiy, Jizzax, Qashqadaryo, Xorazm, Surxondaryo, Sirdaryo viloyatlarining salmog'i nihoyatda pastligicha qolmoqda. Mamlakatimizda avtomobilsozlik sanoati rivojlanib kelmoqda. Dastlab Andijonda, keyinchalik Samarqand, Xorazm viloyatlarida avtomobillarni ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi.
<b>Kimyo sanoati</b>	Kimyo sanoati mamlakat og'ir sanoatining muhim tarmoqlaridan biridir. Bir tomondan, respublikada neft, gaz, ko'mir sanoatining muntazam o'sib borishi (binobarin, kimyoviy xomashyo miqyosi va geografiyasining kengayishi), ikkinchi tomondan, xalq xo'jaligining mineral o'g'itlar, har xil ximikatlar, plastik massalar, sun'iy tola, sintetik kauchuk, lok-bo'yoq, kislota va ishqorlarga ehtiyoji ortib borishi mazkur sanoat tarmog'ini rivojlantirishga obyektiv shart-sharoit yaratgan. Mamlakat kimyo sanoatida 750 dan ortiq nomda mahsulot ishlab chiqariladi, tabiiy gaz, neft, ko'-mir, oltingugurt, ozokerit, turli minerallar, ohaktosh, grafit, shuningdek, rangli metallurgiya va paxta-kanopni qayta ishlash chiqitlaridan xomashyo tarzida foydalilanildi.
<b>Qurilish materiallari sanoati</b>	Mamlakatimiz ko'p tarmoqli qurilish materiallari sanoatiga ega. Bu sanoatning xomashyo resurslari respublikaning barcha mintaqalarida juda ko'p miqdorda uchraydi.

	Nometall xomashyolardan dala shpati, asbest, glauokonit, vollastant, grafit, talk, abrazivlar, gips, sement xomashyosi, kvars qumlari, betonit gili, g'isht xomashyosi ko'p.
<b>Yengil sanoat</b>	O'zbekiston iqtisodiyotida yengil sanoatning ulushi alohida va ko'p qirralidir. Qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlaydigan yengil va oziq-ovqat sanoati korxonalari respublika agrosanoat majmui (ASM)ning tarkibiy qismidir. Mamlakat yengil sanoati ko'p tarmoqli industrial majmua bo'lib, uning tarkibida paxta tozalash zavodlari, to'qimachilik korxonalari, trikotaj va shoyi to'qish, tikuvchilik va ko'n-poyabzal, gilamchilik, chinnifayans buyumlari va boshqa mahsulotlar ishlab chiqaruvchi korxonalar bor
<b>Oziq-ovqat sanoati</b>	Bugun O'zbekiston xalq xo'jaligida oziq-ovqat sanoatining ulushi katta va salohiyati o'zgacha. Sanoatning mazkur turi, asosan, mahalliy (qishloq xo'jaligi) xomashyoga tayanadi. Respublika yalpi sanoat mahsulotining salkam 10 foizi oziq-ovqat sanoati hissasiga to'g'ri keladi. Tarmoq ko'p xillik. Unda sut va go'sht, yog'-moy va baliq mahsulotlari, un va un mahsulotlari, meva-sabzavot va konservalar, spirt, aroq, pivo, tamaki, chanqovbosar ichimliklar va boshqa mahsulotlarni ishlab chiqarish yo'nalishlari yo'lga qo'yilgan.

#### 11.4. Sanoat ishlab chiqarishini modernizatsiyalash

<b>Ishlab chiqarishni modernizatsiyalash</b>	<b>Modernizatsiya</b> – obyektni yangilash, yaxshilash, takomillashtirish, uni yangi talablar va me'yorlarga, texnik shartlarga, sifat ko'rsatkichlariga muvofiqlashtirish, demakdir.
--	---

	<p><b>Ishlab chiqarishni modernizatsiyalash</b> – ishlab chiqarishni zamонавиј технологијалар билан ђиhozlash, уни ма’navиј ќihatdan yangilash, таркibiy ќihatdan texnik va texnologik qayta tuzish кabi chora-tadbirlarni o’z ichiga oluvchi jarayon.</p> <p>Mamlakatimiz iqtisodiy о’sishida aholi turmush darajasini yaxshilash hamda iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida raqobatbardoshlik ko’rsatkichlarini oshirishga erishish, birinchi navbatda, ishlab chiqarish sohasini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlashga bog’liq. Ushbu borada Birinchi Prezidentimiz I.Karimov «Ishlab chiqarishni modernizasiyalash, texnik va texnologik qayta jihozlash, iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini jadal yangilash biz uchun eng muhim ustuvor vazifa sifatida izchil davom ettirish» degan fikrni ta’kidlab o’tdi.</p>
<b>Ishlab chiqarishni modernizatsiya qilishda:</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• texnik va texnologik qayta jihozlash;</li> <li>• axborot resurslaridan foydalanish xarajatlarini kamaytirish;</li> <li>• yoqilg’i resurslaridan unumli foydalanish;</li> <li>• elektr energiyani tejash;</li> <li>• mehnat resurslari xarajatlarini tejash [12].</li> </ul>
<b>Modernizatsiya, texnik va texnologik qayta jihozlash bo’yicha tasdiqlangan dastur</b>	<p>1. Birinchi Prezidentimizning 2015-yil 4-martdagи «2015–2019-yillarda ishlab chiqarishni tarkibiy o’zgartirish, modernizatsiya va diversifikatsiya qilishni ta’minalash bo’yicha chora-tadbirlar dasturi to’g’risida»gi PF-4707 Farmoni mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ishlab chiqarishni yangilash va innovatsiya texnologiyalarini joriy etish bo’yicha uzluksiz jarayonning mantiqiy davomi bo’ldi. Ushbu Farmon bilan ustuvor ‘yo’nalishlar quyidagicha qilib belgilangan:</p> <p>1. Resurslarni tejaydigan gaz-bo’g’ga asoslangan yangi elektrenergiyasi ishlab chiqaruvchi quvvatlarni qurish va amalda ishlayotganlarini modernizatsiya qilish;</p>

2. Neft-gaz va neft-kimyo sanoatida tabiiy gaz va kondensatlarni chuqur qayta ishlash asosida polipopelin, polietilen va boshqa murakkab polimyerlar kabi yuqori qo'shilgan qiymat beruvchi mahsulotlar ishlab chiqarishni ko'paytirishni yo'lga qo'yish;
3. Yangi zamonaviy texnologiyalarni qo'llash yo'li bilan murakkab ma'danli o'g'itlar, polimerlar, sintetik kauchik, metanol va keng qamrovli maishiy kimyo tovarlari ishlab chiqarishni va eksportini diversifikasiya qilish;
4. Yuqori texnologiyaga ega bo'lgan subyektlar bilan hamkorlikda import o'mini bosuvchi qishloq xo'jaligi mashinalari, yuk avtomobilari va ularni butlovchi qismlarni ishlab chiqaruvchi yangi quvvatlarni yaratish va mavjudlarini kengaytirish;
5. Mahalliy xomashyoni chuqur qayta ishlash bazasida jahon va ichki bozorda talabgir, raqobatbardosh tayyor va yarimtayyor (polufabrikat), bo'yalgan ip, gazlama, trikotaj, oyoq kiyim va charm-galanteriya mahsulotlari ishlab chiqarish hisobidan tekstil va poyafzal sanoatining tovar tarkibini yaxshilash;
6. Yuqori texnologiyali elektrotexnika, axborot-kommunikatsion texnologiya uchun asbob-uskunalarini, ekologik toza qurilish materialtarini ishlab chiqarish quvvatlarini o'zlashtirish va jadal rivojlantirish;
7. Mahalliy xomashyo va o'zimizning tadqiqotlar bazasida hamda yetakchi xalqaro kompaniyalar litsenziyasi va patentlari asosida dori-darmonlar ishlab chiqarishni, farmatsevtika sanoatining mahsulotlarini ishlab chiqarishning miqdori va assortimentini tubdan kengaytirish;
8. Xalqaro bozorda xaridorgir bo'lgan sublimatsiya, vakuumli qadoqlash, chuqur muzlatish va meva-sabzavotlarni zamonaviy qayta ishlash usullarining boshqa texnologiyalarini keng o'zlashtirish yo'li bilan oziq-ovqat sanoatining ishlab chiqarish potensialini kengaytirish.

### **Nazorat savollari**

1. Sobiq Ittifoq davrida mamlakatimizda sanoating qaysi tarmoqlari yaxshi rivojlandi?
2. O'zbekistonda avtomobil zavodlari qaysi viloyatlarda qurildi?
3. O'zbekistondagi yirik kimyo zavedlari ro'yxatini tuzing.
4. O'zbekistonda qanday qurilish materiallari ishlab chiqariladi?
5. O'zbekiston sanoat tarmoqlarining joylanish xususiyatlarini tushuntrib bering.

### **Seminar mashg'ulotlari uchun savollar:**

O'zbekistonning iqtisodiyot tarmoqlari geografiyasi. Sanoat va uning yetakchi tarmoqlari. Sanoatni respublika iqtisodiyotidagi o'rni va ahamiyati.

Yoqilg'i-energetika majmui. Yoqilgi-energetika sanoatining joylashushi. Neft sanoati. Gaz sanoati. Ko'mir sanoati. Elektr energetikasi sanoati.

Metalurgiya majmui. Qora va rangli metallurgiya va uning joylashishi. Oltin, mis va boshqa rangli metaliarni qazib olish.

Mashinasozlik majmui. Mashinasozlikning asosiy tarmoqlari. Avtomobilsozlik.

Kimyo sanoati. Kimyo sanoati tarkibi.

Qurilish materiallari sanoati.

Yengil sanoat.

Oziq-ovqat sanoati.

## **12-BOB. O'ZBEKISTON QISHLOQ XO'JALIGI GEOGRAFIYASI**

<b>Reja:</b>	<b>12.1. Qishloq xo'jaligining respublika iqtisodiyotida tutgan o'rni.</b> <b>12.2. Yer fondi.</b> <b>12.3. Dehqonchilik va chovachilik.</b> <b>12.4. Agrar sohada olib borilgan iqtisodiy islohotlarning asosiy yo'nalishlari.</b>
<b>Tayanch iboralar:</b>	Qishloq xo'jaligi, unumdar yerlar, agrar, agrobiznes, islohotlar

### **12.1. Qishloq xo'jaligining respublika iqtisodiyotida tutgan o'rni**

<b>Qishloq xo'jaligi-dagi islohotlar</b>	<ul style="list-style-type: none"><li>Respublika iqtisodiyotini rivojlantirish va xalq farovonligini yaxshilash ko'p jihatdan qishloq xo'jaligining rivojlanish holati samaradorligiga bog'liq. Respublika aholisining 55 foizidan ortig'i qishloq joylarda yashaydi, sanoat salohiyatining deyarli yarmi qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash bilan band. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksport qilishdan davlat valyutasining 50 foizi vujudga keladi.</li><li>Mazkur islohotlar, asosan, yerning haqiqiy egasi, omilkor va tadbirkor mulkdorlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan bo'lib, fermerchilikni jadal rivojlantirish orqali amalga oshirildi. Bunda zarar ko'rib ishlovchi va istiqbolsiz shirkat xo'jaliklarini fermer xo'jaliklariga aylantirish o'z samarasini berdi.</li></ul>
--	--

Agar islohotlar dastlabki davri 1993-yil faoliyat ko'rsatayotgan dehqon va fermer xo'jaliklarining soni 7360 tadan iborat bo'lgan bo'lsa, 2011-yilda 66134 tani tashkil etdi.

**• O'zbekiston Respublikasi hududlari yalpi hududi mahsulotlarning tarkibiy tuzilishi 36-ilovada berilgan.**

**Fermer xo'jaligi**

- o'ziga uzoq muddatli ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda tovar qishloq xo'jaligi ishiab chiqarishi bilan shug'ullanuvchi fermer xo'jaligi a'zolarining birgalikdagi faoliyatiga asoslangan, yuridik shaxs huquqlariga ega mustaqil xo'jalik yurituvchi subyektdir.
- Fermer xo'jaligi tanlov asosida, aksariyat hol-larda mehnat resurslari ortiqchaligi sezilmayotgan yerlarda va hududlarda tashkil etiladi.
- Chorvachilik mahsuloti yetishtirishga ixtisoslash-tirilgan fermer xo'jaligi kamida 30 ta shartli bosh chorva moli bo'lgan taqdirda tashkil etiladi. Fermer xo'jaligiga ijaraga beriladigan yer uchastkalarining eng kam o'lchami bir shartli bosh chorva molga hisoblaganda Andijon, Namangan, Samarqand, Toshkent, Farg'ona va Xorazm viloyatlardagi sug'o-riladigan yerlarda kamida 0,3 hektar, Qoraqalpog'ston Respublikasi va boshqa viloyatlardagi sug'orila-digan yerlarda kamida 0,45 hektar, sug'orilmaydigan (almikor) yerlarda esa kamida 2 hektarni tashkil etadi.
- Dehqonchilik mahsuloti yetishtirishga ixtisoslash-tirilgan fermer xo'jaliklariga ijaraga beriladigan yer uchastkalarining eng kam o'lchami paxtachilik va g'allachilik uchun kamida 30 hektar, bog'dor-chilik, uzumchilik, sabzavotchilik va boshqa ekinlarni yetishtirish uchun kamida 5 hektarni tashkil etadi.

<b>Dehqon xo'jaligi</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>oilaviy mayda tovar xo'jaligi bo'lib, oila a'zolarining shaxsiy mehnati asosida, meros qilib qoldiriladigan, umrbod egalik qilish uchun oila boshlig'iga berilgan tomorqa yer uchastkasida qishloq xo'jaligi mahsuloti yetishtiradi va realizatsiya qiladi.</li> <li>Dehqon xo'jaligidagi faoliyat tadbirkorlik faoliyati jumlasiga kiradi hamda dehqon xo'jaligi a'zolarining istagiga ko'ra yuridik shaxs tashkil etgan holda va yuridik shaxs tashkil etmasdan amalga oshirilishi mumkin.</li> </ul>
-------------------------	--

## 12.2. Yer fondi

<b>Yer fondi-dan foydalanish</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>Mamlakatimizning umumiyligi yer fonda 444,0 ming km<sup>2</sup>, shundan qishloq xo'jaligida foydalilaniladigan yerlar 26,7 mln hektarga yaqin, ya'ni mamlakat umumiyligi yer fonda 63,8 foizi qishloq xo'jalik ishlab chiqarishiga yaroqli bo'lgan yerdardir. Shundan shudgor qilib (haydalma) dehqonchilik qilinadigan yerlar 4,3 mln ga dan ortiq.</li> <li>Respublikada hozirda paxta ekin maydonlari 1,3–1,4 mln hektar, g'alla ekin maydonlari esa 1,3 mln hektar atrofida saqlanmoqda.</li> </ul> <p>Paxta maydonlari qisqarishi hisobiga bo'shagan yerdarda yangi bog' va uzumzorlar barpo etilmoqda, sabzavot, poliz va chorva ozuqasi maydonlari kengaymoqda.</p>
----------------------------------	--

## 12.3. Dehqonchilik va chorvachilik

<b>Don mustaqilli-gi siyosati</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>Mamlakat oziq-ovqat ta'minotining asosini tashkil qiluvchi, mustaqillik yillarida qabul qilingan mamlakat «<b>Don mustaqilligi Dasturi</b>»ning naqadar uzoqni ko'zlab qabul qilinganligiga bugungi kunda barchamiz birday iqrormiz.</li> </ul>
-----------------------------------	--

	<ul style="list-style-type: none"> <li>• 2002-yilda mamlakatning lalmikor, shartli sug'oriladigan va sug'oriladigan zonasida salkam 1,53 mlnga yerga bug'doy ekildi va 5,5 mln tonna hosil yig'ib olindi. 2013-yilda don hosili 7140,1 ming tonnani tashkil etdi.</li> </ul>
<b>Mustaqillik yillarda dehqonchilik va chорvachilik mahsulotlari</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• qishloq xo'jaligini rivojlantirish borasidagi qator Davlat dasturlari, konsepsiya va chora-tadbirlar majmui hayotga tadbiq etilishi natijasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari miqdori doimiy ravishda o'sishi ta'minlandi. Xususan, raqamlarga e'tibor beradigan bo'lsak, 1990–2013-yillarda don etishtirish 3,7 barobarga yaqin, kartoshka 5 barobar, sabzavot 2,2 barobardan ortiq, meva 2,6 barobarga, uzum 1,3 barobardan ortiq, go'sht (tirik vaznda) 1,9 barobarga, sut 2 barobardan ortiq va tuxum ishlab chiqarish 2,4 barobardan ko'proq oshdi.</li> <li>• Respublikamizda 1990-yilda aholi iste'moli uchun zarur – g'allaning 82 foizi, go'sht mahsulotlarining 50 foizi, sut va sut mahsulotlarining 60 foizga yaqini, kartoshkaning – 50 foizi, shakar, quruq sutning 100 foizi chetdan keltirilgan bo'lsa, hozirda respublikada oziq-ovqat masulotlari yetishtirishning barqarorligi hisobiga aholining asosiy iste'moli ma'sulotlariga bo'lgan ehtiyoji deyarli to'liq o'z ishlab chiqarishimiz hisobidan ta'minlanmoqda.</li> <li>• Mustaqillik yillarda fermeyerlik harakatiga ustuvorlik beriiib, qishloqda mulkdorlar sinfini har tomonlama qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan agrar siyosat tufayli respublikada oziq-ovqat mahsulotlari va, ayniqsa, asosiy iste'mol mahsulotlari iste'moli miqdori barqaror o'sib bordi.</li> <li>• Jumladan, aholi jon boshiga go'sht mahsulotlari iste'mol qilish 1990-yilda 31 kg ni tashkil etgan</li> </ul>

	<p>bo'lsa, 2012-yilga kelib bu ko'rsatkich 38 kg ni tashkil etdi yoki 22,6 foizga ortdi. Shuningdek, sut mahsulotlari iste'moli 1990-2012-yillar mobaynida 183 kg dan 239 kg gacha yoki 30,3 foizga ko'paydi, tuxum iste'moli (1990-yilda 97 donadan 2012-yilda 138 donagacha) 42,3 foizga, sabzavot mahsulotlari iste'moli (1990-yilda 107 kg dan 2013-yilda 238 kg gacha) 2,2 martadan ko'proq, kartoshka iste'moli mos ravishda 1,5 barobar, meva 3,6 barobar, shakar iste'moli (1990-yilgi 12 kg dan 2013-yilda 17 kg gacha) 1,37 barobar ortdi.</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• <b>YIMda qishloq xo'jaligi mahsulotlarining ulushi 38-ilovada berilgan.</b></li> <li>• <b>Respublikada chorva mollari va parrandalar soni hamda chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish 40-ilovada keltirilgan.</b></li> </ul>
--	---

#### **12.4. Agrar sohada olib borilgan iqtisodiy islohotlarning asosiy yo'nalishlari**

<b>Qishloq xo'jaligini istiqbolli rivojlantirishning eng muhim yo'nalishlari</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• o'rmon xo'jaligini kompleks rivojlantirish; qayta ishlash tarmog'ini rivojlantirish, agrar sohaning eksport salohiyatini oshirish;</li> <li>• qishloq joylarda xizmatlar ko'rsatish tizimini takomillash tirish;</li> <li>• qishloq xo'jaligida moliya-kredit, soliq va sug'urta tizimini takomillashtirish;</li> <li>• agrar fanini rivojlantirish va ilm-fan yutuqlarini ishlab chiqarishga joriy etish;</li> <li>• qishloqda mehnat resurslaridan samarali foydalanish va aholi daromadlarini oshirish.</li> </ul>
<b>Agrar tarmoq raqobatbardoshligini oshirishning</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirish: ekinlar navlarini to'g'ri joylashtirish, mahsulot sifati va ekinlar hosildorligini oshirish;</li> <li>• chorva mollari naslini yaxshilash va chorvachilik tarmog'ining raqobatbardoshligini oshirish;</li> </ul>

<b>asosiy yo‘nalishlari</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>qayta ishlash va qayta ishlovchi subyektlar raqobatbardoshligini oshirish;</li> <li>qishloq xo‘jaligiga xizmat ko‘rsatish korxonalarini raqobatbardoshligini oshirish;</li> <li>global iqlim o‘zgarishi va suv tanqisligi sharoitida aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan barqaror ta’minlash;</li> <li>suv tanqisligi salbiy oqibatlarini yumshatishda qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi tizimini takomillashtirish katta ahamiyatga ega.</li> </ul>
---------------------------------	---

#### **Nazorat savollari**

1. O‘zbekiston qishloq xo‘jaligida qanday islohotlar olib borilmogda?
2. Fermer va dehqon xo‘jaligining farqi nimada?
3. O‘zbekistonning yer fondidan qanday foydalanilmoqda?

#### **Seminar mashg‘ulotlari uchun savollar:**

Qishloq xo‘jaligining respublika iqtisodiyotida tutgan o‘rnini. Yer foni va uning tuzilishi. Qishloq xo‘jaligida yer turlarining umumiy maydoni.

Dehqonchilik. Sug‘oriladigan yerlar. Paxtachiik. Donchilik. G‘allachilik. Kartoshka, sabzavot, poliz ekinlari. Mevachilik va uzumchilik.

Chorvachilik. Mamlakat chorvachiligidagi yilqichilik, parrandachilik, cho‘chqachilik, quyonchilik, baliqchilik, asalarichilik, tuyachilik hamda pillachilik.

Agrar sohada olib borilgan iqtisodiy islohotlarning asosiy yo‘nalishlari. Bozor munosabatlari sharoitida agrar kompleksning rivojlanish istiqbollari.

## 13-BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TRANSPORTI INFRASTRUKTURASI VA TASHQI IQTISODIY ALOQALAR GEOGRAFIYASI

<b>Reja:</b>	<b>13.1. O'zbekiston Respublikasi transport geografiyasi.</b> <b>13.2. O'zbekistonning tashqi iqtisodiy aloqalar geografiyasi.</b>
<b>Tayanch iboralar:</b>	Transport tizimi, magistral, tashqi savdo aylanmasi, eksport, import, saldo

### **13.1. O'zbekiston Respublikasi transport geografiyasi**

<b>Transport tushunchasi</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• lotincha <b>trans</b> – «orqalab» iportare – «tashish» – ma’nosini anglatib:</li> <li>• Moddiy ishlab chiqarishning muhim tarmoqlaridan biri bo‘lib, yo‘lovchi va yuk tashishni amalga oshiradi (transportirovka);</li> <li>• Barcha turdag'i, trasport vositalari, texnik jihoz va qurilmalar yordamida xabarlarni, kishilarni va turli ko‘rinishdagi yuklarni bir joydan ikkinchi joyga o‘tkazish jarayonini ta’minlaydi.</li> <li>• <b>Dunyo yuk tashish va yo‘lovchi aylanmasi tuzilmasida turli transportlarning uzunligi va yuk aylanmasidagi ulushi 20-ilovada berilgan.</b></li> </ul>
<b>O‘zbekiston tonda hozirgi zamон transportining asosiy turlari</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Avtomobil, temiryo‘l, havo yo‘llari, daryo transporti, quvur va elektr transportlari.</li> <li>• 2014-yilda jami yuk tashish 1455,8 mln, yuk aylanmasi 86474,6 mln km, jami yo‘lovchi tashish 7321,3 mln kishini, yo‘lovchi aylanmasi 100095,7 mln yo‘lovchi km tashkil etdi.</li> </ul>

- **Umumfoydalanilayotgan transport tarkibi bo‘yi-chá yuk tashish va yuk aylanmasi 41- ilovada berilgan.**
- **Transport turlari bo‘yicha yo‘lovchi tashish va yo‘lovchi aylanmasi 42- ilovada berilgan.**

**Temir yo‘l  
ransporti**


- O‘zbekiston hududida temiryo‘l qurilishi **1888-yilda** boshlangan edi. Krasnovodsk-Chorjo‘y temir yo‘li davom ettililib, Forobbekatidan Samarqandgacha olib borildi. **1890-yilgacha** esa Toshkentdan Andijongacha yetkazildi. **1905-yilda** Orenburg va Toshkent oralig‘ida temiryo‘l ishga tushirildi.
- **1931-yilda** Turkiston magistralining ishga tushirilishi O‘zbekistonning iqtisodiy va madaniy taraqqiyotida katta ahamiyatga ega bo‘ldi.
- **1990-yilgacha** Nukus-Chimboy temiryo‘li qurib bitkazilib, Tuya mo‘yin-To‘rtko‘l yo‘li qurildi. Mamlakatimiz mustaqilligining dastlabki yiilaridan dunyo bozoriga yangi yo‘llar ochish, mamlakatimizni boshqa mintaqalar bilan bog‘laydigan zamonaviy transport kommunikatsiyalari barpo etish dolzarb masala sifatida kun tartibiga qo‘yildi. Asosiy e’tibor yangi temiryo‘llar qurish, mamlakatimizning yagona va yaxlit temiryo‘l tizimini barpo etishga qaratildi. Amudaryo uzra avtomobil va temiryo‘l qatnovi uchun mo‘ljallangan zamonaviy ko‘priksi o‘z ichiga olgan Navoiy – Uchquduq – Sulton Uvaystog‘ – Nukus temiryo‘lining barpo etilishi bu boradagi dastlabki qadam bo‘ldi. Keyinroq «asr mo‘jizasi» degan deya nom olgan noyob inshoot – Toshguzar – Boysun – Qumqo‘rg‘on temiryo‘l liniyasi ishga tushirildi. Ushbu bunyodkorlik inshooti mamlakatimizda yagona milliy yo‘l tizimini yaratishning navbatdagi muhim bosqichi bo‘ldi. Temiryo‘l transporti barcha davlatlar iqtisodiyotining asosiy qon tomiri hisoblanadi.

Keyingi yillarda 1 ming 200 kilometrdan ziyod yangi temiryo'l tarmog'i barpo etildi, 3 ming 800 kilometrlik yo'l modernizatsiya qilindi va qaytadan ishga tushirildi, qariyb 1100 kilometrlik temiryo'l magistrallari elektlashtirildi. Natijada temiryo'llarning umumiy uzunligi 6 ming 500 kilometrga yetdi va ular mamlakatimizning barcha mintaqalarini qamrab olish imkoniga ega bo'ldi. 2011-yildan yuqori tezlikda harakat qiladigan «Afrosiyob» poyezdi Toshkent-Samarqand oralig'ida qatnashni boshladi. 2015-yilda Maroqand – Qarshi temiryo'l liniyasini elektrlash ishlari yakuniga yetkazildi va «Afrosiyob» poyezdi Qarshi shahriga qatnay boshladi. Shuningdek, 2016-yil avgustidan Toshkent-Buxoro yo'nalishida ham yuqori tezlikdagi poyezd harakatlanishi rejulashtirilgan. O'zbekiston bilan Xitoy o'rtaida eng qisqa temiryo'l tarmog'ini barpo etish o'zaro iqtisodiy va transport sohasidagi hamkorlikning dolzarb strategik yo'nalishllari-dandir. Bu Xitoyning Markaziy Osiyo mamlakatlariga, undan keyin Janubiy Osiyoga chiqishini ta'minlaydi. 2016-yilda Angren-Pop elektlashtirilgan temiryo'lining barpo etilishi bu borada «ko'prik» vazifasini o'taydi. Dengiz sathidan 2 ming 200 metr balandlikda joylashgan Qamchiq dovoni (19,2 kilometrlik tunnel) orqali o'tgan Angren-Pop (uzunligi 123,1 kilometr) elektlashtirilgan temiryo'l liniyasining ishga tushirilishi Farg'ona vodiysi viloyati va mamlakatimizning boshqa hududlari o'rtaida temiryo'l yuk va yo'lovchi tashish imkoniyatini yaratadi. Shu bilan birga, Xitoy – Markaziy Osiyo – Yevropa yangi xalqaro tranzit temiryo'l koridorining eng muhim bo'g'ini bo'lib xizmat qiladi.

## Avtomobil transporti va yo'llari

O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy hayotida transport tizimining yana bir muhim qismi bo'lgan avtomobil transporti va avtomobil yo'llari ham katta o'rinn tutadi. O'zbekiston hududida avtomobil yo'llari tarmog'i ancha keng. Har 1000 km<sup>2</sup> maydonga avtomobil yo'llarining zichligi 210 km ga yetadi. Qator avtomobil yo'llari xalqaro va davlat ahamiyatiga ega. Hozirgi kunda Respublika avtomobil yo'llari tarmog'inining umumiyligi 184 ming km ga yaqin, jumladan: umumiyligi foydalanishdagi avtomobil yo'llari – 42654 km, shaharlar va boshqa aholi punktlari ko'chalari – 61664 km, xo'jalik avtomobil yo'llari – 79367 km. O'zbekistonda umumiyligi foydalanishdagi avtomobil yo'llarning 33 %i davlat ahamiyatiga, 58 %i mahalliy ahamiyatga va 9%i xalqaro ahamiyatiga ega.

## O'zbek milliy avtomagistrali yo'nalishlari



<b>Havo yo'llari</b>	O'zbekiston iqtisodiyotining rivojlanishida va iqtisodiy aloqalarning o'sishida havo transportining roli oshib bormoqda. Nukus, Termiz, Qarshi, Andijon va Namangan shaharlarida zamonaviy aeroportlar qurildi. Samarqand, Buxoro va Urganch shaharlaridagi aeroportlar xalqaro talablarga javob beradigan ravishda qayta ta'mirlandi. Toshkent aeroporti passajirlar uchun barcha qulayliklar yaratilgan zamonaviy yirik aeroportlardan biridir. Toshkentdan dunyoning ko'pgina mamlakatlariga samolyotlar parvoz qiladi. Hozir respublikada samolyotlarda yo'lovchi tashish 1940-yilga nisbatan 110 marta, yuk tashish esa 230 martadan ziyod ko'paydi. O'zbekistonda 20 dan ortiq aeroportlar faoliyat yuritmoqda. Oltita aeroportning uchish-qo'nish yo'lagining uzunligi 3000 metrdan katta. O'zbekistonda 11 ta xalqaro aeroport mavjud. Eng yirik aeroport – Toshkent (janubiy) aeroportidir.
<b>Suv (daryo) transporti</b>	O'zbekiston jahon okeani va dengizlariga chiqish yo'liga ega emas, lekin kichik daryo trasporti Amudaryo bo'ylab harakat qiladi. Mamlakatning bosh daryo porti bu – Termiz. O'zbekiston ichki suv transportining uzunligi 1100 km ni tashkil qiladi, ammo so'ngi yillarda suv sathining kamayishi va mahalliy transport infratuzilmasining yomonlashuvidan yuk va yo'lovchi tashish kamayib ketdi. Daryo bo'ylab faqat katta bo'limgan kemalar va paromlar harakat qilmoqda. Orol dengizida vujudga kelgan vaziyat, ya'ni uning suvini kamayib ketishi, qirg'oqlarining chekinishi tufayli ham dengizdagи transport o'z ahamiyatini yo'qotdi.

<b>Quvur transporti</b>	O'zbekistonning quvur transporti rivojlanib bormoqda. Respublika hududida neft quvuri dastlab Chimyon neft koni bilan Oltiariq neftni qayta ishlash zavodi o'rjasida qurilgan. Sovet hokimiyati yillarda Farg'ona vodisida bir qancha neft konlari topilib ishga tushirilgach, bu konlardan Oltiariq va Farg'ona neftni qayta ishlash zavodlariga neft quvurlar orqali keltiriladigan bo'ldi. O'zbekiston hududida yirik tabiiy gaz, neft konlarining topilishi va ishga tushirilishi sababli quvur transporti rivojlandi, katta ahamiyatga ega bo'lgan gaz quvurlari vujudga keldi. 2010-yil ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda 10253 km gaz quvurlari, 868 km neft quvurlari 33 km neft mahsulotlari uchun quvurlar mavjud bo'lgan.
<b>Toshkent shahar metropoliteni</b>	O'zbekistonda shahar metropoliteni faqat Toshkentda joylashgan. Toshkent metropoliteni 1968 -1970-yillarda qurila boshlangan, va birinchi liniya (Chilonzor deb nomланib) uzunligi 12,2 km bo'lib, 9 ta stansiya bilan 1977 yilda ishga tushgan. Hozirgi paytda 3 ta liniya 29 stansiya bilan 36,2 km ni tashkil qiladi. Metropoliten qurilishi ishlari davom etmoqda.
<b>Elektr aloqa tarmoqlari</b>	mamlakatda aloqa tarmoqlari (pochta, telegraf, telefon, radioeshittirish, televideniye kabilar) ham rivojlandi. 1927-yil 11-sevralida respublikada birinchi marta keng eshittirishli radiostansiya o'z faoliyatini boshladi. 1956-yil 5-noyabrda esa O'zbekiston televideniyesi ishga tushirildi. O'sha yilning o'zidayoq televideniyening Toshkent studiyasi tashkil topdi.

### 13.2. O‘zbekistonning tashqi iqtisodiy aloqalari geografiyasi

<b>O‘zbekistonning xalqaro aloqalari</b>	<p>Bugungi kunda O‘zbekiston dunyoning 120 dan ortiq davlati bilan diplomatik aloqalar o‘rnatgan, 46 davlatda o‘zining diplomatik va konsullik vakolatxonalarini ochgan.</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Toshkentda 44 ta xorijiy davlatlarning elchixonalari, 9 ta konsullik, 15 ta xalqaro tashkilotlarning vakolatxonalari hamda diplomatik mavqega ega bo‘lgan 3 ta savdo vakolatxonasi faoliyat ko‘rsatmoqda.</li> </ul> <p>O‘zbekiston 100 dan ortiq xalqaro tashkilot va davlatlararo uyushmalarga a’zo. Qator vakolatxonalar, jumladan, quyidagi xalqaro tashkilot va uyushmalar qoshida faoliyat yuritmoqda:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• BMT huzuridagi vakolatxona (Nyu-York);</li> <li>• NATO va Yevropa Ittifoqi huzuridagi missiya (Bryussel);</li> <li>• SHHT kotibiyatidagi vakillar (Pekin);</li> <li>• MDH kotibiyatidagi vakil (Minsk);</li> <li>• JB, OTB, ITB, XVF va boshqalarga a’zo.</li> </ul>
<b>BMTga a’zoligi</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• O‘zbekiston BMTga 1992-yil 2-martda a’zo bo‘lgan. Bugungi kunda O‘zbekiston va BMT o‘rtasidagi hamkorlik izchillik bilan rivojlanib bormoqda. Malakatimiz BMT tizimidagi ko‘plab tashkilotlar bilan amaliy aloqalar o‘rnatgan. Jumladan, UNESCO bilan hamkorlik faol rivojlanib bormoqda. 2011-yildan esa, O‘zbekiston BMT tizimidagi yana bir muhim tashkilot – Jahon turizm tashkilotining Ijroiya kengashiga a’zo etib saylandi.</li> </ul> <p>2010-yil 5-aprelda va 2015-yil iyunida Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi Pan Gi Mun rasmiy tashriflar bilan O‘zbekistonda bo‘lgan chog‘ida O‘zbekiston bilan hamkorlikni yanada mustahkamlashdan manfaatdor ekanini alohida</p>

	<p>ta'kidlab, Prezident I.Karimovning mintaqaviy va xalqaro dolzarb masalalarni hal etish borasidagi izchil va samarali yondashuviga yuksak baho berdi.</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• BMT Bosh kotibining O'zbekistonga tashriflari katta ahamiyatga molik siyosiy voqeа bo'ldi. Bu tashriflar barqarorlik va xavfsizlikni ta'minlash, izchil rivojlanish, suv-energetika, mineral-xomashyo resurslaridan foydalanish, atrof-muhitni muhofaza qilish hamda mintaqqa xalqlarini tashvishga solayotgan boshqa ko'plab masalalarni muhokama qilish uchun yaxshi imkoniyat berdi.</li> <li>• O'z navbatida, 2010-yil 22-sentyabrida Prezident I.Karimov BMT Bosh kotibi taklifiga binoan Nyu-Yorkda o'tgan «Ming yillik rivojlanish maqsadlari» sammitida ishtirok etdi va nutq so'zлади.</li> <li>• Nutqda O'zbekiston tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishlari mintaqaviy va global miqyosda tinchlik hamda barqarorlikni saqlash yo'lidagi xalqaro ham korlikka qaratilganligi yuqori minbardan turib yana bir bor ta'kidlandi.</li> </ul>
<b>SHHTga a'zoligi</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Shanxay Hamkorlik Tashkiloti 2001-yil 15-iyunda Xitoyning Shanxay shahrida 6 ta mamlakat – O'zbekiston, Rossiya, Xitoy, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston rahbarlari tomonidan imzolangan «Shanxay Hamkorlik Tashkilotini ta'sis etish to'g'-risidagi» deklaratsiya asosida tuzilgan. SHHTning asosiy maqsad va vazifalari, faoliyat yo'nalishlari:</li> <li>• Mintaqada tinchlik, xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash maqsadida hamkorlik qilish.</li> <li>• Terrorizm, separatizm va ekstremizmga qarshi birgalikdagi kurash choralarini ko'rish.</li> <li>• Giyohvandlik moddalari va qurol-yarog'larning noqonuniy aylanishi, transmilliy jinoyatchilikning boshqa turlari, noqonuniy migratsiyaga qarshi birgalikda kurashish.</li> </ul>

<b>Tashqi iqtisodiy aloqalar</b>	Tashqi iqtisodiy aloqalar mamlakatlar o'rtasida tovarlar, moliyaviy va intellektual resurslarni tashishning turli shakllari, usullari, vositalari, yo'nalishlarning yaxlit majmuini bildiradi. Tashqi iqtisodiy aloqalar – ijtimoiy ishlab chiqarishning muhim vositalari xaratjatlarini kamaytiradi, xalq xo'jaligida ilmiy-texnik taraqqiyotni jadallashtiradi. O'zbekiston bilan xorijiy mamlakatlar o'rtasida turli shakllardagi iqtisodiy va ilmiy-texnik hamkorlikda muhim o'rinni tashqi savdo egallaydi. Tashqi savdo xalqaro mehnat taqsimotida muhim omil bo'lgan va bo'lib qoladi. Mamlakatlar o'rtasida tovar ayriboshlash moddiy ishlab chiqarish rivojlanishiga xizmat qiladi. Tashqi savdo uchta muhim ko'rsatkich: tovar aylanmasi, tovar tarkibi va geografik taqsimotidan iborat.
<b>Tashqi iqtisodiy faoliyatning asosiy yo'nalishlari</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• xalqaro iqtisodiy va moliyaviy hamkorlik;</li> <li>• tashqi savdo faoliyati;</li> <li>• chet el investitsiya larini jalgan qilish;</li> <li>• O'zbekiston Respublikasidan tashqaridagi investisiya faoliyati.</li> </ul>
<b>O'zbekiston tashqi savdo aylanmasi</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• 2005-yilda 9500 mln dollarni tashkil etgan bo'lsa, 2012-yilda 27150 mln dollarga teng bo'ldi.</li> <li>• <b>O'zbekistonning 2005-2013-yillardagi tashqi savdo ko'rsatkichlari dinamikasi 43-ilovada berilgan.</b></li> </ul>
<b>Eksport tarkibi</b>	paxta tolasi, oziq-ovqat mahsulotlari, kimyo va undan tayyorlangan mahsulotlar, energiya manbalari va neft mahsulotlari, qora va rangli metallar, mashinava uskunalar, xizmatlar. <b>O'zbekiston eksportining tovar tarkibi 44-ilovada berilgan.</b>
<b>Import tarkibi</b>	oziq-ovqat mahsulotlari, kimyo va undan tayyorlangan mahsulotlar, energiya manbalari va neft mahsulotlari, qora va rangli metallar, mashina va uskunalar, xizmatlar.

	<b>O'zbekiston importining tovar tarkibi 45-ilovada berilgan.</b>
<b>Asosiy tashqi</b>	savdo hamkorlari Rossiya, Xitoy, Qozog'iston, Turkiya, Janubiy Koreya, Germaniya, Afg'oniston, Tojikiston va boshqalar.
<b>Nazorat savollari</b>	
<ol style="list-style-type: none"> <li>1. O'zbekiston Respublikasining transport geografiyasi.</li> <li>2. Transportning respublika iqtisodiyotida tutgan o'rni va ahamiyati.</li> <li>3. Transport tarmogining shakllanishi, rivojlanishi va joylashishidagi iqtisodiy-geografik xususiyatlar.</li> <li>4. Avtomobil va temiryo'l transporti. Havo, quvur va elektr transporti.</li> <li>5. O'zbekistonning tashqi iqtisodiy aloqalari geografiyasi.</li> <li>6. Tashqi iqtisodiy aloqalar.</li> <li>7. Tashqi savdo aylanmalar.</li> </ol>	
<b>Seminar mashg'ulotlari uchun savollar:</b>	
<p>O'zbekiston Respublikasining transport geografiyasi. Transportning respublika iqtisodiyotida tutgan o'rni va ahamiyati. Transport tarmog'ining shakllanishi, rivojlanishi va joylashishidagi iqtisodiy-geografik xususiyatlar. Avtomobil va temir yo'l transporti. Havo, quvur va elektr transporti.</p> <p>O'zbekistonning tashqi iqtisodiy aloqalar geografiyasi. Tashqi iqtisodiy aloqalar. Tashqi savdo aylanmalari.</p>	

## 14-BOB. O'ZBEKISTONNING IQTISODIY GEOGRAFIK RAYONLARI VA YIRIK TABIIY-IQTISODIY MINTAQALARI

<b>Reja:</b>	<b>14.1. O'zbekistonning iqtisodiy geografik rayonlari.</b> <b>14.2. O'zbekistonning yirik tabiiy-iqtisodiy mintaqalari.</b>
<b>Tayanch iboralar:</b>	Iqtisodiy rayonlashtrish, makroiqtisodiy mintaqa, hududlar, erkin iqtisodiy zonalar
<b>14.1. O'zbekistonning iqtisodiy geografik rayonlari</b>	
<b>Iqtisodiy rayonlash-tirish</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>geografik mehnat taqsimoti obyekti kelib chiqadigan yirik mintaqalar yoki mamlakatning iqtisodiy rayonlari o'zaro bo'y sunishining tizimli ajratilishidir.</li> </ul>
<b>Iqtisodiy rayonlash-tirishdan ko'zlangan asosiy maqsad</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>hududiy rejalashtirish, prognozlash (bashorat qilish) va ijtimoiy-iqtisodiy regional siyosatni amalga oshirish uchun optimal sharoit yaratishdir.</li> </ul>
<b>Makroiqtisodiy mintaqa</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>mamlakatning yirik iqtisodiy makoni bo'lib, tabiiy va iqtisodiy sharoitlarda ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirishga ta'sir qiluvchi tabiiy resurslar, aholining hududiy taqsimlanishi va xo'jaliklarning shakllanishida tarixiy omillarning mujassamlanishiga bog'liq bo'lishi bilan tavsiflanadi.</li> </ul>
<b>O'zbekiston</b>	<ol style="list-style-type: none"> <li>Toshkent (Toshkent shahri va Toshkent viloyati);</li> <li>Mirzacho'l (Jizzax va Sirdaryo viloyatlari);</li> </ol>

<b>Respubli- kasi hududida iqtisodiy rayonlar:</b>	3. Farg'ona (Andijon, Namangan, Farg'ona viloyatlari); 4. Zarafshon (Buxoro, Navoiy, Samarqand viloyatlari); 5. Janubiy (Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlari); 6. Quyi Amudaryo (Qoraqalpoqiston Respublikasi, Xorazm viloyati).
<b>iqtisodiy rayonlar quyidagi talablarga javob berishi kerak:</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Katta iqtisodiy va demografik salohiyatga ega bo'lishi (aholisi kamida 1,5–2,0 mln kishi, yalpi milliy mahsulotdagi ulushi 5 foizdan ortiq);</li> <li>• Mamlakat milliy iqtisodiyoti va uning eksport salohiyatini yuksaltirishda faol ishtirok etishi;</li> <li>• Ichki hududiy-iqtisodiy jihatdan yaxlitlik;</li> <li>• Rayon hosil qiluvchi tarmoq va markazlarning mavjudligi;</li> <li>• Mintaqaviy iqtisodiyotning kompleks rivojlanganligi;</li> <li>• Xo'jalikning bazaviy sohalariga ega bo'lishi (elektr energetika, qurilish va paxta tozalash sanoati);</li> <li>• Transport va boshqa infra tuzilmalarining shakllanganligi va boshqalar.</li> </ul>

#### **14.2. O'zbekistonning yirik tabiiy-iqtisodiy mintaqalari**

<b>O'zbekis- tonda to'rtta mintaqa</b>	1. Markaziy mintaqasi: tarkibiga Toshkent (Toshkent sh. va Toshkent viloyati) va Mirzacho'l (Jizzax va Sirdaryo viloyatlari) iqtisodiy rayonlari kiradi. 2. Janubi-g'arbiy: tarkibiga Zarafshon (Samarqand, Navoiy, Buxoro viloyatlari) va Janubiy (Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari) iqtisodiy rayonlari kiradi. 3. Janubi-sharqi: tarkibiga Farg'ona (Andijon, Farg'ona, Namangan viloyatlari) iqtisodiy rayonlari kiradi.
--	--

	4. Shimoli-g'arbiy: tarkibiga Quyi Amudaryo (Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xorazm viloyatlari) iqtisodiy rayonlari kiradi.
Mintaqa-lardagi tafovutlar	Ijtimoiy sohalar rivojlanishi ham mintaqalar va viloyatlar miqqosida turlicha. Jumladan, bu holat Toshkent mintaqasida birmuncha ijobjiy bo'lsa, qolganlarida va ayniqsa, Jizzax, Xorazm, Surxondaryo viloyatlari hamda Mirzacho'l mintaqasida savdo aylanmasi va aholiga pullik xizmat ko'rsatish darajasi ancha past. Har bir iqtisodiy rayon mumkin qadar o'zining elektroenergetika va qurilish bazasiga ega bo'lishi kerak. Elektroenergetika tizimi Toshkent, Mirzacho'l va qisman Zarafshon iqtisodiy rayonlarida yaxshiroq shakllangan, qolgan rayonlarda esa u zaifroq. Qurilish bazasi Toshkent, Farg'on'a va Zarafshon rayonlarida mavjud. Bu soha, ayniqsa, Quyi Amudaryo, Farg'on'a hamda Mirzacho'l rayonlarida muammodir.
Erkin iqtisodiy zonalar	<ul style="list-style-type: none"> <li>• mintaqani jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojiantirish uchun mamlakat va chet el kapitalini, istiqbolli texnologiya va boshqaruv tajribasini jalb etish maqsadida tuziladigan, aniq belgilangan ma'muriy chegaralari va alohida hududiy tartiboti bo'lgan maxsus ajratilgan hududdir.</li> <li>• O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 2-dekabrdagi PF-4059 farmoniga muvofiq Navoiy viloyati hududida <b>«Navoiy erkin iqtisodiy-industrial zonasasi»</b> tashkil etildi.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 13-apreldagi PF-4436-sonli farmoniga ko'ra, <b>«Angren maxsus industrial zonasasi»</b> tashkil etildi.</li> <li>• O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2013-yil 18-martdagi PF-4516-sonli qaroriga ko'ra <b>«Jizzax maxsus industrial zonasasi»</b> tashkil etilgan.</li> </ul>

<b>Navoiy erkin iqtisodiy-industrial zonasasi</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• <b>Aynan Navoiy hududida EIZni tashkil qilish sabablari:</b> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Yuqori ishlab chiqarish imkoniyatiga egaligi;</li> <li>2. Strategik ahamiyatga ega markaziy qismda joylashganligi;</li> <li>3. Shaharning ishlab chiqarish salohiyatini mustahkamlash va rivojlantirish;</li> <li>4. Yetarli ishchi kuchi va xomashyo resurslari mavjudligi;</li> <li>5. Jahanoning 50 dan ortiq mamlakatiga eksport mahsulotlari yetkazib berish imkoniyatiga egaligi.</li> </ol> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Erkin iqtisodiy-industrial zonada turli ilm talab mahsulotlar ishlab chiqarilishi yo'lga qo'yilmoqda;</li> <li>• 2010-yil avgust oyining oxirida O'zbekiston mustaqilligining 19-yilligi arafasida «Navoiy erkin industrial-iqtisodiy zonasasi»da elektronika avtomobil qismlarini ishlab chiqaruvchi, polimer va oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlaydigan 5 ta korxonaning ochilish marosimi bo'lib o'tdi;</li> <li>• Bugungi kunda ushbu hududda 20 dan ortiq korxonada Janubiy Koreya, XXR, Singapur, Hindiston, BAA kabi xorijiy mamlakatlardan investorlar faoliyat yuritmoqda;</li> <li>• Navoiy EIZ tashkil etilganidan boshlab 19 ta ishlab chiqarish investitsion loyihasi joriy etilib, ularning jami qiymati 100 million dollarni tashkil etadi. Yuqori texnologiksifat asosida modem, TV-pristavka, elektroenergiya hisoblagichlari, kuchlanish kabellari, isitish qozonlari, telefon apparatlari, tayyor dori-darmonlar va boshqa mahsulotlar ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. 2013-yilda 100 milliard so'mdan ortiq mahsulotlar ishlab chiqarildi.</li> </ul> </li> </ul>
---	---

### **Nazorat savollari**

1. O'zbekistonning iqtisodiy geografik rayonlari.
2. Iqtisodiy rayonlashtirishning maqsadi. Iqtisodiy-geografik rayonlarning asosiy ko'satkichlari.

3. Iqtisodiy-geografik rayonlarga bo‘lishning asosiy prinsiplari.
4. Iqtisodiy-geografik rayonlarning ixtisoslanishi.
5. O‘zbekistonning yirik tabiiy-iqtisodiy mintaqalari. O‘zbekistonni tabiiy-iqtisodiy zona (mintaqa)larga bo‘lishning ahamiyati.
6. Tabiiy-iqtisodiy zonalarga ajratishning omillari.
7. Tabiiy-iqtisodiy zonalarga ajratishning tamoyil(prinsip)lari.

***Seminar mashg‘uloti uchun savollar:***

O‘zbekistonning iqtisodiy geografik rayonlari iqtisodiy rayonlashtirishning maqsadi. Iqtisodiy-geografik rayonlarning asosiy ko‘rsatkichlari. Iqtisodiy-geografik rayonlarning ixtisoslanishi.

O‘zbekistonning yirik tabiiy-iqtisodiy mintaqalari. O‘zbekistonni tabiiy-iqtisodiy zona (mintaqa)larga bo‘lishning ahamiyati. Tabiiy-iqtisodiy zonalarga ajratishning omillari. Tabiiy-iqtisodiy zonalarga ajratishning tamoyil (prinsip)lari. Tekislik zonasini xususiyatlari. Tog‘ oldi zonasini xususiyatlari. Tog‘ zonasini xususiyatlari.

## **15-BOB. O'ZBEKISTONDA TARKIB TOPGAN EKOLOGIK VAZIYATLAR VA EKOLOGIK XAVFSIZLIKNI TA'MINLASH**

<b>Reja:</b>	<b>15.1. Ekologiya to'g'risida tushuncha. 15.2. Ekologiyaning tarkibiy bo'linishi. 15.3. O'zbekistonda ekologik xavfsizlikni ta'minlash choralari.</b>
<b>Tayanch iboralar:</b>	Ekologiya, xavfsizlik, bioekologiya, geoekologiya, odam ekologiyasi

### **15.1. Ekologiya to'g'risida tushuncha**

<b>Asosiy tushun-chalar</b>	<ul style="list-style-type: none"><li>«Ekologiya» tirik organizmlarning o'zлари yashab turgan muhit bilan o'zaro munosabatlari to'g'-risidagi fandir.</li><li>«Ekologiya» atamasi (grekcha «eykos» – uy, yashovchi, makon va «logos» – ta'lilot)ni ilmiy muomalaga birinchi marta nemis olimi Ernest Gekkel (1866) «Organizmlarning umumiy morfoligiysi» nomli kitobida kiritgan («Generelle Morphologie der Organismen»). U, «ekologiya – bu tabiat iqtisodiyotini bilish, bir vaqtning o'zida tirik organizmlarning muhitni organik va noorganik komponentlari bilan bo'lgan barcha munosabatlarni tadqiqot qilishdir», deb ta'rif bergan.</li><li>Bu tushuncha XIX asrning oxiriga kelib, fiziologiya, XX asrning birinchi choragida biologiya doirasidan chiqib, sotsiologiya va antropogeografiya, iqtisodiyotga va boshqa fan sohalariiga tarqaldi.</li></ul>
-----------------------------	---

<b>«Ekolo-giya»ning predmeti</b>	tabiat va jamiyat o'rtasidagi o'zaro ta'sir jarayonida yuzaga keladigan ekologik-iqtisodiy munosabatlar va ularni optimallashtirish, xo'jalik faoliyatining iqtisodiy oqibatlari, tabiatdan oqilona foydalanish va tabiatni saqlash, asrash, muhofaza qilishni tartibga solish usullaridir. Uning obyekti turli miqyos va darajadagi ekologik-iqtisodiy tizimlardir.
<b>Ekologik havfsizlik</b>	bu atrof-muhit va insonga ekologik xavf soluvchi tabiiy va antropogen omillarning salbiy ta'sir o'tkazishining ruxsat beriladigan darjasи.
<b>Hududni kompleks ekologik baholash-da:</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• ma'lum hududga ekologik xavf soluvchi omillarni kompleks aniqlash va baholash;</li> <li>• ekologik xavf tug'diruvchi omillarga bardoshlilik bo'yicha hududlarni rayonlashtirish;</li> <li>• atrof-muhitga ta'sir etuvchi obyektlar kadastrini tuzish va yuritib borish;</li> <li>• ekologik tavakkalchilikni identifikasiyalash va baholash;</li> </ul> <p>tabiiy resurslar kadastrini tuzish va yuritish;      «ifloslangan» hududlar kadastrini tuzish va yuritib borish;      barqaror rivojlanish ko'rsatkich (indikator)larini tanlash.</p>
<b>Ekologik monito-ring:</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• atrof-muhitga ta'sir ko'rsatishni me'yorlash;</li> <li>• atrof-muhitga ta'sir etuvchi manbalar nazorati;</li> <li>• ekologik risklar monitoringi;</li> </ul> <p>barqaror rivojlanish indikatorlarini monitoring qilish.</p>

## 15.2. Ekologiyaning tarkibiy bo'linishi

<b>Hozirgi ekologiyaning bo'linishi</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Umumiy ekologiya; bioekologiya; amaliy ekologiya;</li> <li>• Geoekologiya; odam ekologiyasi.</li> </ul>
---	--

<b>Umumiy ekologiya</b>	Sanoat, qurilish, transport muhandisligi ekologiyasi; iqtisodiyot (mehnat jarayonlari) ekologiyasi; qishloq xo'jaligi ekologiyasi; agroekologiya, qishloq xo'jalik hayvonlari ekologiyasi; bioresurs va ovchilik ekologiyasi; kommunal ekologiya; tibbiyot ekologiyasi.
<b>Bioekologiya</b>	Geosferalar va organizmlar yashaydigan tabiiy muhit qismlari ekologiyasi; biogeografik oblastlar, tabiat zonalari, biomlar ekologiyasi; iqlimshunoslik; hududlar, o'lkkalar, qit'alar ekologiyasi.
<b>Amaliy ekologiya</b>	Sanoat qurilish, transport muhandisligi ekologiyasi, iqtisodiyot(mehnat jarayonlari) ekologiyasi; qishloq xo'jalik ekologiyasi; agroekologiya, qishloq xo'jalik hayvonlari ekologiyasi; bioresurs va ovchilik ekologiyasi; kommunal ekologiya; tibbiyot ekologiyasi.
<b>Geoelektrika</b>	Geosferalar va organizmlar yashaydigan tabiiy muhit qismlari ekologiyasi; biogeografik oblastlar, tabiat zonalari, biomlar ekologiyasi; iqlimshunoslik; hududlar, o'lkkalar, qit'alar ekologiyasi.
<b>Odam ekologiyasi</b>	Odam bioekologiyasi: qadimgi odamning evolyutsion ekologiyasi va hozirgi antropogenez; ijtimoiy ekologiya; shaxs, oila, ijtimoiy guruh ekologiyasi; ehtiyoj ekologiyasi; etnos (xalq) va ctnogenez ekologiyasi, demografsik ekologiya; odam ekologiyasi.

### 15.3. O'zbekistonda ekologik xavfsizlikni ta'minlash choraları

<b>Orol dengizi atrofidagi ekologik vaziyat</b>	Kuzatishlar shuni ko'rsatmoqdaki, oxirgi 40–45-yil davomida Orol dengizi suv sathi 29 metrdan ko'proqqa pasayib ketdi, akvatoriya maydoni 4 baravardan ziyodga kamaydi, suv hajmi 10 martaga kamaydi.
---	---

Suv tarkibidagi tuz miqdori 112g/l dan Orolning sharqiy qismlarida esa 280 g/l gacha etdi. Orol dengiziga transchegaraviy daryolar bo‘lmish, Amudaryo va Sirdaryodan suvning kelib tushishi keskin kamayib ketishi natijasida Orol bo‘yidagi ekologik vaziyat yildan-yilga keskinlashdi. Orol inqirozi – kontinental iqlimni yanada churqurlashtirib, yoz mavsumida qurg‘oqchilikni va issiqlikni oshirayotgan bo‘lsa, qishning sovuq va uzoqroq davom etishiga olib kelmoqda. Mutaxassislarning iqlim o‘zgarishlarini baholashlariga ko‘ra, 2035–2050-yillarda mintaqada havo harorati 1,5–3,0 °C oshishi bashorat qilinmoqda. Shuningdek, Orolbo‘yida – respublikaning shimaliy hududlarida havoning harorati keskin ko‘tarilishi kutilmoqda. Suv resurslarining Orol dengizi ehtiyoji hisobga olinmagan holda Sirdaryo va Amudaryodan sug‘orish, elektr energiyasi ishlab chiqarish maqsadlarida suvlarning olinishi, yig‘ib turilishi Orol dengizi va Orolbo‘yida ekologik tanglikka olib keldi.

Orol dengizi deyarli «o‘lik» dengizga aylandi. Yer resurslarining, ya’ni, unumdar qatlamlili tuproqning yo‘qotilishi, ularning sho‘rlanishi, tabiiy yaylovlarning sifati yomonlashib borishi holatlari kuzatilmogda. Shuningdek, sho‘rxoklarning paydo bo‘lishi, tuproqda gumus qatlamining kamayishi va bioxilmassilikning qisqarishi natijasida sug‘oriladigan yerlarning tabiiy unumdarligi kamayishiga olib kelmoqda.

<b>Suv re-surslaridan samarali foydalanish masalalari</b>	Asrlar davomida aholi va davlatlarning suvgaga bo‘lgan ehtiyoji qondirib kelingan bo‘lib, hozirda trans-chegaraviy daryolarning quyi qismida joylashgan hududlarda suv taqchilligi bilan bog‘liq ekologik muammolar kelib chiqmoqda.
---	--

Bu – mintaqada joylashgan 6 ta davlatning 55 mln aholisi sog‘lig‘i, manfati va xavfsizligi, demakdir. Suvlarni transchegaraviy boshqarish oqibatlari ko‘proq daryoning quyi oqimida joylashgan hududlarda seziladi. Suvlarni transchegaraviy boshqarish oqibatlari yuqorida joylashgan mamlakatlar xattiharakatlarining kelishilganligiga bog‘liq bo‘lib, gidrotexnik inshootlarning ish rejimiga, sug‘orish inshootlarning sug‘orma yerlarga suvni etkazish rejimiga rioya etilishiga, daryo oqimi bashoratiga bog‘liq holda o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Shuning uchun transchegaraviy daryolarga har qanday gidrotexnik inshootlar qo‘rilishi bo‘yicha qarorlar qo‘shti davlatlar bilan o‘zaro kelishilgan tarzda, ularning suvga bo‘lgan ehtiyojini inobatga olgan holda amalga oshirilishi lozim bo‘ladi.

**Iqlim o‘zgarishlarining atrof-muhit va barqaror rivojlanishga salbiy ta’sir darajasini yanada pasaytirish va oqibatlarini yumshatish tadbirlari:**

1. Sug‘orma yerlarda injenyerlik planirovka – ya’ni bir nishabda tekislash, sug‘orma dehqonchilikda suvni iqtisod qiluvchi ilg‘or texnologiyalarni (yomg‘irlatib, tomchilatib sug‘orish) qo‘llash orqali suv resurslaridan oqilona foydalanish.
2. Qishloq xo‘jaligida yerdan har bir hududning tuproq-iqlimi sharoitlarini hisobga olgan holda, avvambor, yerlardan oqilona va samarali foydalanish tizimini joriy qilish.
3. Dalalar atroflarida o‘rmon-himoya polosalarini tashkil etish va kengaytirish, adirlar yon bag‘irlarida va kanallar bo‘ylab o‘rmonzorlar barpo etish. Yerlarning shamol va suv eroziyasining oldini olish, loyqa-sel faolligini kamaytirish uchun qirg‘oqlarni mustahkamlash va o‘rmon melioratsiyasi ishlarini amalga oshirish.
4. O‘simlik va hayvonot dunyosi genofondi saqlab qolinishini ta’minlash, muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tizimlarini shakllantirish va rivojlantirish.

- Transchegaraviy daryolar havzalaridagi suv irmoqlarida amaldagi suv oqimlari hajmlari va rejimining saqlab qolinishi va Orol mintaqasiga kelgusida zarar yetkazilmasligini kafolatlaydigan yangi gidrotexnik obyektlar texnik-iqtisodiy asoslovlarining xalqaro ekspertizasini amalga oshirish.
- Orol dengizining qurigan tubida ko'llar va namlangan (vetland) zonalarni tashkil etish va Orol dengizining g'arbiy qismidagi ekotizimning biomahsulorligini barqarorlashtirish.
- Jamoatchilik va o'quvchi yoshlar bilan, ularni Orol dengizi va Orol bo'yining barcha ekologik muammolarini hal qilishga mumkin qadar jalg qilgan holda keng tushuntirish va o'qitish ishlarini amalga oshirish.

### **Sug'orila-digan yerlar**

**O'zbekistonda va dunyo miqyosida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sug'oriladigan yer maydonlarining o'zgarishi [34]:**

**1990-yilda:**

- O'zbekistonda – **0,20 ga**
- Dunyo bo'yicha – **0,27 ga**

**2011-yilda:**

- O'zbekistonda – **0,15 ga**
- Dunyo bo'yicha – **0,25**

**2030-yilda (prognoz):**

- O'zbekistonda – **0,12 ga**
- Dunyo bo'yicha – **0,16**

### **Zamonaviy sug'orish texnolo-giyalari**

- Ekinlarni tomchilatish usulini qo'llash sug'orishda suvdan foydalananishni, material sarfini bir necha marta kamaytirish imkonini berdi va suvchi mehnatini tubdan yengillashtirdi: g'o'zani tomchilatib sug'orish; karam dalasini tomchilatib sug'orish; olma bog'ini tomchilatib sug'orish.
- Qora plyonka to'shab sug'orish.

	3. Egiluvchan ko'chma quvurlar yordamida sug'orish.
<b>Mineral-xomashyo resurslari-dan oqilona foydalanish muammolari</b>	<ol style="list-style-type: none"> <li>O'zbekiston hududidagi foydali qazilmalar va ulardan foydalanish;</li> <li>Foydali qazilmalarning isrof bo'lishi;</li> <li>Foydali qazilmalardan kompleks foydalanish;</li> <li>Mineral resurslarni qazib olish jarayonida; ularning atrof-muhitga ta'siri;</li> <li>Ikkilamchi resurslardan foydalanish.</li> </ol>
<b>Nazorat savollari</b>	<ol style="list-style-type: none"> <li><i>Ekologik ahvol va vaziyat to'g'risida tushuncha.</i></li> <li><i>Biosfera, ekologik tizim va ekologik omillar.</i></li> <li><i>Ekologik vaziyatning tarkib topishi.</i></li> <li><i>Yangi iqtisodiy sharoitlarda tabiatdan foydalanishning iqtisodiy mexanizmlari.</i></li> <li><i>Ekologik vaziyatning tarqalishi.</i></li> <li><i>Ekologik xavfsizlikni ta'minlash choralari.</i></li> <li><i>Mineral-xomashyo resurslaridan oqilona foydalanish muammolari.</i></li> </ol>

### **Seminar mashg'ulotlari uchun savollar:**

Ekologik ahvol va vaziyat to'g'risida tushuncha. Ekologiya to'g'risida tushuncha. Biosfera, ekologik tizim va ekologik omillar.

Ekologik vaziyatlarning tarkib topishi. Yangi iqtisodiy sharoitlarda tabiatdan foydalanishning iqtisodiy mexanizmlari. Ekologik xavfsizlikni ta'minlash choralari. Mineral xomashyo resurslaridan oqilona foydalanish muammolari.

## **MUSTAQIL TA'LIM MAVZULARI**

1. Iqtisodiy geografiya fanining predmeti, tadqiqot uslublari va vazifalari.
2. Global moliyaviy iqtisodiy inqiroz sharoitida ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish va rivojlantirishning omillari va tamoyillari.
3. Hozirgi zamon dunyo siyosiy xaritasida o'zgarish xususiyatlari.
4. Dunyo mamlakatlarining tasniiflanishi.
5. Dunyo aholisi geografiyasi.
6. Dunyo tabiiy sharoiti va resurslaridan foydalanish
7. Dunyo xo'jaligi geografiyasining tarkibi va hududiy joylashishi.
8. Dunyo sanoati geografiyasi.
9. Dunyo qishloq xo'jalik geografiyasi.
10. AQSHning iqtisodiy-geografik tavsifi.
11. Yaponianing iqtisodiy-geografik tavsifi.
12. Germanianing iqtisodiy-geografik tavsifi.
13. Xitoy – shiddatli rivojlanayotgan mamlakat sifatida.
14. MDH mamlakatlarining iqtisodiy-geografik o'rni.
15. Rossiya Federatsiyasining resurslar salohiyati.
16. Markaziy Osiyo davlatlarining iqtisodiy-geografik o'rni.
17. Qozog'istonning tabiiy resurslari.
18. O'zbekistonning jahon xo'jaligi tizimidagi o'rni.
19. O'zbekistonning tabiiy sharoiti, ulardan oqilona foydalanish muammolari.
20. O'zbekistonning tabiiy resurslar salohiyati, ulardan oqilona foydalanish, muhofaza qilish va ularni takror ishlab chiqarish.
21. O'zbekiston aholisi va mehnat resurslari, ularning bandligi muammolari.

22. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash davrida O'zbekiston sanoati geografiyasi.
23. O'zbekiston qishloq xo'jaligi geografiyasi.
24. O'zbekiston transporti geografiyasi.
25. O'zbekiston transport infratuzilmasi geografiyasi.
26. O'zbekiston tashqi iqtisodiy aloqalari geografiyasi.
27. O'zbekistonning iqtisodiy geografik rayonlari va yirik tabiiy-iqtisodiy mintaqalari.
28. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida tabiat bilan jamiyat o'rtaсидagi o'zaro munosabatlar.
29. Tabiat komponentlaridan foydalanish va ularni muhofaza qilishning ekologik-iqtisodiy asoslari.
30. Mintaqada mineral xomashyo resurslaridan samarali foydalanish.
31. O'zbekistonda vujudga kelgan ekologik vaziyat va ekologik xavfsizlikni ta'minlash.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

### **1. O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari va O'zbekiston Respublikasi vazirlik va idoralarining huquqiy-me'yoriy hujjatlari**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.— T.: O'zbekiston, 2012-yil (16.04.2014-yiidagi O'RQ-366-sonli Qonuniga ko'ra o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan).

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 7-fevraldag'i «Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili davlat dasturi to'g'risida» PQ-1474sonli Qarori.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 9-yanvardagi «Meva — sabzavotchilik va uzumchilik sohasida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-3709 sonli Farmoni (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.12.2011-yil PF-4399 sonli Farmoniga ko'ra o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan)

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 14-iyundagi «Bozor islohotlarini chuqurlashtirish va iqtisodiyotini erkinlashtirish sohasidagi ustuvor yo'nalishlar amalga oshirilishini jadallashtirish chora tadbirlari to'g'risida»gi PF-3618-sonli Farmoni.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 26-yanvardagi «Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili Davlat dasturini ishlab chiqish to'g'risida»gi PQ-1046 sonli Qarori (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.04.2010-yil PF-4215 sonli Farmoniga ko'ra o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan).

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 4-martdag'i «2015 — 2019-yillarda ishlab chiqarishni tarkibiy o'zgartirish, modernizatsiya va diversifikatsiya qilishni ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar dasturi to'g'risida»gi PF-4707 Farmoni.

7. DBQning 2013-yil 30-dekabrdagi 374-sonli buyrug'i: MDH Hukumatlari rahbarlari kengashining «Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga a'zo davlatlar tashqi savdo bojxona statistikasi yagona uslubiyati to'g'risida»gi 2013-yil 20-noyabrdagi qarori ijrosi to'g'risida.

8. DBQning 2014-yil 28-iyundagi № 192-buyrug'i. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Nestni qayta ishlash mahsulotlaridan foydalanish qoidalarini tasdiqlash to'g'risida»gi 2014-yil 23-iyundagi 164-sonli qarori ijrosi to'g'risida».

9. DBQning 2014-yil 28-iyundagi 193-sonli buyrug'i: «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Iqtisodiyot tarmoqlarida gazdan foydalanish qoidalarini tasdiqlash to'g'risida» 2014-yil 24-iyundagi 169-sonli qarori ijrosi to'g'risida» (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 17.07.2014-yil 196-sonli Qaroriga ko'ra o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan).

## **2. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti asarlari**

10. *Karimov I.A.* O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.: – «O'zbekiston» – 2012-yil.

11. *Karimov I.A.* 2011-yil – kichik biznes va xususiy tadbirdorlik yili mamlakatimizni modernizatsiya qilish yo'llini izchii davom ettirish – taraqqiyotimizning muhim omilidir. – T. O'zbekiston. 2011.

12. *Karimov I.A.* Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz faravonligini oshirishga xizmat qiladi. – T. – O'zbekiston, 2011.

13. *Karimov I.A.* Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'llini qat'iyat bilan davom ettirish. – T.: «O'zbekiston», 2013.

14. *Karimov I.A.* Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va chorałari. – T. 2009-y.

15. *Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisi va Senatining 2010-yil 27-yanvardagi bo'lib o'tgan qo'shma majlisidagi «Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyatni barpo etish – ustuvor maqsadimiz». Xalq so'zi, 2010-yil 28-yanvar.*

16. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yil 17-yanvarda Vazirlar Mahkamasida bo'lib o'tgan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning 2013-yil yakunlariga bag'ishlangan yig'ilishdagi ma'ruzasi.

## **3. Darsliklar va o'quv qo'shnamlari:**

17. *Abirqulov Q.* Iqtisodiy geografiya. – T.: TDIU, 2004 y.

18. География: учебник для студ. Под редакцией Е.Б.Баранчикова. – М.: Центр «Академия», 2012. – 480 с.

19. *Вавилова Е.В.* Экономическая география и регионалистика. – М.: Гардарики, 2005. – 160 с.

20. *Гладкий Ю.Н., Добросок В.А., Семенов С.П.* Экономическая география России: Учебник. – М.: Гардарики, 2009. – 752 с.

21. *Завялова Э.Б., Радищева А.В.* Экономическая география в схемах и таблицах. Учебное пособие. М., 2008 й.

22. Ломакин В.К. Мировая экономика. – М.: Финанси, ЮНИТИ. 2007 г.
23. Международная ассоциация академий наук, объединенный совет по фундаментальным географическим проблемам. «Институт географии РАН»; отв. ред. В.М. Котляков: Инновационные и интеграционные процессы в регионах и странах СНГ. – М.: Медиа-ПРЕСС, 2011 г.
24. Народонаселение мира в 2006 г. Нью-Йорк: Фонд ООН по народонаселению, 2006.
25. Оно К. Экономическое развитие Японии. Путь, пройденный Японией в качестве развивающейся стран/ Кэнъичи Оно – Т.: Бактрия пресс, 2014.
26. Попов Р.А.: Экономика региона: теория, методология, методика. – М.: Вузовская книга, 2012 г.
27. Республика Узбекистан: Энциклопедический справочник//Авт.-сост.: Н.Тухлиев, А.Кременцова/ – Т.: Гос. Науч. Изд-во «Узбекистон миллий энциклопедияси», 2001, – 448 с.
28. R. Mamadaliyev. Dunyo mamlakatlari. – Т.: «Muhabbir» nashriyoti, 2012 у.
29. Ro'ziyev A., Abirqulov Q.N. O'zbekiston iqtisodiy geografiyasi Т., «Sharq» nashriyoti, 2011.
30. Страны и регионы мира: экономико-политический справочник. Под ред. А.С.Булатова. – М.: Проспект, 2009. – 704 с.
31. Содействие модернизации, ускорению реформ и трансформации (СМАРТ). – Т.: Центр экономических исследований, 2013.
32. Xo'jayev F.E., Xotamov I.S., Aytiyeva S. Bojhona hamkorligi. O'quv qo'llanma. – Т.: TDIU, 2011, -174 bet.
33. E.Nabiyev, A.Qayumov. O'zbekistonning iqtisodiy salohiyati. – Т.: «Akademiya», «Universitet», 2000.
- 4. Internet saytlari**
34. [www.agro.uz](http://www.agro.uz)  
35. [www.cisstat.com](http://www.cisstat.com)  
36. [www.kadastr.uz](http://www.kadastr.uz)  
37. [www.stat.uz](http://www.stat.uz)  
38. [www.unctad.org](http://www.unctad.org)  
39. [www.wikipedia.org](http://www.wikipedia.org)  
40. [www.worldbank.com](http://www.worldbank.com)  
41. [www.wto.org](http://www.wto.org)  
42. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)  
43. [www.grailresearch.com](http://www.grailresearch.com).  
44. «U.S. layoffs increase as business confront crisis», IHT, Oct 26, 2008.

## Yer shari to‘g‘risidagi umumiy ma’lumotlar

Ko‘rsatkichlar	Ko‘rsatkichlar/tavsifi
<b>Yerdan</b>	<b>Quyoshgacha bo‘lgan masofa:</b>
<b>Afeliyada</b>	– 152,1 mln km
<b>Perigeliyada</b>	– 147,1 mln km
<b>O‘rtacha masofa (astronomik birlik)</b>	– 149,6 mln km
<b>Yerdan Oygacha bo‘lgan masofa</b>	– 384,4 ming km
<b>Yerning o‘z o‘qi atrofida aylanish davri</b>	– 23 soat 56 min 4, 091 sek
<b>Yerning Quyosh atrofida aylanish davri</b>	– 365,242 o‘rtacha Quyosh sutkasi
<b>Ekvator nuqtasining Yerning sutkalik aylanishi natjisidagi o‘rtacha tezligi</b>	– 465 m/sek
<b>Yer orbitasining uzunligi</b>	– 939,1 mln km
<b>Yer orbitasi bo‘ylab o‘rtacha tezligi</b>	– 29,765 km/sek
<b>Ekvator radiusining uzunligi</b>	– 6378,16 km
<b>Qutbiy radiusning uzunligi</b>	– 6356,775 km
<b>Yer massasi</b>	– $5976 \times 10^{21}$ kg
<b>Yerning o‘rtacha zichligi</b>	– $5518 \text{ kg/m}^3$
<b>Yer hajmi</b>	– $1,083 \times 10^{12} \text{ km}^3$
<b>Yer yuzasining maydoni</b>	– $510,2 \times 106 \text{ km}^2$
<b>Yer quruqlik yuzasining maydoni</b>	– $149,1 \times 106 \text{ km}^2$
<b>Yer suv (okean) yuzasining maydoni</b>	– $361,1 \times 106 \text{ km}^2$

**Manba:** E. Nabihev, A.Qayumov. O‘zbekistonning iqtisodiy salohiyati.  
– T.: «Akademiya», «Universitet», 2000, 68-bet.

Yer shari to‘g‘risidagi umumiy ma‘lumotlar  
(jadval davomi)

Ko‘rsatkichlar	tavsi fi
<b>Ekvator tushunchasi</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>– Yer yuzasida geografik qutblarga nisbatan bir xil uzoqlikda yotuvchi aylana chiziq <b>ekvator</b> deyildi.</li> </ul>
<b>Paralellar</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>– Ekvatorga nisbatan parallel o‘tkazilgan aylana chiziqlar paralellar deyildi.</li> </ul>
<b>Daraja to‘ri</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>– Parallelellar va meridianlar birligida <b>daraja to‘ri</b> hosil qiladi.</li> </ul>
<b>Yerning o‘z o‘qi atrofida aylanishi</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>– Yer shari o‘z o‘qi atrofida g‘arbdan sharqqa, ya’ni shimaliy qutbga qarab turganda chapdan o‘ngga, soat surlasiga qarama-qarshi tomoniga sekundiga o‘rtacha taxminan 300 metr tezlik bilan aylanadi. Eng <b>katta tezlik ekvatoria kuzatiladi – 464 m/sek</b></li> </ul>
<b>Sutkaning hosil bo‘lishi</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>– Sayyoramiz sharsimon shaklda va u o‘z o‘qi atrofida 23 saat 56 daqiqa 4 soniyada to‘liq bir marfa aylanib chiqadi. Buni <b>yulduz sutkasi</b> deyildi.</li> </ul>
<b>Soat mintaqalarining hosil bo‘lishi</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>– Yer aylanasining uzunligi <math>360^\circ</math> bir kecha-kunduz 24 soat ekanligidan <math>360^\circ : 24 = 15^\circ</math></li> <li>– Demak, har <math>15^\circ</math> da vaqt 1 soatdan farq qiladi.</li> <li>– Yerning 1 soatdagi aylanishi <math>15^\circ</math> ni tashkil qiladi, <math>360^\circ : 15^\circ = 24</math>, demak Yer shari 24 ta soat mintaqasiga bo‘limadi.</li> </ul>

<b>Yerning Quyosh atrofida aylanishi</b>	-- Yerning Quyosh atrofida aylanish yo'li orbita deb ataladi, uning uzunligi 9 39,1 mln km, u ellips shakliida. Ushbu masofani Yer shari soatiga 107 ming km yoki sekundiga 29,8 km tezlik bilan 365 kun 6 saat 9 sekundda to'liq bir marta aylanib chiqadi. <b>Buni yil deb atasadi.</b>
<b>Iqlimlar</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- Arktik, subarktik, kontinental, subtropik, tropik, subekvatorial, ekvatorial</li> </ul>
<b>Oit'alar</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- Yevropa, Osiyo, Afrika, Amerika, Avstraliya va Antarktida</li> </ul>
<b>Materiklar</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- Yevroosiyo, Afrika, Shimoliy va Janubiy Amerika, Avstraliya, Antarktida</li> </ul>

*Manba: [www.wikipedia.org](http://www.wikipedia.org)*

## Dunyo aholisi sonining o'sishi

Yil nomi	Davr	Davrning davom etishi	Davr boshida aholi soni (mln.kishi)	Aholi soni o'rtacha yillik o'sishi (%)
Eramizdan 7000-yil avval	Neolit	5000	10	—
2000-yil av.	Antik davr	2000	50	0,03
O (yangi era)	Yangi eraning boshlanishi, o'rta asrlarning daslabki yillari	2000	230	0,1
1000	O'rta asrlar	1000	305	0,02
1500	O'rta asrlar yakuni	500	440	0,1
1650	Yangi zamoning boshlanishi	150	550	0,3
1800	Yangi zamon	150	952	0,5
1900	Yangi davrning tugashi, eng yangi davr	100	1656	0,8
1950	Eng yangi davr	50	2527	1,0
1980	Yaqin o'tgan davr	30	4430	1,9
2000	Yaqin o'tgan davr	20	6520	1,5
2014	Hozirgi vaqt		7210	1,4

**Dunyo aholisining ırqiy tarkibi, %da  
(XXI asr boshida)**

<b>Irq</b>	<b>Butun jahon</b>	<b>MDH</b>	<b>Xorijy Yevropa</b>	<b>Xorijy Osiyo</b>	<b>Afrika</b>	<b>Amerika</b>	<b>Australiya</b>
Jami aholi	<b>100</b>	<b>100</b>	<b>100</b>	<b>100</b>	<b>100</b>	<b>100</b>	<b>100</b>
Yevropoid	<b>42,3</b>	<b>86,3</b>	<b>99,3</b>	<b>29,2</b>	<b>27,0</b>	<b>52,0</b>	<b>75,4</b>
Mongoloid	<b>20,0</b>	<b>0,6</b>	<b>0,1</b>	<b>31,2</b>	—	<b>6,0</b>	<b>0,4</b>
Negroid	<b>7,0</b>	—	<b>0,2</b>	<b>0,1</b>	<b>54,0</b>	<b>7,0</b>	—
Astraloid	<b>0,3</b>	—	—	<b>0,3</b>	—	—	<b>18,1</b>
Aralash guruhlar	<b>30,3</b>	<b>13,1</b>	<b>0,4</b>	<b>39,2</b>	<b>19,0</b>	<b>35,0</b>	<b>6,1</b>

*Manba:* География: учебник для студ. Под редакцией Е.Б. Баранчикова. — М.: Изд. Центр «Академия», 2012, 82-стр.

## Dunyo aholisining o'tmishdagi soni (ming kishi)

Yil	Dunyo	Afrika	Osiyo	Yevropa	Lotin Amerikasi	Shimoliy Amerika	Australiya va Okeaniya
Era.dan av. 4000-y.	7 000						
Era.dan av. 1000-y.	50 000						
Era.dan av. 500-y.	100 000						
Milodiy 1-y.	300 000						
1000	400 000						
1750	791 000	106 000	502 000	163 000	16 000	2 000	2 000
1800	1 000 000	107 000	657 000	203 000	24 000	7 000	2 000
1850	1 262 000	111 000	809 000	276 000	38 000	26 000	2 000
1900	1 650 000	133 000	947 000	408 000	74 000	82 000	6 000
1950	2 518 629	221 214	1 398 488	547 403	167 097	171 616	12 812
1955	2 755 823	246 746	1 541 947	575 184	190 797	186 884	14 265
1960	3 021 475	277 398	1 701 336	604 401	218 300	204 152	15 888

<b>1965</b>	3 334 874	313 744	1 899 424	634 026	250 452	219 570	17 657
<b>1970</b>	3 692 492	357 283	2 143 118	655 855	284 856	231 937	19 443
<b>1975</b>	4 068 109	408 160	2 397 512	675 542	321 906	243 425	21 564
<b>1980</b>	4 434 682	469 618	2 632 335	692 431	361 401	256 068	22 828
<b>1985</b>	4 830 979	541 814 2	887 552	706 009	401 469	269 456	24 678
<b>1990</b>	5 263 593	622 443	3 167 807	721 582	441 525	283 549	26 687
<b>1995</b>	5 674 380	707 462	3 430 052	727 405	481 099	299 438	28 924
<b>2000</b>	6 070 581	795 671	3 679 737	727 986	520 229	315 915	31 043
<b>2005</b>	6 343 628	887 964	3 787 508	724 722	558 281	332 156	32 998
<b>2013 ·</b>	7 162 119	1 110 635	4 298 723	742 452	616 644	355 361	38 304

*Manba:* [www.wikipedia.org](http://www.wikipedia.org)

## Dunyo aholisining kelajakdagji o'sishi (mln kishi)

<b>Yil</b>	<b>Dunyo</b>	<b>Osiyo</b>	<b>Afrika</b>	<b>Yevropa</b>	<b>Lotin Amerikasi</b>	<b>Shimoliy Amerika</b>	<b>Australiya va okeaniya</b>
<b>2015</b>	7,302	4,391 (60.1%)	1,153 (15.8%)	734 (10.1%)	618 (8.5%)	368 (5.0%)	38 (0.5%)
<b>2020</b>	7,675	4,596 (59.9%)	1,276 (16.6%)	733 (9.6%)	646 (8.4%)	383 (5.0%)	40 (0.5%)
<b>2025</b>	8,012	4,773 (59.6%)	1,400 (17.5%)	729 (9.1%)	670 (8.4%)	398 (5.0%)	43 (0.5%)
<b>2030</b>	8,309	4,917 (59.2%)	1,524 (18.3%)	723 (8.7%)	690 (8.3%)	410 (4.9%)	45 (0.5%)
<b>2035</b>	8,571	5,032 (58.7%)	1,647 (19.2%)	716 (8.4%)	706 (8.2%)	421 (4.9%)	46 (0.5%)
<b>2040</b>	8,801	5,125 (58.2%)	1,770 (20.1%)	708 (8.0%)	718 (8.2%)	431 (4.9%)	48 (0.5%)
<b>2045</b>	8,996	5,193 (57.7%)	1,887 (21.0%)	700 (7.8%)	726 (8.1%)	440 (4.9%)	50 (0.6%)
<b>2050</b>	9,150	5,231 (57.2%)	1,998 (21.8%)	691 (7.6%)	729 (8.0%)	448 (4.9%)	51 (0.6%)

*Manba:* [www.wikipedia.org](http://www.wikipedia.org)

## Dunyoning aholisi eng kop mamlakatlari (kishi)

<b>№</b>	<b>Mamlakat</b>	<b>Aholisi:</b>	<b>Sana</b>	<b>Yer aholisidagi ulushi, %</b>
1	XXR	1 375 062 000	2016-yil 5-fevral	19.2%
2	Hindiston	1 284 484 000	2016-yil 5-fevral	17.72%
3	AQShi	321 267 000	2016-yil 5-fevral	4.43%
4	Indoneziya	257 563 815	2015-yil 1-iyul	3.55%
5	Braziliya	203 262 369	2016-yil 5-fevral	2.84%
6	Pokiston	191 796 527	2016-yil 5-fevral	2.65%
7	Nigeriya	182 201 962	2015-yil 1-iyul	2.51%
8	Bangladesh	160 046 737	2016-yil 29-yanvar	2.21%
9	Rossiya	146 519 759	2016-yil 1-yanvar	2.02%
10	Yaponiya	126 820 000	2016-yil 1-yanvar	1.75%
11	Meksika	121 005 815	2015-yil 1-iyul	1.67%
12	Filippin	101 562 306	2015-yil 1-iyul	1.39%

13	Vyetnam	91 583 000	2015-yil 1-iyul	1.26%
14	Efiopiya	90 076 012	2015-yil 1-iyul	1.24%
15	Misr	87 266 579	2016-yil 5-fevral	1.23%
16	Germaniya	81 174 000	2015-yil 1-yanvar	1.12%
17	Eron	79 003 827	2016-yil 4-fevral	1.09%
18	Turkiya	78 741 053	2015-yil 31-dekabr	1.09%
19	Kongo Demokratik Respublikasi	77 266 814	2015-yil 1-iyul	
20	Tailand	65 104 000	2015-yil 1-iyul	0.9%

*Manba:* [www.wikipedia.org](http://www.wikipedia.org)

## Dunyo aholisining zinch va kam joylashgan hududlari (2006-yil)

Aholisini eng zinch joylashgan mamlakatlari, kishi				Aholisini eng kam joylashgan hududlar, kishi			
Nº	Mamlakat	Aholisi	Zichlik, 1 kv km	Nº	Mamlakat	Aholisi	Zichlik, 1 kv km
1.	Makao-Xitoy	35986	17815	1.	Grenlandiya (Dat)	—	0,03
2	Singapur	5312400	7437	2	Mongoliya	3086918	2,0
3	Vatikan	836	1900	3	Namibiya	2128471	2,6
4	Malta	452515	1432	4	Australiya	22262501	2,8
5	Maldiv orollari	395650	1328	5	Surinam	486618	3,0
6	Bahrayn	738004	1110	6	Islandiya	321857	3,1
7	Bangladesh	156118464	1084	7	Mavritaniya	3205060	3,1
8	Barbados	285653	663	8	Liviyiya	5613380	3,2
9	Mavrikiy	1294104	634	9	Botsvana	2029307	3,4
